Dunyoda hech bir jamiyat yo'qki, uning rivojida ham, tanazzulida ham inson omili hal qiluvchi rol o'ynamagan bo'lsin. Insonlarning jamiyatdagi o'rni esa, umumiy taraqqiyotga qo'shgan hissasi bilan belgilanadi. Xalqaro munosabatlarning integratsiyalashuvi va mamlakatlarning jahon maydonida raqobatbardoshligini ta'minlashning asosiy omili sifatida inson kapitalini rivojlantirishga bo'lgan zarurat, davlatlarning ta'limga oid siyosatini takomillashtirishga undamoqda. Jamiyat rivojidagi yangilanish zarurati va ehtiyoji zaminida ta'lim-tarbiya omili hamda bunda

o'qituvchi asosiy poydevordir. Shu bois har bir jamiyat kelajagi uning ajralmas qismi bo'lgan ta'lim tizimining rivojlanish darajasi o'qituvchining mahorati bilan belgilanadi. O'qituvchilarni kasbiy rivojlantirishning uzluksizligi va uzviyligini ta'minlash bugungi zamonaviy ta'lim jarayonlarining muhim va ajralmas qismi hisoblanadi.

Keyingi yillarda uzluksiz ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, unga ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish hamda umuta'lim maktablarida ta'lim berishning sifat va samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi bejiz emas. Bu borada davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyevning: "Agar rahbarlar, muallimlar Yangi O'zbekistonga munosib harakatlar qilsa, farzandlarimizni davr talabiga munosib o'qitishimiz mumkin. Xalqimiz bizga eng katta boyligini – zurriyodini ishonib beryapti, bu juda katta mas'uliyat. Shuni his qilib, o'zimizni qiynab, maktabni isloh qilsak, kelajakka zamin yaratamiz", – degan ta'kidlari, shuningdek, davlatimiz rahbarining maktab o'qituvchilarini yangi metodikalar asosida qayta tayyorlash bo'yicha umummilliy loyiha boshlanishini e'lon qilishi, ushbu yangi tizim doirasida kelgusi 3-4 yilda maktablardagi barcha sinf o'qituvchilari yangi metodika asosida o'qitilishi, buning uchun har bir hududdagi Malaka oshirish markazlari negizida pedgoglarni yangi metodikalarga o'rgatuvchi Milliy ta'lim markazlarining tashkil etilishi borasidagi sa'y-harakatlar mavzuni yanada mustahkam g'oyaga aylantirmoqda.

Uzluksiz ta'lim tizimidagi yangilanishlar hamda mazkur ta'lim turlarining maqsadiga asosan ta'lim mazmunining belgilanishi, yangi avlod dasturlari, darsliklarining yaratilishi, shiddat bilan kirib kelayotgan o'zgarishlar – ta'lim berish muammosiga yangicha yondashuvni talab qiladi. Shu bois keyingi yillarda pedagogika va o'qitish metodikasi oldida turgan vazifalardan biri – nafaqat ta'lim turlari va bosqichlarini, balki, avvalo, mazmunni o'quvchiga singdiruvchi o'qituvchining kasbiy rivojlanishini, uning o'zgarishlarga, zamon bilan hamnafas bo'lishga motivatsion tayyorligini ta'minlashni ilmiy asoslab berishga qaratiladi.

Zero, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida qayd qilingan "o'quv dasturlari doirasida mualliflik dasturlarini ishlab chiqish va joriy etish, o'qitish uslubiyotini ishlab chiqish, shuningdek, tegishli o'quv fanlari, kurslari, modullaridan foydalanish, ijodiy faollik ko'rsatish" talabini amalga oshirishda ham o'qituvchining uzluksiz kasbiy rivojlanishga motivatsion tayyorligini rivojlantirish alohida o'rin tutadi. Shu o'rinda ta'limda uzviylik va uzluksizlik tushunchalarining mohiyatiga to'xtalish o'rinli bo'ladi.

Pedagogikada ta'limning uzviyligi va uzluksizligi tamoyiliga alohida urg'u berilishi bejiz emas. "Bu tamoyil, – deb yozadi professor J.Hasanboyev, – ta'limda zarur fiziologik-psixologik qonuniyat hisoblanib, bilimni mantiqiy bog'liqlikda o'rganishni ta'minlab beradi. Har bir fan bo'yicha dasturiy va uslubiy tavsiyanomalar

yaratishda joriy qilinadi va ular tushunchalar, dalillar va boshqa fikrlar orasidagi aloqadorlikdan kelib chiqqan qonun va qoidalar bilan amaliy ishlarni bajarish o'rtasidagi mantiqiy bog'liqliklarni o'rganish orqali amalga oshiriladi".

Ta'limning uzluksizligi, uzviyligi g'oyasi uzoq asrlarga borib taqaladi. Jumladan, Aflotun, Suqrot, Konfusiy, Arastu, Seneka, Beruniy, Imom al-Buxoriy va boshqa mutafakkirlar tomonidan ta'limning uzluksizligiga alohida e'tibor qaratilgan bo'lsa, Yan Amos Komenskiy uning maxsus tizimini yaratishga muvaffaq bo'ldi. U birinchi marta ta'limda ketma-ketlik, tizimlilikka asos soldi. Keyinchalik I.P.Pavlov inson oliy nerv faoliyatining muhim xususiyati bo'lgan tizimlilikning uzviylik bilan aloqadorligini tabiiy-ilmiy nuqtai nazardan isbotladi.

Umuman olganda, uzluksizlik – o'zaro mantiqiy izchillik asosida bog'langan hamda soddadan murakkabga qarab rivojlanib boruvchi va bir-birini taqozo etuvchi bosqichlardan iborat yaxlit ta'lim tizimi sifatida ta'riflansa, uzviylik esa ta'lim-tarbiya jarayonining muayyan ketma-ketlik asosida tashkil etilishini ifodalovchi muhim sifat bo'lib, u ma'lum bosqichda avvalgi bosqich o'quv faoliyati mazmunini tashkil etuvchi bilim, ko'nikma va malakalarning mustahkamlanishi, kengaytirilishi va chuqurlashtirilishini ta'minlaydi.

O'qituvchini uzluksiz kasbiy rivojlantirishga shu nuqtai nazardan qaraganda, o'qituvchilarning bilim, ko'nikma, malaka va kompetentliklariga qo'yilgan davlat talablari har bir fan kesimida alohida ko'rsatilganligi, ushbu talablarni amalga oshirishda ularning ijodkorligi, tanqidiy fikrlashi, o'z ustida ishlashi, kasbiy rivojlanishda, shaxsiy samaradorlikka erishishda tizimli ishlarni yo'lga qo'yilayotgan bo'lsa-da, biroq ba'zan pedagog xodimlar tomonidan olib borilayotgan ishlar ko'lamida mas'uliyatni his etmaslik holatlaridan ham ko'z yumib bo'lmaydi.

Holbuki, ta'lim amaliyoti uzluksizlik, uzviylik uni o'zlashtirish samaradorligining muhim sharti bo'lib, falsafiy, psixologik va pedagogik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Jumladan, "uzviylik" kategoriyasi falsafiy jihatdan "rivojlanish" kategoriyasi bilan chambarchas bog'liq hisoblanadi. Rivojlanish nuqtai nazaridan uzviylik ham sifat o'zgarishlari jarayoni, ham yangi sifatni hosil qilish maqsadida bir darajadan ikkinchi darajaga o'tish tarzida talqin etiladi, oldingi bosqichlarda qo'lga kiritilgan natijalarning rivojlanishini nazarda tutadi. Ta'lim tizimida uzviylik tushunchasiga turlicha ta'riflar berilganini kuzatish mumkin. Jumladan, taniqli rus olimi B.G.Ananyev: "Ta'limdagi uzviylik o'quvchilar fan asoslarini egallashi jarayonida olgan bilimlar tizimining vaqt nuqtai nazaridan rivojlanishidir", – deb yozsa, boshqa bir metodist Sh.I.Ganelinning fikricha, "...uzviylik – bu o'quvchilar tomonidan o'rganilayotgan o'quv material uchun tayanch bo'luvchi mavjud bilim, ko'nikma va malakalarning amalda shunday qo'llanishi va istiqbol rivojlanishidirki, ular asosida bilimlar o'rtasida turli aloqalar yuzaga keladi, kursning asosiy g'oyalari

ochiladi, eski va yangi bilimlarning o‘zaro aloqadorligi ta’minlanadi, natijada o‘quvchilarda puxta va chuqur bilimlar tizimi shakllanadi”.

S.M.Godnik tadqiqotlarida esa uzviylik qonuniyat, tamoyil, omil, sharoit, usul, qoida, vosita sifatida e’tirof etiladi. Uning xulosasiga ko‘ra, “tor ma’noda uzviylik jarayoni – bu ta’limning turli bosqichlari orasidagi ketma-ketlik uzilishlarini to‘ldiruvchi pedagogik namoyishlarning tartibi. Keng ma’noda bu namoyishlar pedagogik faoliyatning umumiy kontekstiga kiritiladi”. S.M.Godnik boshqa bir asarida fikrlarini davom ettirib “pedagogik jarayon va hodisalar orasidagi uzviylik deganda, eski va yangi, yangi va eski o‘rtasidagi shunday aloqa tushuniladiki, bu sharoitda vujudga keladigan dialektik qarama-qarshiliklar mos jihatlarni tashkil qilgan aloqadorlik asosida hal qilinadi”, deb ta’kidlaydi. Ushbu ta’riflarning aynan biz ta’kidlamochi bo‘lgan ifodasi o‘qituvchini uzluksiz kasbiy rivojlanishining muhim omili bo‘lib xizmat qiladi.

Taniqli psixolog S.L.Rubinshteynning fikricha, uzviylikning mohiyati shundaki, o‘qitish jarayonining har bir bosqichi avvalgisining negizida yuzaga kelganligi, uning ichki sharoitini tashkil etganligi sababli barcha bosqichlar o‘rtasida o‘zaro aloqa mavjud.

Boshqa bir tadqiqotchi Yu.A.Kustov “o‘quv bilishdagi uzviylikning mazmun-mohiyati yuqoriroq ilmiy asosdagi bilim, ko‘nikma va malakalarni kengaytirish hamda chuqurlashtirishning bosqichli jarayonida eski, yangi va istiqbol o‘rtasida zarur aloqalarni o‘rnatishdan iboratdir” – deb ta’kidlaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak psixologiyada uzviylik murakkab psixologik rivojlanish qonuniyatlari, yosh bilan bog‘liq o‘zgarishlarni o‘rganish; bilimlarni bosqichma-bosqich o‘zlashtirish; faoliyatning yetakchi turlari o‘zgarishi doirasida ko‘rib chiqiladi.

Pedagogik jihatdan esa uzviylik, birinchidan, didaktik tamoyil, ikkinchidan, ta’lim jarayonini samarali tashkil etishga ko‘maklashuvchi jarayon, harakatga keltiruvchi kuch (ta’lim jarayonini amalga oshirishga yordam beruvchi omil), ta’lim, rivojlanish va tarbiya jarayonida majburiy bajarilishi kerak bo‘lgan talab sifatida izohlaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF–5712-son Farmoni. – QHMMB, 29.04.2019. 06/19/5712/3034-son.
2. Pedagogika: ensiklopediya. II jild / tuzuvchilar: jamoa. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2015. – 376 b.
3. Pedagogika / V.A.Slastyonin, I.F.Isayev, Ye.N.Shiyanov; Pod red. V.A.Slastyonina. – M.: «Akademiya», 2002. – 576 s.

4. Shodiyeva M.J. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari malakasini oshirish tizimining o'quv-metodik ta'minotini takomillashtirish: ped. fan... (PhD) diss. – Toshkent, 2019. – 220 b.
5. Shodmonova M.B. Malaka oshirish tizimida ona tili va adabiyot o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish: ped. fan... (PhD) diss. – Toshkent, 2019. – 182 b.
6. Qo'ysinov O.A. Kompetentli yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirish texnologiyalari: diss. ... ped. fan. dok. (DSc). – Toshkent, 2019. 237 b.
7. Elektron resurs: [http: /www.yspu.ru/projects/infomet/preemstvennost/Ssilki.htm](http://www.yspu.ru/projects/infomet/preemstvennost/Ssilki.htm).

**TEMURIYLAR DAVRIDA O'RTA OSIYONING ME'MORCHILIK
MADANIYATI***Namangan davlat universiteti**Tarix yo'nalishi 3-kurs talabasi***Abdullayev Zohidjon**

Annotatsiya: Temur va temuriylar davri O'rta Osiyo madaniyatida alohida davrni tashkil qiladi. Madaniyat tarixida klassik davr hisoblangan bu davr xususan, o'zbek madaniyatining bugungi huquqiy joylashuvida asos bo'lib xizmat qiladi. Avvalo, bu davr madaniyati Temur asos solgan kuchli davlatchilik tamoyillari asosida shakllangan ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bilan bog'liqdir..

Kalit so'zlar: Bibixonim jome masjidi, bronza shamdonlar, kubik shaklidagi maqbara (chahartak), Ko'ksaroy, [madrasalar](#), saroylar, karvonsaroylar, Jamoat binolari, masjidlar.

Temuriylar davrida O'rta Osiyoning mustaqil bir davlat qilib birlashtirilishi mamlakatning iqtisodiy-madaniy taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ilm-fan, adabiyot va san'at, hunarmandchilik va me'morchilik ravnaq topdi. Mamlakat va poytaxt Samarqandning obodonchiligi yo'lida mahalliy va chet mamlakatlardan ko'plab fan va san'at ahllarini, hunarmand me'morlarni va musavvirlarni to'pladi.

Temur markazlashgan davlat tuzish jarayonida ishlab chiqarishga, xususan qishloq xo'jaligiga alohida e'tibor berdi. O'rta Osiyoda qishloq xo'jaligi sun'iy sug'orishga bog'liqligini yaxshi tushungan Temur Angor kanalini qazdirdi va Murg'ob vodiysida sug'orish ishlarini yo'lga qo'ydi. Samarqand va Shahrisabz shaharlari oqar suv bilan ta'minlandi. Lalmikor yerlarda ariklar qazildi. Dehqonchilikda donli ekinlar, paxta, zig'ir ekilgan. Bo'yoq uchun ro'yan o'simligi, shuningdek pillachilikda tutlar ko'p ekilgan. Uzum, limon yetishtirilgan.

Ulug'bek davrida Bog'i maydonda turli o'simliklar ekilib, Bog'cha nomli bog'barpo etilgan. Temur Samarqand atrofida Bag'dod, Sultoniya va Sheroz nomli qishloqlar qurdiradi. Temur va Ulug'bek davrida qo'ychilik va yilqichilikka alohida e'tibor berilgan.

Bu davrda tog'-kon ishlari yo'lga qo'yilib, turli ma'danlar qazib olinishi tufayli hunarmandchilik rivojlangan. Obodonchilik, sug'orma dehqonchilikning rivojlanishi iqtisodiy hayotda muhim soha-hunarmandchilik, savdo va tovar-pul munosabatlarining taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. hunarmandchilik tarmoqlarining ko'payishi tufayli shaharlarda hunarmandchilik mahallalarining soni ortib, yangi bozor rastalari, tim va toqlar qurildi. To'qimachilik, kulolchilik, chilangarlik, temirchilik va binokorlik sohalari asosiy o'rin tutgan. Samarqand, Buxoro, Toshkent, Shohruhiya, Termiz,

Shahrisabz, qarshi shaharlarida yangi hunarmandchilik mahalalari qurilib, savdo markaziga aylandi. Ip, jun, kanop tolasidan gazmollar to‘qilgan. Ipakdan shoyi gazlamalar atlas, kimxob, banoras, duhoba, horo, debo kabi gazmollar to‘qilgan.

[Temur](#) uchun amalga oshirilgan me‘moriy inshootlarning ko‘rkamligi siyosiy ahamiyatga ega edi. Buning dalili sifatida [Oqsaroy](#) binosi peshtoqiga yozilgan "Agar bizning kuchimizga ishonch hosil qilishni xohlasangiz., bizning binolarimizga qarang!" [1] degan yozuvni keltirish mumkin.

Ushbu me‘morchilikning o‘ziga xos xususiyatlari — muhtashamlik, ulkanlik, ko‘rinishning ko‘rkamligi va bezatishning yangi uslublaridan foydalanish. Shahar markazidagi maydon ([o‘zbekcha](#): maydon : [Registon](#)) qal’a bilan o‘ralgan. Suv ta’minoti [ariqlar](#) tizimi orqali amalga oshirilgan. [Xonaqohlar](#) sayohatchilar va savdogarlar joylashishi uchun yaratilgan. Jamoat binolari masjidlar ([Ko‘k masjid](#)), [madrasalar](#), saroylar (Ko‘ksaroy) va karvonsaroylardan iborat bo‘lgan. [Ulug‘bek rasadxonasi](#) balandligi 30 metr bo‘lgan uch qavatli o‘ziga xos inshoot edi. Bino ichidagi hovli ko‘pincha (50 ga 55 m) [2] shaklida bo‘lgan.

Temuriylar davriga xos bino kubik shaklidagi maqbara (chahartak) bo‘lib, bino ustida tekis, asosan ko‘k (firuza) [gumbaz](#) joylashgan .Hoja Ahmad [Yassaviy maqbarasi](#) gumbazining balandligi 44 metr, diametri 22 metr. Temuriylar davridagi binolarning muhim qismi alohida ajralib turadigan [peshtoq](#) — [ayvon](#) edi. [Bibi-Xonim](#) jome masjidining balandligi 33 metrga yetadi, [Oqsaray](#) binosi esa undan ham balandroq edi — 70 metr. Asosiy qurilish materiali ganch ohak bilan mahkamlangan g‘ishtdir. G‘isht gips bilan qoplangan. Mayolika gumbaz qoplamasi uchun ishlatilgan. Tashqi ko‘rinishni bezatishda plitkalar [mozaikasi](#) (moarrak) [3], shuningdek, [marmar](#)tosh lardan foydalanilgan.



[Bibixonim jome masjidining](#) tashqi bezatish uslublari [Samarqand](#) ([O‘zbekiston](#))

Binolar me‘morchiligida balandligi 9 metr (eni 4 metr va chuqurligi 3 metr) gacha bo‘lgan qurilish uslubi amaliyotda kam uchraydi [4] . Devorlarga gilamlar, kiygizlar, qurollar osilgan. Derazalar rangli oynali [vitrajlar](#) va ochiq [panjaralar](#) bilan bezatilgan. Sun’iy ravishda yoritish uchun devorga o‘rnatilgan bronza shamdonlardagi shamlar va oltin qandillar ishlatilgan.



Mashhaddagi Gavharshod Begim masjidi



Hirotdagi Gavharshod Begim maqbarasi

Naqqoshlikda foydalaniladigan bezak turlari xilma-xildir. Xattotlik [kufiy yozuvi](#) bilan ifodalanadi ([Alloh](#) va [Muhammad](#) soʻzlari eng koʻp ishlatilgan). Geometrik jihatdan girih, medalyon, spiral, [romb](#) va olti burchak shakli qoʻllanilgan. Gulli usulda bezatishda [5] poya va gullar bir-biriga bogʻlangan holda boʻlgan. Qurilishda asosiy ishlatilgan [ranglar](#) „firuza-koʻk“, bezatishda esa „koʻk-oltin“ [6] boʻlgan. Temuriylar shoiri [Alisher Navoiy](#) havorang [7] (moviyrang) va [indigo](#) [8] ranglarini ajratadi. Shuningdek, meʼmorchilikda yashil, qizil, sariq, qora va oq ranglar([ganch](#)) mavjud. Plitkalardan tozalangan yuza qismlari [alebaster](#) bilan qoplanishi mumkin.

Peyzaj sanʼati maʼlum bir rivojlanishga erishdi. [Amir Temur bogʻlari](#) baland devor (duval) bilan oʻralgan kvadrat shaklda edi. Bogʻning burchaklarida minoralar, markazda esa ayvonlar yoki saroylar turardi. Ichki maydon 4 ta qismga boʻlingan (chorbogʻ). Bogʻning kengligi 3 ta xiyobondan iborat [boʻlib](#), uning atrofida bir necha qator boʻlib daraxtlar (chinor, qaragʻay, [sarv](#) va oq terak [9]) oʻsgan. Bogʻning ichki qismidagi suzish havzasi ([oʻzbekcha](#): hovuz) kvadrat shaklida boʻlgan [10] Mevali daraxtlardan asosan [behi](#), oʻrik, shaftoli, olcha va gullardan iris, [binafsha](#), [zaʼfaron](#), krokus, [lola](#) va [atirgullar](#) ekilgan.

Temuriylar meʼmorchiligi 16—18-asrlarda [Markaziy Osiyo](#), [Hindiston](#) va [Eronda](#) yangi tashkil topgan uchta davlat meʼmorchiligining boshlangʻich nuqtasi boʻlib, ularda bir qancha umumiy rivojlanish belgilari kuzatilgan.

Bunda rivojlanayotgan savdo-sotiq, diplomatik aloqalar va hunarmandlar munosabati muhim rol o'ynadi. Shunday qilib, 17-asr o'rtalarida Buxorodagi [Abdulazizxon madrasasining](#) tashqi ko'rinishi hind me'morchiligi manzarasi aks ettirilgan devoriy suratlar bilan bezatilgan. Bu ko'rinish Agra shahridagi mashhur [Toj Mahal](#) maqbarasi qurilishida ishtirok etgan [\[11\]](#) Buxorolik 2ta o'ymakor usta va Samarqandlik gumbaz quruvchisi tomonidan yaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Axmedov B. A. Amir Temur. Jizn i obshchestvenno-politicheskaya deyatel'nost' / Mukminova R. G., Pugachenkova G. A.; pod red. Rtveladze E. V.. — Tashkent : Universitet, 1999. — 263 s.
2. Yusupova M. A. K problemam izucheniya zodchestva stran Tsentralnoy Azii XVI—XVII vekov // Obshchestvennie nauki v Uzbekistane. — 1995. — № 5-6-7-8.
3. Yayitmetov A. Temuriylar davri o'zbek adabiyoti. T., 1996 y. 8-10 betlar.

**KORXONALARDA BRENDING MEXANIZMINI AMALGA
OSHIRISHNING DOLZARBLIGI**

Noiba Qodirova Maxmud qizi– Toshkent

Davlat Iqtisodiyot Universiteti

Samarqand filiali magistranti

Ilmiy rahbar - Iqtisodiyot Fanlari Doktori, professor

O.Murtazayev

Annotatsiya: mazkur maqolada Samarqand viloyatida joylashgan korxonalarda ishlab chiqarilayotgan tayyor va yarim tayyor mahsulotlarni milliy brend darajasiga olib chiqishning marketing strategiyalari va branding mexanizmining samaradorlik darajasi ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: milliy tovar, milliy brend, branding mexanizmi, mahalliy brend, marketing strategiyasi, raqobatbardoshlik salohiyati, iste'molchi tanlovi, imidj, stil, investitsion jozibadorlik

Аннотация: в данной статье показан уровень эффективности маркетинговых стратегий и механизма брендинга доведения готовой продукции и полуфабрикатов, производимых на предприятиях, расположенных в Самаркандской области, до уровня национального бренда.

Ключевые слова: национальный бренд, национальный бренд, механизм брендинга, локальный бренд, маркетинговая стратегия, конкурентный потенциал, потребительский выбор, имидж, стиль, инвестиционная привлекательность.

Annotation: this article shows the level of effectiveness of marketing strategies and the branding mechanism for bringing finished products and semi-finished products produced at enterprises located in the Samarkand region to the level of a national brand.

Key words: national brand, national brand, branding mechanism, local brand, marketing strategy, competitive potential, consumer choice, image, style, investment attractiveness.

Kirish

Mamalakatimiz mustaqillikdan so'ng korxonalar faoliyatida va mahalliy bozorlarni milliy tovarlar bilan taminlashda bosqichma-bosqich tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirmoqda, va korxonalar va tashkilotlar faoliyatini samarali tarzda tashkil etish va korxonalardagi iqtisodiy amaliyotlarni bozor iqtisodiyoti talablari darajasiga moslashtirish zaruriyatini muhim vazifalar qatoriga qo'yimoqda. Biznesni boshlashda e'tibor berish kerak bo'lgan birinchi narsa bu brenddir va brend marketing kommunikatsiyalari tizimining firma stili va uning elementlarini ishlab chiqish,

firmani raqobatchilardan ajratib turuvchi o'ziga xos imidjini yaratish sohasi hisoblanadi.

Milliy tovarlarni milliy brend darajasiga olib chiqish maqsadoga erishish orqali mamlakatimiz o'ziga xos ijobiy imidj yaratadi, milliy brend yaratish ham ichki ham tashqi siyosiy ta'sirning o'sishiga olib keladi. Bir tarafdin, brend mahsulotlarining ishlab chiqarilishi va bozorni egallashi mamlakat ichki bir qancha ijtimoiy-siyosiy muhim muammolar yechilishiga olib kelsa, boshqa tarafdin, stimullashgan mahalliy o'zini tanitishning o'sishi va ijtimoiy bosimning qisqarishiga va mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari uchun ijobiy ustunlikni taminlab beradi. Bugungi kunda mamlakat umumiy imidji aynan uning jahon bozoridagi xizmatlar va tovarlar ishlab chiqarishdagi mavqei bilan o'lchanmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Mamlakatimizda hozirda olib borilayotgan ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga bosqichma – bosqich o'tishga tayangan siyosati, korxonalar va tashkilotlar faoliyatini samarali tarzda tashkil etish va korxonalardagi iqtisodiy amaliyotlarni bozor iqtisodiyoti talablari darajasiga moslashtirish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Jahonning eng rivojlangan AQSh, Yaponiya, Xitoy, Yevropa Ittifoqi kabi mamlakatlari jahon bozorida raqobat ustunligini ta'minlashning asosiy strategiyasi sifatida qo'shimcha qiymat yaratish manbai bo'lgan xalqaro brendlarga e'tibor qaratib, xalqaro brendlarni boshqarish siyosatiga katta e'tibor qaratmoqda.

Ushbu holatlar rivojlanayotgan mamlakatlarda xalqaro brendlarni bozordan siqib chiqarishga qaratilgan mahalliy branding strategiyalarini shakllantirish taqozo etmoqda. O'zbekiston «Nation Brands 2022» reytingida 62-o'rinni egalladi¹ va u Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida eng yaxshi ko'rsatkichni ko'rsatib kelayotgan Qozoqistondan 11 o'rin orqada kelmoqda ikki yil davomida. O'zbekistondagi ishlab chiqaruvchi va xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining brendni yaratish va uning qiymatini oshirishga bo'yicha yetarli tajribaga ega emasligini, ularning marketing faoliyatida yangicha yondashuvlar, vositalar va brendlarning modellaridan foydalanishni taqozo etmoqda. “Nation Brands” tizimi mamlakatlar reputatsiyasini baholash, branding mexanizmini ishlab chiqish va boshqarishni tashkil etishga asoslanadi, shunday ekan O'zbekistonda “Milliy tovar”, “Milliy Branding tizimini” ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb masalasi bo'lib kelmoqda bugungi kunga qadar. Uning mamlakatimiz kelajagi uchun naqadar muhim ahamiyat tutishini ko'rsatib beruvchi “Nation Brands” indeksini o'rganish shu asosida xorij tajribasiga tayanib milliy tovarlarimiz uchun milliy branding mexanizmini korxona va tashkilotlar uchun ishlab chiqish asosiy oldimizda turgan masaladir. Oldimizga

¹ “Brand Finance Nation Brands 2022” the annual report journal 40-44 b.

quygan masalaning yechimini topishda avval; nimadan boshlashimiz kerak, qanday bosqichlar orqali maqsadimizga erisha olamiz? – degan savollarga javob topmog'imiz kerak.

Mavjud tadqiqotlarda brend nazariyalari va iste'mol tovarlari brendini shakllantirish va branding strategiyalarini ishlab chiqishning ilmiy-nazariy jihatlarini yoritilgan bo'lsada, O'zbekiston korxonalari uchun alohida milliy brend mexanizmini shakllantirish bo'yicha ilmiy asoslangan tahliliy struktura ishlab chiqish masalalari o'rganilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi

O'rganilgan mahalliy korxonalarining faoliyati va hozirgi holati, ularning ish tajribasi, malaka va bozordagi mavqei to'g'risida olingan ma'lumotlar yordamida tahlili va ularni analizi asosida. Tahlilda empirik metod va keys study metodidan foydalanish bilan bir qatorda "Adabiyotlar sharhi"dan ham foydalanildi. Bunda mashkur brendlar tajribalarini o'rganish, mamlakatimiz korxonalari holatini baholashda olimlarning ilmiy ish natijalariga e'tibor qaratildi.

Tadqiqot tahlili va natijalari

Mahalliy brend degan ibora mintaqaning turli xil hududlarida mavjudligi, Brend atamasiga yanada kengroq yondashuvni talab etadi, mahalliy brend tushunchasiga aniqlik kiritish branding nazariyalari uchun muhimdir. Milliy brendlar O'zbekiston Respublikasining xalqarobozordagi o'rnini namoyon qiladi. Hozirga qadar kompaniya (tadbirkorlar) yoki ularning mahsulotlarining brendini ichki bozor miqyosida ko'rishga harakat qilingan. Shu sababdan "Mahalliy brend» iborasini qo'llanilishi ilmiy-uslubiy jihatdan maqsadga muvofiq hisoblanadi. Biroq Brend – iste'molchilar ongida barqaror tasavvurlar birikmasi bo'lib, mahsulotga nisbatan shaxsiy yondashuvini shakllantiradigan, yuqori sifat kafolati, qaytarilmaslik, raqobatdoshlik ustunligini ta'minlovchi, tovar yoki xizmat qiymatidan mustaqilligini aks ettirishi tushuniladi. Ma'lumki, brendlar - mahsulotga o'xshab ishlab chiqarilmaydi, ular iste'molchilar tafakkurida shakllanadi, shu bilan birga mahsulotga nisbatan emotsional bog'liqlik yaratadi.

Bilamiz, D. Aker brendning ikkita darajali tizimini yaratadi. Milliy brendning rivojlanishini u o'z navbatida branding jarayonini qay darajada tashkil topganiga bog'ladi. Glaballashuv jarayoni har bir hudud, shahar va mamlakat ma'lum sohada o'z ulushiga ega bo'lishi uchun bozorda raqobatlashishiga olib keldi.

Branding - marketing kommunikatsiyalari tizimining firma stili va uning elementlarini ishlab chiqish, firmani raqobatchilardan ajratib turuvchi o'ziga xos imidjini yaratish sohasi. Branding jarayoni esa – bu boshqaruv faoliyatining majmui bo'lib, bu jarayon tizimida operatsiya yoki protseduralarning o'zaro, uyg'un mos ekanligini ta'minlovchi usul yoki uslublardan shakllantiriladi. Branding jarayonining

davriy xususiyatlaridan tashqari, korxonalarda brendni shakllantirish texnologiyasining asoslari quyidagilar bo'lib hisoblanadi:

1. Brendning mohiyatini aniqlash.
2. Brend nomini tanlashda ratsional-emotsional aspektlarni inobatga olish.
3. Brend mohiyati va asotsiatsiyalarini turkumlanishini tahlil qilish.
4. Brendning ustunliklarini uni pozitsiyalashda hisobga olish.
5. Brend va uning atrofida o'rab turgan omillarni ketma-ketligini modellash.

Mijozlar brendning mavjudligi haqida bilishlari va kerak bo'lganda uni osongina tanib olishlari yoki eslab qolishlari uchun diqqatni jalb qilishi kerak. Brend menejeri esa, oxir-oqibat, ushbu mahsulot brendini yaratadigan va nomiga ishora qiladigan hamma narsa uchun javobgar bo'lgan kishidir.

Brendingni aynan maqsad aniqlangan, strategik har taraflama ishlab chiqilgan, bir qancha bosqichlardan iborat deb oladigan bo'lsak, odatda bularga; bozorni baholash (bozor bahosi, maqsadli auditoriyani aniqlash, xaridorlar talabi va istagi), brend konsepsiyasini ishlab chiqish, kamunikatsion strategiyani aniqlash, brendni joriy qilish jarayoni, boshqa raqobatchi branding korxonalarini monitoring qilish, korxona brendini effektivligini baholab borish kiradi.

Mamlakatlar bugungi kunda jahon bozorida eng kuchli brendi bilan o'zaro ustunlik uchun kurashishmoqada. Birgina misol: AQSH brendi o'z navbatida eng ko'zga ko'ringanlardan hisoblanadi. Ushbu davlatning APPLE, IBM, Microsoft kabi texnologiya brendlari suniy intellekt va erkinlikni namoyon qilsa, MTV, KOKA-KOLA, DJINSI kabi brendlari yoshlar madaniyati aksi bo'lib kelmoqda,

“Nation Brand” butun jahon moliyaviy-iqtisodiy baholash tizimining tub mohiyati aniqlashning dastlabki bosqichida milliy brendning kuchliligini aniqlashda quydagi uch omil asosiy o'rin tutadi:

a) Investitsion jozibadorlik (Investment)-milliy brendni yaratishga raqobatchilarga qaraganda qanchalik ko'p mablag' jalb qilinganini, shuningdek investitsiyaning ustunligini tan olingan ommaviy resurslar; masalan, Birlashgan Millatlar tashkiloti, Jahon Banki va Jahon Inovatsiya Indeksi statistik ma'lumotlari xabardor qiladi.

b) Taa'ssurotlar (Perceptions)-milliy brend to'g'risida mahalliy va jahon bozori tasavvurlari qanday? Taa'ssurotlarni baholashda Brand Finance taqdidotlarining Global Soft Power Indexi natijalariga asoslanadi va bunda 100 dan ortiq mamlakatlarning 100000 dan ziyod odamlari fikrlari tadqiqot qilinadi.

c) Ishlash qobiliyati (Performance)-Milliy brendning raqobatchilarga qaraganda qanchalik yaxshi faoliyat yuritayapdi? Faoliyat yuritish ustuvorligi makro iqtisodiy barqarorlikka shu bilan birga 4 asosiy; savdo, investitsiya, turizm va iste'dod biznes sohalariga qarab aniqlanadi.

Dastlabki bosqichan tashqari yana 4 ta keyingi pog'onalar asosida Milliy brend aniqlanadi va bu har bir davlatning jahon bozoridagi o'zni va reputatsiyasini belgilab beradi.

Brend muloqotning amaliy quroli yoki raqobatdan ajralish quroli hisoblanadi. Ishlab chiqaruvchi va xaridor o'rtasidagi muloqotda bu muloqot qanchalik to'g'ri yo'lga qo'yilsa, korxonaning brending siyosati natijasi shunchalik samaraga ega bo'ladi. Maqsadning aniq qo'yilishi, maqsadli auditoriyani to'g'ri tanlash, chiroyli qadoq va reklama kabilar bu jarayonda muhim hisoblanadi. Birgina belgi yoki nomdan muvaffaqiyat kutish noto'g'ri chunki brending butunligicha ishlaydi.

Bu konsepsiyaning murakkabligi bilan bog'liq bo'lib, u odatda tovar belgisi bilan aralashtiriladi va yangilash tushuncha hosil qiladi. Brendning o'ziga xosligini yaratish shartlari quyidagilar:

- ma'lum bir bozorda rejalashtirilgan savdo hajmini saqlab turish va iste'molchilar ongida mahsulot (xizmat) yoki mahsulotlar (xizmatlar) oilasi (turlari) obrazini yaratish va mustahkamlash bo'yicha uzoq muddatli dasturni amalga oshirish;
- tovarlarning (xizmatlarning) assortimentini kengaytirish va ularning umumiy o'ziga xos fazilatlari to'g'risidagi bilimlarning kollektiv obraz orqali joriy etilishi natijasida rentabellikning o'sishini ta'minlash;
- reklama materiallari va kompaniyalarida mahsulot ishlab chiqarilgan (xizmat ko'rsatiladigan) mamlakat, mintaq, shahar va boshqalarning o'z madaniyatini aks ettirish, iste'molchilarning ehtiyojlari, shuningdek, u sotiladigan hududning xususiyatlarini hisobga olish;
- tiraj va reklama auditoriyasi uchun juda muhim bo'lgan uchta omil - tarixiy ildizlar, bugungi haqiqatlar va kelajak uchun bashoratlardan foydalanish.

Bozorlarni, mahsulotlarni va mijozlarni tinimsiz segmentlash va farqlash orqali yangi bozorlarni topish korxonalar brending mexanizmini shakllantirishda muhim hisoblanadi. Tovar yoki korxonaning brend imidji va mamlakat reputatsiyasi o'zaro parallel bo'lib, har ikkisi ham bir xilda mamlakat muvaffaqiyatga erishishi, samarali boshqarilishi va ravnaq topishi uchun muhimdir.

Xulosa va takliflar

Brend iste'molchi tanlovini osonlashtirishi, unga vaziyatni tez tushunib olishi uchun imkon tug'durishi hamda mahsulot manbalarini aniqlab berishi kerak. Demak, milliy brend mexanizmining mamlakat siyosiy yo'nalishni aniqlab berish vazifasining amal qilishi uchun;

- mahalliy brendlarni xorijda targ'ib qilishda reklama vositalaridan foydalanish;
- mahalliy ishlab chiqaruvchilar brend mahsulotlarini ishlab chiqarishda ularning sifatiga katta ahamiyat berishi talab etiladi;
- milliy mahsulotni chet elga eksport qilishda yengilliklar yaratish;

-milliy brend mexanizmini ishlab chiqishda mamlakatimiz muqobil iqtisodiy imkoniyatlardan foydalanish, mamlakatimiz hayot sifatini va jamiyat asoslarini hisobga olish lozim.

Milliy branding mamlakat hududlarining xalqaro siyosatdagi va mamlakat tashqarisidagi hududlarning raqobatbardoshlik shartlarini ta'minlab beruvchi omil hisoblanadi. Mamlakatimiz o'ziga xos xususiyatlari, o'ziga xos an'analarni nomoyon qilgan holda bozor tahlilidan kelib chiqib har bir korxona yoki mahsulot uchun alohida milliy brend shakllantiriladi va bu jarayonda yuqorida keltirilgan omillarni hisobga olgan holda mexanizmlar hosil qilinishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. "Brand Finance Nation Brands 2022" the annual report journal 7-44
2. Mirzajonov X.X. "Milliy brend tizimini shakllantirish va korxonalarda branding mexanizmini amalga oshirish istiqbollari" ilmiy jurnal, 14.10.2020.
3. Anholt S. Branding Places and Nations. / Clifton, R., Simmons, J. & Ahmad S. (eds), Brands and Branding, Princeton, NJ: Bloomberg Press, London, 213-226.
4. Norboyeva A.R. "Mahalliy brendlarni xorijda targ'ib qilish" INDIA INTERNATIONAL SCIENTIFIC ONLINE CONFERENCE THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY 45-47b. 2023
5. Sh.Dj Ergasheva. Strategik marketing . Darslik. Toshkent-2019 Sano-standart nashriyoti T.:2019. 220- 222- betlari
6. Aaker, D.A., *Brand Leadership*, Free Press, New York, 2000.
7. <https://www.executiveoffice-ni.gov.uk/topics/statistics-and-research/nation-brands-index>
8. Mardiyevna, S. G., & Farxodovna, M. R. (2023). Small Service Business Trends. *Nexus: Journal of Advances Studies of Engineering Science*, 2(5), 123-130.
9. Mardiyevna, S. G., & Ugli, Y. S. N. (2023). Development of Entrepreneurship Organizing Enterprise Activity Through. *Gospodarka i Innowacje.*, 35, 564-571.
10. Mardiyevna, S. G., & Panjiyevich, K. S. (2023). Economic Fundamentals of the Development of Services. *Gospodarka i Innowacje.*, 35, 600-607.
11. Shadiyeva, G., & Isoqulov, Z. (2023). NARPAY TUMANIDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH VA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHDA AHOLI XOHISH ISTAKLARI. *Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук*, 3(3), 169-179.
12. Шадиева, Г. М. (2023). ОИЛА ХЎЖАЛИГИНИНГ ИҚТИСОДИЙ МУСТАҚАМЛИГИНИ ТАҲЛИЛ ҚИЛИШ ЙЎЛЛАРИ. *Journal of new century innovations*, 21(1), 91-94.

13. Shadieva, G. M., & Akbarovna, K. S. (2023). THEORETICAL VIEWS ON CONCEPTS OF ENTREPRENEURSHIP. *Journal of new century innovations*, 20(3), 42-45.
14. Shadieva, G. M., & Urozaliev, E. (2022). THE ESSENCE AND STAGES OF DEVELOPMENT OF THE DIGITALIZATION OF THE ECONOMY. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(12), 963-971.
15. Shadieva, G. M., & Urozaliev, E. (2022). THE ESSENCE AND STAGES OF DEVELOPMENT OF THE DIGITALIZATION OF THE ECONOMY. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(12), 963-971.
16. Shadieva, G. M., & o'g'li Isoqulov, Z. S. (2022). WAYS TO REDUCE POVERTY. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(12), 957-962.
17. Shadieva, G. M., & Kulmuradova, R. (2022). THE ROLE OF FAMILY BUSINESS IN IMPROVING THE STANDARD OF LIVING AND ENSURING THE WELL-BEING OF THE POPULATION. *British View*, 7(4).
18. Nodirovna, M. S. (2023). Developing Rural Services and Increasing the Living Standards of the Population in the Republic of Uzbekistan. *Gospodarka i Innowacje*, 35, 653-661.
19. Шадиева, Г. М. (2023). ОИЛА ХЎЖАЛИГИНИНГ ИҚТИСОДИЙ МУСТАҲКАМЛИГИНИ ТАҲЛИЛ ҚИЛИШ ЙЎЛЛАРИ. *Journal of new century innovations*, 21(1), 91-94.
20. Abdukhalilovich, S. S., & Ugly, S. F. S. (2023). THE ESSENCE OF THE CONCEPT OF POVERTY. *Journal of new century innovations*, 27(1), 97-100.
21. Abdukhalilovich, S. S., & Ugly, S. F. S. (2023). THE ESSENCE OF THE CONCEPT OF POVERTY. *Journal of new century innovations*, 27(1), 97-100.
22. Mardievna, S. G., & Zhamshedovich, K. Z. (2023). THE ROLE OF FAMILY BUSINESS IN THE DEVELOPMENT OF THE SERVICE INDUSTRY. *Thematics Journal of Commerce and Management*, 7(1).
23. Шадиева, Г. М. (2023). ОИЛА ХЎЖАЛИГИНИНГ ИҚТИСОДИЙ МУСТАҲКАМЛИГИНИ ТАҲЛИЛ ҚИЛИШ ЙЎЛЛАРИ. *Journal of new century innovations*, 21(1), 91-94.
24. Mardievna, S. G., & Shukhatovna, M. S. (2021). Ways to increase investment potential in samarkand region. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 2(11), 44-50.
25. Шадиева, Г. (2021). Оила тадбиркорлигини ривожлантиришда инновацияларнинг айрим назарий жиҳатлари. *Экономика и образование*, (1), 121-126.

- 26.Мамаюнус, П., & Мардиевна, К. Ш. Г. (2021). Маркетинг фаолиятида қўлланиладиган ахборотлар тизими ва уларнинг таснифи. *Development Issues Of Innovative Economy In The Agricultural Sector*, 278.
- 27.Shadieva, G. M., & Akbarovna, K. S. (2023). THEORETICAL VIEWS ON CONCEPTS OF ENTREPRENEURSHIP. *Journal of new century innovations*, 20(3), 42-45.
- 28.Shadiyeva, G., & Kholmiraeva, G. (2022). FAMILY BUSINESS AND ITS DEVELOPMENT. *Eurasian Journal of Academic Research*, 2(8), 148-151.
- 29.Shadieva, G., & Saidmurodov, F. (2022). DEVELOPMENT OF NATIONAL TOURISM AND THEORETICAL FOUNDATIONS OF ITS COMPETITIVENESS. *Eurasian Journal of Academic Research*, 2(8), 115-124.
- 30.Шадиева, Г. М., & Кувандиков, Ш. О. (2022). РОЛЬ СЕМЕЙНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В РАЗВИТИИ ЭКОНОМИКИ СТРАНЫ. *Current Issues of Bio Economics and Digitalization in the Sustainable Development of Regions*, 59-63.
- 31.Mardiyevna, S. G., & Abdusamatovich, J. J. (2022). SANOAT 4.0 KONSEPSIYASI VA UNGA TA'SIR ETUVCHI RISKLAR. *Current Issues of Bio Economics and Digitalization in the Sustainable Development of Regions*, 712-721.
- 32.Пардаев, М. Қ., & Шодиева, Г. М. (2001). Оила хўжалиги иқтисодиёти ва тадбиркорлиги. Самарқанд, СамКИ, 151.
- 33.Shadieva, G. M. (2022). SOCIO-ECONOMIC CONCEPT OF" FAMILY ECONOMY". *Confrencea*, 1(1), 239-243.
- 34.Шадиева, Г. М., & Садинова, Б. Б. (2022). Мамлакатимизда тадбиркорликни ривожлантириш йўллари.
- 35.Mardiyevna, S. G., & Zhamshedovich, K. Z. (2023). SYNERGETICS AND ITS ROLE IN SOLVING PROBLEMS OF FAMILY BUSINESS. *British View*, 8(1).
- 36.Mardiyevna, S. G., & Zhamshedovich, K. Z. (2023). THE ROLE OF FAMILY BUSINESS IN THE DEVELOPMENT OF THE SERVICE INDUSTRY. *Thematics Journal of Commerce and Management*, 7(1).
- 37.Шадиева, Г., & Шакирова, Ф. (2021). ИҚТИСОДИЁТНИ РАҚАМЛАШТИРИШГА ТРАНСФОРМАЦИЯЛАШУВИДА ИНТЕЛЛЕКТУАЛ МУЛКНИ РАСМИЙЛАШТИРИШНИНГ АЙРИМ МАСАЛАЛАРИ. *Экономика и образование*, (5), 381-384.
- 38.Mardiyevna, S. G., & Zhamshedovich, K. Z. (2023). THE ROLE OF FAMILY BUSINESS IN THE DEVELOPMENT OF THE SERVICE INDUSTRY. *Thematics Journal of Commerce and Management*, 7(1).

- 39.Шадиева, Г. М. (2022). ОИЛА ХЎЖАЛИГИ ФАРОВОНЛИГИНИ ОШИРИШДА ОИЛАВИЙ БИЗНЕСНИНГ РОЛИ. Архив научных исследований, 2(1).
- 40.Shadieva, G. M., & Kulmuradova, R. (2022). THE ROLE OF FAMILY BUSINESS IN IMPROVING THE STANDARD OF LIVING AND ENSURING THE WELL-BEING OF THE POPULATION. British View, 7(4).
- 41.Шадиева, Г. (2021). Оила тадбиркорлигини ривожлантиришда инновацияларнинг айрим назарий жиҳатлари. Экономика и образование, (1), 121-126.
- 42.Shadieva, G. M., & o'g'li Isoqulov, Z. S. (2022). WAYS TO REDUCE POVERTY. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(12), 957-962.
- 43.Mardiyevna, S. G., & Ugli, A. U. A. (2023). PROVIDING EMPLOYMENT OF THE POPULATION IN RURAL AREAS IN THE DIGITAL ECONOMY. Research Focus, 2(1), 7-10.
- 44.Pardaeva, O. M., & Shodieva, G. M. (2020). The role of family entrepreneurs in society
- 45.development. American Journal of Economics and Business Management, 3(5), 194-200.
- 46.Шадиева, Г. (2021). ОИЛА ТАДБИРКОРЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ИННОВАЦИЯЛАРНИНГ АЙРИМ НАЗАРИЙ ЖИҲАТЛАРИ. Экономика и образование, (1), 121-126.
- 47.Shadiyeva, G., & Isoqulov, Z. (2023). NARPAY TUMANIDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH VA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHDA AHOLI XOHISH ISTAKLARI. Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук, 3(3), 169-179.
- 48.Мамаюнус, П., & Мардиевна, Қ. Ш. Г. (2021). Маркетинг фаолиятида қўлланиладиган ахборотлар тизими ва уларнинг таснифи. Development Issues Of Innovative Economy In The Agricultural Sector, 278.

**XALQARO TAJRIBALARDAN FOYDALANIB MILLIY BREND
TIZIMINI SHAKLLANTIRISH VA KORXONALARDA BRENDING
MEXANIZMINI AMALGA OSHIRISH**

M.N.Qodirova

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Samarqand filiali magistranti

Ilmiy rahbar - Iqtisodiyot Fanlari Doktori, professor

O.Murtazayev

Annotatsiya: mazkur maqolada Samarqand viloyatida joylashgan korxonalarda ishlab chiqarilayotgan tayyor va yarim tayyor mahsulotlarni milliy brend darajasiga olib chiqishning marketing strategiyalari va branding mexanizmining samaradorlik darajasi ko'rsatib berilga qaratilgan.

Аннотация: Данные стати написана об улучшении маркетинговые стратеги на уровень национальных брендовые механизациях организациях расположена на области Самарканд которые производит готовые и полу-готовые продукции и указывает на как улучшение их национальных брендовые механизациях.

Annotation: following article demonstrates researching the level of forming national branding mechanization and marketing strategy for the semi-finished and ready product of manufacturing companies that are located in Samarkand.

Kalit so'zlar: branding, milliy tovar, milliy brend, branding mexanizmi, mahalliy brend, marketing strategiyasi, raqobatbardoshlik salohiyati, iste'molchi tanlovi, imidj, stil, investitsion jozibadorlik.

Kirish. Mamalakatimiz mustaqillikdan so'ng korxonalar faoliyatida va mahalliy bozorlarni milliy tovarlar bilan taminlashda bosqichma-bosqich tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirmoqda, va korxonalar va tashkilotlar faoliyatini samarali tarzda tashkil etish va korxonalardagi iqtisodiy amaliyotlarni bozor iqtisodiyoti talablari darajasiga moslashtirish zaruriyatini muhim vazifalar qatoriga qo'ymoqda. Ko'pgina kompaniyalar 21-asrda bir necha turdagi mahsulotlar orasida judaham kam farqlanish borligini ta'kidlashadi, shuning uchun brendlash amaliyoti orqali mahsulotlarni farqlashning bir necha usullariga ega bo'lish mumkin. Brendlash, tahminlarga asoslansak, o'g'irlikni oldini olish uchun chorva mollarini markalash amaliyotidan boshlangan deb aytishimiz mumkin. Londonda sotilgan Laylning Oltin siropi Ginnesning rekordlar kitobi tomonidan dunyodagi eng qadimiy brend va qadoqlash belgisi sifatida tan olinganligini inobatga olsak, 1777-yilda tashkil etilgan Britaniya pivo zavodi Bass & Company xalqaro brend marketingida

birinchilardan bo'lib o'z brendini namoyish qilgan va Bass o'zining Pale Ale qutilariga qizil uchburchakni qo'llagan, uning qizil-uchburchak brendi Britaniya hukumati tomonidan chiqarilgan birinchi ro'yxatga olingan savdo belgisiga aylanganligi ushbu soha taraqqiyoti asosi bo'ldi.

Milliy brending nazariyasi va amaliyoti maqsadi mamlakat reputatsiyasini tahlil qilish, shakllantirish va boshqarish hisoblanadi. Milliy brending marketing sohasini (hududiy marketingni) o'rganish bilan uzviy bog'liq. Mamlakatimizda so'nggi yillarda aynan milliy tavar tushunchasi va o'ziga xos brending mexanizatsiyasini yaratishga alohida e'tibor qaratilib, tadbirkorlar va yoshlar bilan bo'lgan ochiq muloqotlarda ushbu amaliyotni qo'llab quvatlashga alohida urg'u berib kelinayotgani va ilmiy izlanishlar olib borilayotgani uning naqadar ahamiyatligi isbotidir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga bosqichma – bosqich o'tishga asoslangan siyosatini amalga oshirish, korxonalar va tashkilotlar faoliyatini samarali tarzda tashkil etish va boshqarish, korxonalardagi iqtisodiy amaliyotlarni, faoliyatni bozor iqtisodiyoti talablari darajasiga moslashtirish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Jahonning eng rivojlangan AQSh, Yaponiya, Xitoy, Yevropa Ittifoqi, Rossiya kabi mamlakatlari jahon bozorida erkin raqobat ustunligini ta'minlashning asosiy strategiyasi sifatida qo'shimcha qiymat yaratish asosi bo'lgan xalqaro brendlarga katta ahamiyat qaratib, xalqaro brendlarni tashkil etish va boshqarish siyosatiga e'tibor qaratmoqda.

Ushbu holatlar rivojlanayotgan mamlakatlarda aynan O'zbekistonda ham xalqaro brendlarni bozordan siqib chiqarishga qaratilgan mahalliy brending strategiyalarini shakllantirishni taqozo etmoqda. O'zbekiston «Nation Brands 2022» reytingida 62-o'rinni egalladi¹ va u Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida eng yaxshi ko'rsatkichni ko'rsatib kelayotgan Qozoqistondan ancha o'rin orqada kelmoqda bir necha yildan buyon. O'zbekistondagi ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalarining brendni yaratish va uning qiymatini oshirish bo'yicha yetarli tajribaga ega emasligini, ularning marketing faoliyatida yangicha yondashuvlar, vositalar va brendlarning modellaridan foydalanishni taqozo etmoqda. “Nation Brands” tizimi mamlakatlar salohiyatini baholash, brending mexanizmini ishlab chiqish va boshqarishni tashkil etishga asoslanadi, shunday ekan O'zbekistonda “Milliy tovar”, “Milliy Brend tizimini” ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb masalasi bo'lib kelmoqda bugungi kunga qadar. Uning mamlakatimiz kelajagi uchun naqadar muhim ahamiyat tutishini ko'rsatib beruvchi “Nation Brands” indeksini o'rganish shu asosida xorij tajribasiga tayanib milliy tovarlarimiz uchun korxona va tashkilotlar

¹ “Brand Finance Nation Brands 2022” the annual report journal 40-44 b.

milliy brending mexanizmini ishlab chiqish asosiy oldimizda turgan masaladir. Oldimizga quygan masalaning yechimini topishda avval, jahon tajribasini chuqur urganib, tahlil qilib natijalarga asoslanib o'z milliy brendimizga asos solsak to'g'ri bo'lgan bo'lar edi.

Mavjud tadqiqotlarda brend nazariyalari va iste'mol tovarlari brendini shakllantirish va brending strategiyalarini ishlab chiqishning ilmiy-nazariy jihatlarini yoritilgan bo'lsada, O'zbekiston korxonalari uchun alohida milliy brend mexanizmini shakllantirish bo'yicha ilmiy asoslangan tahliliy struktura ishlab chiqish masalalari o'rganilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. O'rganilayotgan milliy brend tizimini shakllantirish va faoliyatga qo'yish orqali barcha mamlakatimiz fuqarolari uchun qimmatli ijobiy mamlakat imidji tizimi yaratiladi, bu u yoki bu hududdagi iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ijtimoiy faoliyatiga mos kelishi kerak. Tadqiqot davomida emperik va nazariy tahlil usullari asosida xorijiy mamlakatlar brending mexanizmlari o'rganilib, zaruriy xulosalar asosida mamlakatimiz uchun maqbul milliy brend mexanizmi faktorlari alohida belgilab olindi.

Tadqiqot tahlili va natijalari. Bugungi xalqaro siyosat va iqtisodiyotning muhim omili mamlakatning brending siyosati hisoblanadi. Zamonaviy brending tushunchasi mijozlar ongida doimiy taassurot qoldirish maqsadida kompaniya yoki mahsulotlarni raqobatchilardan ajratib olishga yordam beradigan marketing hamda kommunikatsiya texnikasi va vositalarini menejer tomonidan qo'llashni o'z ichiga olgan holda kengaytirildi.

Tabiatiga ko'ra brending 2 ta amaliy maqsadga ega:

Birinchisi, bu muloqotning amaliy quroli;

Ikkinchisi, bu raqobatdan ajralish qurolidir.

Birinchisi bu shlab chiqaruvchi va xaridor o'rtasidagi muloqot va bu muloqot qanchalik to'g'ri yo'lga qo'yilsa, korxonaning brending siyosati natijasi shunchalik samaraga ega bo'ladi. Shuning uchun biz, bozor qatnashchilari orasidagi muloqotni tashkil qilish san'atini – brending deb ataymiz. Masalan: "Honda" avtomobillar ishlab chiqaruvchi kompaniya bozorga assotsiatsiya ravishda motosikl va maysa o'radigan uskunalarini taqdim etdi. Bu g'oya iste'molchilar tomonidan ijobiy qabul qilingan.

Brending deb nomlanuvchi zamonaviy amaliyotda, iste'molchilar mahsulot o'rniga brendni sotib oladilar va chakana sotuvchining tavsiyasi o'rniga brend nomiga tayanadilar. "Brend" so'zi ko'pincha brend bilan kuchli identifikatsiyalangan kompaniyaga ishora qiluvchi tushuncha sifatida ishlatiladi. Misol uchun, *Marque* yoki *marke* so'zlari ko'pincha avtomobil modellaridan farqlashi mumkin bo'lgan avtomobil markasini bildirish uchun ishlatiladi.

Brendning asboblari qutisini tashkil etuvchi asosiy komponentlar brend identifikatori, shaxsiyati, mahsulot dizayni, brend aloqasi

(masalan, logotiplar va savdo belgilari bo'yicha), brend xabardorligi, brendga sodiqlik va turli xil brending (brendni boshqarish) strategiyalarini o'z ichiga oladi. 19-asr ommaviy marketingining o'ziga xos xususiyati qadoqlangan tovarlarning paydo bo'lishi bilan boshlangan brendingning keng qo'llanilishi edi. Sanoatlashtirish ko'plab uy-ro'zg'or buyumlari, masalan, sovun ishlab chiqarishni mahalliy jamoalardan markazlashgan zavodlarga o'tkazdi.

20-asr boshlarida ommaviy axborot vositalarining kuchayishi bilan kompaniyalar o'zlarining xabarlarini ajratib ko'rsatishga imkon beradigan texnikani o'zlashtirdilar. Brend reklama beruvchilari iste'molchilar o'zlariga mos bo'lgan brendlarni izlashlari haqidagi tushunchaga asoslanib, tovarlar va xizmatlarni shaxsiyat bilan singdira boshladilar. Brend reklama beruvchilari iste'molchilar o'zlariga mos bo'lgan brendlarni izlashlari haqidagi tushunchaga asoslanib, tovarlar va xizmatlarni shaxsiyat bilan singdira boshladilar.

Brand Finance'ning oxirgi tadqiqotiga ko'ra, dunyoning eng qimmat milliy brendlari AQSh, Buyuk Britaniya va Germaniya bo'lib qolmoqda. Reytingda 100 ta davlat baholangan. Brendning baholanishida davlatning yalpi ichki mahsuloti, investitsiyaviy va turistik jozibadorligi, siyosati va savdo qoidalari, ijtimoiy jihatlari va boshqa mezonlar hisobga olingan.

Brendni rivojlantirishning asosiy zamonaviy tendensiyalarini ta'kidlab o'tamiz:

- brend menejment atrofida asosiy strategiyalarni birlashtirgan holda tashkilotning strategik boshqaruvining asosiy qismiga aylanadi;
- modellardan foydalanishga tobora ko'proq e'tibor qaratilmoqda va tovar belgilari nazariyasi va amaliyotida modellashtirish;
- brendlarni boshqarish tizimlarini yaratish, shuningdek ularning ishlashi roli ortib bormoqda;
- tovar yaratish va boshqarish jarayonida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish;
- iste'molchilar bilan uzluksiz, uzoq muddatli aloqalarni yaratish, iste'molchilar bilan muloqot, aloqa vositalarining interaktiv xususiyati;
- iste'molchiga yo'naltirilgan yagona jarayonda tovar yaratish uchun barcha harakatlarni birlashtirish;
- nafaqat an'anaviy kanallar, balki jalb qilish vositalaridan foydalangan holda tovar to'g'risida ma'lumot uzatishning ajralmas tizimini yaratish;
- insonning beshta hissiyotiga ta'sir ko'rsatadigan yangi kanallar va usullar;
- ratsional tushuntirishlardan tashqarida bo'lgan iste'molchilarga sodiqlikni yaratish;
- qo'shma brendlarni tarqatish, brendlarni yaratish va targ'ib qilishda texnologik hamkorlik;

- tovarlardan xaridorlarga e'tiborni o'zgartirish, korporativ brendlardan faolroq foydalanish, brendlash sohalarini kengaytirish;
- global maqsadlarga erishishda mahalliy xususiyatlarni hisobga olgan holda brendlarni xalqarolashtirish, standartlashtirish va lokalizatsiya muvozanati.

Brendlashning asosiy aksiomasi shundaki, vizual identifikatsiya hech qachon o'z-o'zidan bo'lmaydi. Brendlashning maqsadi brendning asosiy qadriyatlari va mohiyatini ifoda etish va vizual aktivlardan izchil foydalanib tan olinishini ta'minlashdir. Taqqoslaymiz: Coca-Cola va Pepsi.

Pepsi iste'molchilarning har bir yangi avlodi bilan o'zini o'zi kashf etadigan bugungi ichimlik. Har bir necha yil ichida brend o'zining vizual vositalarini jasorat bilan yangilaydi va zamonaviy yoshlarga tegishli bo'lib qolish uchun mashhur musiqa vositalaridan - musiqadan tortib texnologiyaga qadar foydalanadi.

Coca-Cola o'zining fonida biroz eskirgan ko'rinishi mumkin. Bu an'analarning abadiy saqllovchisi, uning afsonaviy tovar elementlari - logotip, qizil rang va shishaning shakli - 1969 yildan beri o'zgarmagan. Ammo bu reklama kommunikatsiyalarida texnologiyalarni qo'llash orqali brendning zamonaviy bo'lishiga 31 to'sqinlik qilmaydi. O'zining tovar kodiga sodiq qolgan holda, lazzatlanishdan zavq va zavq kabi qadriyatlarni e'lon qilar ekan, Coca-Cola iste'molchilarning tovar belgisi bilan shaxsiy aloqa va shaxsiy aloqaga bo'lgan intilishining ortib borishini hisobga olib, taniqli dizayni asosida yangi yechimlar yaratmoqda. O'ylaymanki, hamma Coca-Cola konservalarini xaridorlarning ismlari va do'konlarda va ijtimoiy tarmoqlardagi shov-shuvlarni eslashadi, chunki hamma o'z nomlari bilan ichimliklar paketini topmoqchi bo'lgan.

Nima uchun barcha kompaniyalar ham muvaffaqiyatga erisha olmaydi? Bunda menejerlar tomonidan tanlangan noto'g'ri yo'nalish sabab bo'ladi. Misol uchun ruchka ishlab chiqaruvchi "BIC" kompaniyasi o'z brendi ostida bir martalik soqol olish ustalarini ishlab chiqardi. Ammo kompaniya atir ishlab chiqarishni yo'lga qo'ymoqchi bo'lganida bu g'oya omadsizlikka uchradi. Bu yerda e'tibor qaratilishi kerak bo'lgan nuqta mahsulotlarning bir-biriga mosligidir. Masalan, quritilgan chipslar ishlab chiqaruvchi "Lays" kompaniyasi o'z brendi ostida yaxna ichimlik — limonad ishlab chiqarishni yo'lga qo'ydi. Ammo mahsulotga talab bo'lmagach ishlab chiqarish to'xtatildi. Iste'molchilar shunchaki ushbu brend ostidagi limonadnin sotib olishni xohlashmadi. Bu esa assostiatsiyalashmagan mahsulotga misol bo'ladi.

Brend bilan moslashuv o'sha kompaniyaning ishchi xodimlariga qarab shakllanishi mumkin. Misol uchun: Apple kompaniyasi dunyoning eng boy brendi hisoblanishiga qaramay, uning xodimlari doim futbolka va juda yengil holatda yuurishadi. Aksincha qimmat avtomobillar sotadigan dilerlik markazlarida esa xodimlar doim rasmiy kiyimda bo'lishdi. Bu detallar ham kompaniya brendi bilan bog'liq.

Brend-menejerlar aynan shuning uchun o'z harakatlariga javobgar bo'lishlari kerak. Bir vaqtning o'zida brendni qo'llash uchun turli yo'nalishdagi mahsulotlar ishlab chiqarishga o'rganish yaxshi natijaga olib kelmaydi. Agar ikkita brendning faoliyati bir-biriga yaqin bo'lsa unda ular o'rtasida faqatgina narxlar bo'yicha urush kelib chiqishi mumkin. Buni tushungan holda kompaniyalar hozirda maksimal darajada uzoqroq turishga harakat qilishmoqda.

Xulosa va takliflar. Brend mahsulotlar iste'molchi talab qilayotgan va kutayotgan narsani ifodalashini xohlashadi. Masalan, "Adidas" oyoq kiyimlarini xarid qilganda iste'molchi boshqa mashhur bo'lmagan brendga qaraganda sifatliroq mahsulot kutadi. Bu esa kompaniyaga tovar uchun emas brend uchun pul to'lashga undaydi. Eng avvalo, kompaniya o'zining kuchki tomonlarinin bilib olgan muhim. Siz bozorda o'ziningiz yagona ekanligingizni xarodirga yetkaza bera olish alohida ahamiyat kasb etadi. Agar siz tashkil etgan kompaniyaga xushmuomalalik xos bo'lsa xizmat ko'rsativchilarning barchasi xaridor va murojaat etuvchilar bilan bir maromda suhbat olib borishlari kerak. Korxona o'rnatgan strategiya brend bilan mos kelishi kerak, aks holda bu omadsizlikka olib keladi.

Milliy tovarlar raqobatbardoshligini oshirish muammolarning asosiy yechimi va bu borada marketing izlanishlarini olib borish, tashqi bozorlarga chiqish va unda munosib nufuzga erishish esa, o'z navbatida, O'zbekiston bozoriga xos marketing ilmi va uning asoslarini yaratish bilan bog'liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tovar bozorlarida savdoni yanada erkinlashtirish va raqobatni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. - // Xalq so'zi, 2018 yil 31 oktyabr, № 225 (7183)
2. Petty, R. D. „Brend identifikatorini himoya qilish va brend marketingi tarixi“, 2016, 104-bet.
3. Arnold E. J. va Tompson C. J. „Iste'molchi madaniyati nazariyasi: Yigirma yillik tadqiqotlar“, Iste'mochi qidiruvi jurnali, jild-31, 2005-yil, 868-882-betlar.
4. Xon, Saif Ulla; Muftiy, Ovays (2007). "Brendlarning issiq tarixi va sovuq kelajagi" Boshqaruv fanlari jurnali.
5. Xey, Robert (2014-yil 18-fevral). "Ferrari – dunyodagi eng kuchli brend" Brend moliyasi. 2015 -yil 9-fevralda olindi.
6. Кефереp Ж.Н. Бренд навсегда: создание, развитие, поддержка, ценности бренда М: Изд.Вершина 2007-443 стр.
7. Mardiyevna, S. G., & Farxodovna, M. R. (2023). Small Service Business Trends. Nexus: Journal of Advances Studies of Engineering Science, 2(5), 123-130.
8. Mardiyevna, S. G., & Ugli, Y. S. N. (2023). Development of Entrepreneurship Organizing Enterprise Activity Through. Gospodarka i Innowacje., 35, 564-571.

9. Mardiyevna, S. G., & Panjiyevich, K. S. (2023). Economic Fundamentals of the Development of Services. *Gospodarka i Innowacje*, 35, 600-607.
10. Shadiyeva, G., & Isoqulov, Z. (2023). NARPAY TUMANIDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH VA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHDA AHOLI XOHISH ISTAKLARI. *Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук*, 3(3), 169-179.
11. Шадиева, Г. М. (2023). ОИЛА ХЎЖАЛИГИНИНГ ИҚТИСОДИЙ МУСТАҚКАМЛИГИНИ ТАҲЛИЛ ҚИЛИШ ЙЎЛЛАРИ. *Journal of new century innovations*, 21(1), 91-94.
12. Shadieva, G. M., & Akbarovna, K. S. (2023). THEORETICAL VIEWS ON CONCEPTS OF ENTREPRENEURSHIP. *Journal of new century innovations*, 20(3), 42-45.
13. Shadieva, G. M., & Urozaliev, E. (2022). THE ESSENCE AND STAGES OF DEVELOPMENT OF THE DIGITALIZATION OF THE ECONOMY. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(12), 963-971.
14. Shadieva, G. M., & Urozaliev, E. (2022). THE ESSENCE AND STAGES OF DEVELOPMENT OF THE DIGITALIZATION OF THE ECONOMY. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(12), 963-971.
15. Shadieva, G. M., & o'g'li Isoqulov, Z. S. (2022). WAYS TO REDUCE POVERTY. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(12), 957-962.
16. Shadieva, G. M., & Kulmuradova, R. (2022). THE ROLE OF FAMILY BUSINESS IN IMPROVING THE STANDARD OF LIVING AND ENSURING THE WELL-BEING OF THE POPULATION. *British View*, 7(4).
17. Nodirovna, M. S. (2023). Developing Rural Services and Increasing the Living Standards of the Population in the Republic of Uzbekistan. *Gospodarka i Innowacje*, 35, 653-661.
18. Шадиева, Г. М. (2023). ОИЛА ХЎЖАЛИГИНИНГ ИҚТИСОДИЙ МУСТАҚКАМЛИГИНИ ТАҲЛИЛ ҚИЛИШ ЙЎЛЛАРИ. *Journal of new century innovations*, 21(1), 91-94.
19. Abdukhalilovich, S. S., & Ugly, S. F. S. (2023). THE ESSENCE OF THE CONCEPT OF POVERTY. *Journal of new century innovations*, 27(1), 97-100.
20. Abdukhalilovich, S. S., & Ugly, S. F. S. (2023). THE ESSENCE OF THE CONCEPT OF POVERTY. *Journal of new century innovations*, 27(1), 97-100.
21. Mardiyevna, S. G., & Zhamshedovich, K. Z. (2023). THE ROLE OF FAMILY BUSINESS IN THE DEVELOPMENT OF THE SERVICE INDUSTRY. *Thematics Journal of Commerce and Management*, 7(1).
22. Шадиева, Г. М. (2023). ОИЛА ХЎЖАЛИГИНИНГ ИҚТИСОДИЙ МУСТАҚКАМЛИГИНИ ТАҲЛИЛ ҚИЛИШ ЙЎЛЛАРИ. *Journal of new century innovations*, 21(1), 91-94.

23. Mardiyeva, S. G., & Shukhatova, M. S. (2021). Ways to increase investment potential in samarkand region. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 2(11), 44-50.
24. Шадиева, Г. (2021). Оила тадбиркорлигини ривожлантиришда инновацияларнинг айрим назарий жиҳатлари. *Экономика и образование*, (1), 121-126.
25. Мамаюнус, П., & Мардиевна, Қ. Ш. Г. (2021). Маркетинг фаолиятида қўлланиладиган ахборотлар тизими ва уларнинг таснифи. *Development Issues Of Innovative Economy In The Agricultural Sector*, 278.
26. Shadiyeva, G. M., & Akbarovna, K. S. (2023). THEORETICAL VIEWS ON CONCEPTS OF ENTREPRENEURSHIP. *Journal of new century innovations*, 20(3), 42-45.
27. Shadiyeva, G., & Kholmiraeva, G. (2022). FAMILY BUSINESS AND ITS DEVELOPMENT. *Eurasian Journal of Academic Research*, 2(8), 148-151.
28. Shadiyeva, G., & Saidmurodov, F. (2022). DEVELOPMENT OF NATIONAL TOURISM AND THEORETICAL FOUNDATIONS OF ITS COMPETITIVENESS. *Eurasian Journal of Academic Research*, 2(8), 115-124.
29. Шадиева, Г. М., & Кувандиков, Ш. О. (2022). РОЛЬ СЕМЕЙНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В РАЗВИТИИ ЭКОНОМИКИ СТРАНЫ. *Current Issues of Bio Economics and Digitalization in the Sustainable Development of Regions*, 59-63.
30. Mardiyeva, S. G., & Abdusamatovich, J. J. (2022). SANOAT 4.0 KONSEPSIYASI VA UNGA TA'SIR ETUVCHI RISKLAR. *Current Issues of Bio Economics and Digitalization in the Sustainable Development of Regions*, 712-721.
31. Пардаев, М. Қ., & Шодиева, Г. М. (2001). Оила хўжалиги иқтисодиёти ва тадбиркорлиги. Самарқанд, СамКИ, 151.
32. Shadiyeva, G. M. (2022). SOCIO-ECONOMIC CONCEPT OF "FAMILY ECONOMY". *Confrencea*, 1(1), 239-243.
33. Шадиева, Г. М., & Садинова, Б. Б. (2022). Мамлакатимизда тадбиркорликни ривожлантириш йўллари.
34. Mardiyeva, S. G., & Zhamshedovich, K. Z. (2023). SYNERGETICS AND ITS ROLE IN SOLVING PROBLEMS OF FAMILY BUSINESS. *British View*, 8(1).
35. Mardiyeva, S. G., & Zhamshedovich, K. Z. (2023). THE ROLE OF FAMILY BUSINESS IN THE DEVELOPMENT OF THE SERVICE INDUSTRY. *Thematics Journal of Commerce and Management*, 7(1).
36. Шадиева, Г., & Шакирова, Ф. (2021). ИҚТИСОДИЁТНИ РАҚАМЛАШТИРИШГА ТРАНСФОРМАЦИЯЛАШУВИДА ИНТЕЛЛЕКТУАЛ МУЛКНИ РАСМИЙЛАШТИРИШНИНГ АЙРИМ МАСАЛАЛАРИ. *Экономика и образование*, (5), 381-384.

37. Mardievna, S. G., & Zhamshedovich, K. Z. (2023). THE ROLE OF FAMILY BUSINESS IN THE DEVELOPMENT OF THE SERVICE INDUSTRY. *Thematics Journal of Commerce and Management*, 7(1).
38. Шадиева, Г. М. (2022). ОИЛА ХЎЖАЛИГИ ФАРОВОНЛИГИНИ ОШИРИШДА ОИЛАВИЙ БИЗНЕСНИНГ РОЛИ. *Архив научных исследований*, 2(1).
39. Shadieva, G. M., & Kulmuradova, R. (2022). THE ROLE OF FAMILY BUSINESS IN IMPROVING THE STANDARD OF LIVING AND ENSURING THE WELL-BEING OF THE POPULATION. *British View*, 7(4).
40. Шадиева, Г. (2021). Оила тадбиркорлигини ривожлантиришда инновацияларнинг айрим назарий жиҳатлари. *Экономика и образование*, (1), 121-126.

**REAL SEKTORI KORXONALARINI QO‘LLAB-QUVVATLASH VA
TANNARXNI PASAYTIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI**

Noiba Qodirova Maxmud qizi– Toshkent
Davlat Iqtisodiyot Universiteti Samarqand
filiali magistranti
Ilmiy rahbar - Iqtisodiyot Fanlari Doktori, professor
O.Murtazayev

Ma'lumki real sektor korxonalari milliy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi bo'lib, uning samarali faoliyat yuritishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Kichik biznesning rivojlanishi ko'p jihatdan davlatning mazkur sektorni tartibga solish bo'yicha olib boradigan siyosatiga bog'liq. Jahon tajribasi, rivojlangan mamlakatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning taraqqiy etishi uchun qulay makroiqtisodiy muhit yaratilishi bilan birga unga davlat tomonidan turli xil yordamlar ko'rsatishdan dalolat beradi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash bo'yicha jahon tajribasi boy va xilma - xil bo'lsa-da, ular bir-birlaridan ushbu jarayonni amalga oshirish mexanizmi, usul va vositalari jihatidan farq qiladi. Mazkur tajribani o'rganish, uning ijobiy tomonlaridan mamlakatimizning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda samarali foydalanish iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirilayotgan bugungi kunda eng dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Umuman olganda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solishni ikki yo'nalishda ko'rib chiqish mumkin:

- tadbirkorlik, shu jumladan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati uchun umumiy shart-sharoitlarni barpo etish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarini xo'jalik sharoitlariga moslashishni ta'minlash maqsadida ularni qo'llab-quvvatlash va imtiyozlar taqdim etish.

Bu ikkala yo'nalish o'zaro bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, kichik va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega.

Birinchi yo'nalish barcha korxonalar uchun iqtisodiy erkinlikni kafolatlovchi, iste'molchilar manfaatlarini himoyalovchi va raqobatni rag'batlantiruvchi qonunchilik tizimini o'z ichiga oladi. Umumiy sharoitlarni barpo etishda davlatning soliq va byudjet siyosati muhim rol o'ynaydi.

Ikkinchi yo'nalishda davlatning kichik biznesga nisbatan olib borayotgan moliya va kredit siyosati, davlat bozorida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik uchun muayyan ulushni ta'minlash mexanizmi, ularga ko'maklashishning boshqa turlari asosiy o'ringa ega. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishi uchun qulay huquqiy muhitni barpo etish rivojlangan mamlakatlarda, eng avvalo, antimonopol

qonunlarni o'z ichiga oladi. Chunonchi, AQSH nafaqat yirik trestlarning, balki antitrest qonunchiligining ham vatani hisoblanadi.

Dastlabki, trestlarga qarshi qonun AQSHda 1890 yildayoq qabul qilingan bo'lib, Sherman qonuni nomi bilan mashhur. Uning asosiy g'oyasi savdoni monopollashtirish, savdoni cheklash bo'yicha ochiq va sirli bitimlarni noqonuniy harakat sifatida tavsiflashdan iborat. Sherman qonunining yana bir ahamiyatli jihati shundan iborat ediki, monopoliyalar barpo etish va erkin savdoni cheklashga olib keluvchi korporatsiya va firmalarning narxni cheklovchi siyosatini, o'zaro raqobatchi korxonalar aksiyalarini sotib olishni taqiqlar edi. Keyingi antitrest qonuni 1914 yilda qabul qilindi (Kleyton qonuni). Bu qonun o'sha paytdagi real shart-sharoitlardan kelib chiqqan bo'lib, to'rtta jihatni o'zida aks ettiradi:

- narx cheklashlarining ma'lum shakllarini taqiqlash;
- o'zaro bog'liq shartnomalarni bekor qilish (bunday shartnomalarning mohiyati shundan iboratki, unda xaridor o'zi uchun zarur mahsulotlar bilan birga zarur bo'lmagan tovarlarni ham sotib olishga majbur bo'ladi);
- natijasi raqobatni cheklashi mumkin bo'lgan sharoitda aksiyalarni sotib olib o'zaro birlashishni cheklash;
- turli direktoratdagi ayni bir shaxs vakilligida o'zaro bog'liq direktoratlarning birlashib ketishini taqiqlash. Trestlarga qarshi qonunlardan navbatdagisi 1936 yilda qabul qilingan va Robinson-Petmen nomi bilan atalgan. Mazkur qonun Kleyton qonuniga tuzatish shaklida qabul qilingan. Bu qonunda narx cheklashlarini amalga oshiruvchi korporatsiyalarni jinoiy javobgarlikka tortish ko'zda tutilgan. Antitrest amaliyotida yangi jonlanish urushdan so'ng 1950 yilda boshlandi. Shu yili kichik biznes kurashi ta'sirida Kleyton qonuniga yangi tuzatishlar kiritildi. (Seller-Kefover). Endilikda har qanday yirik korxonalarning birlashishi hukumat darajasida ko'rib chiqiladigan bo'ldi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishida soliq tizimi alohida o'rin egallaydi. Bunday biznes shakli uchun soliq imtiyozlarini joriy etish orqali uni qo'llabquvvatlash jahonning deyarli barcha mamlakatlarida keng tarqalgan. Rivojlangan mamlakatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash uchun keng qo'llaniladigan soliq imtiyozi foydadan olinadigan soliq stavkasining pasaytirilishi hisoblanadi. AQSHda federal darajada eng yuqori korporatsiya solig'i bilan bir qatorda (hozirgi kunda bu soliq 35 foizni tashkil etadi) kichik va o'rta korxonalar uchun 15 va 25 foizlik stavkalardan foydalaniladi.

Buyuk Britaniyada kichik korxonalarga pasaytirilgan stavkada soliq solinadi – 25 foiz (boshqa korxonalar uchun – 33 foiz). Yaponiyada kooperativlar, jamoat va tibbiyot tashkilotlari 27 foiz miqdorida foydadan soliq to'laydilar (soliqning umumiy darajasi 40 foizni tashkil etadi). Agar korxona 8 mln. kam foyda olsa, ulardan 28 foiz

miqdorida soliq olinadi. Bu esa aynan kichik va o'rta korxonalar uchun katta ahamiyatga ega.

Barcha xo'jalik yurituvchi sub'ektlar uchun soliq yukining pasaytirilishi muhim rag'batlantiruvchi samara beradi. Bu esa, ayniqsa, kichik korxonalar faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Xususan, foydaning soliqqa tortish bazasini qisqartirish katta ahamiyatga ega. Bu turli xil fondlar va zaxiralar tashkil etish yo'li bilan amalga oshiriladi. Bunday fondlar va zaxiralar tashkil etishning soliq imtiyozlari guruhiga kiritilishiga sabab shuki, foydaning bu fondlarga ajratiladigan qismi soliqlardan ozod etiladi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimida ularga boshqaruv, texnik va axborot yordamlarini ko'rsatish alohida ahamiyatga ega. Bugungi kunda barcha rivojlangan mamlakatlarda maslahat xizmatlari, turli xil kurslar, axborot markazlari tarmog'i mavjud. Buyuk Britaniyada ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida ham mutaxassislar tayyorlashga jiddiy e'tibor qaratiladi. Bu erda 5 ta universitet biznes maktablari eng obro'li hisoblanadi: London, Manchester, Glazgo, Dyuram va Vorvik. Har yili bu maktablarni 200 ming kishi bitiradi. Germaniyada tadbirkorlarni o'qitish savdo-sanoat palatalari tizimi orqali amalga oshiriladi. Ular har yili yangi tadbirkorlar uchun seminarlar o'tkazadilar. Jahon banki guruhining yillik nashri «Biznesni yuritish» hisoboti 2003 yildan buyon tuziladi. U jahon mamlakatlaridagi

- 1) ishbilarmonlik faolligi;
- 2) biznesni yuritish xususiyatlari;
- 3) biznes uchun mamlakatlardagi mavjud cheklovlarni baholaydi.

Butunjahon bankining mazkur global reyting natijalari asosida 189 ta taomildan (pozitsiyadan) tashkil topgan reytingda har bir davlatga tegishli o'rin beriladi. Mamlakatning reytingdagi o'rni qanchalik yuqori bo'lsa, shunchalik korxonalarni ochish va yuritish uchun mazkur davlat tadbirkorlik muhitining yaxshiligidan darak beradi. Ketma-ket 10 yil davomida tadbirkorlik faoliyati uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha reytingni Singapur boshqarib bormoqda. Biznesni yuritish uchun eng qulay shart-sharoitlarga ega mamlakatlar beshtaligiga Yangi Zelandiya, Daniya, Janubiy Koreya va Gonkong (Xitoy) mamlakatlari kiritilgan. Qolgan beshta mamlakat: Buyukbritaniya, AQSH, SHvetsiya, Norvegiya, Finlyandiyadan iborat.

Mazkur islohotlarning umumiy sonidan 25 foizi Evropa va Markaziy Osiyo davlatlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, ushbu hududning, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash sohasida eng yuqori ko'rsatkichlarga ega birinchi davlatlar o'ntaligi ro'y-xatiga O'zbekiston ham kirgan.

Ushbu davlatlar (qolgan to'qqiztasi Kosta-Rika, Uganda, Keniya, Kipr, Mavritaniya, Qozog'iston, Yamayka, Senegal va Benin) har holda, kamida uchta islohotni o'zida tatbiq etib, global reytingda yuqoriga chiqib olgan davlatlardir.

Mustaqillikning dastlabki yillarida O'zbekistonda xususiy tadbirkorlik deyarli mavjud bo'lmagan bo'lsa, bugungi kunga kelib tadbirkorlik subektlarining 90 foizdan ortig'ini kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari tashkil etmoqda. Yalpi ichki mahsulotning 56 foizdan ko'proq qismi, ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlarining uchdan biri va deyarli barcha qishloq xo'jaligi mahsulotlari kichik biznes hissasiga to'g'ri kelmoqda. Aynan xususiy sektor mamlakatimizda aholi daromadlari o'sishining asosiy manbai hisoblanmoqda. Shunday qilib, tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llabquvvatlash bo'yicha jahon tajribasini umumlashtirish natijalari ulardan O'zbekistonda quyidagi yo'nalishlarda foydalanish mumkinligini ko'rsatadi:

- monopoliyalarga qarshi qonunchilikning amaliy ahamiyatini oshirish, monopolistik tuzilmalarni kamaytirish hamda monopoliyaga oid qonunchilikni ijro etish bo'yicha amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqishda;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga qo'llaniladigan soliq stavkalarini tartibga solish va soliq bo'yicha imtiyozlar tizimini takomillashtirishda;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishda;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga boshqaruv, texnik va axborot yordamlarini ko'rsatish mexanizmini takomillashtirish va rivojlantirishda va boshqalar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Mardiyevna, S. G., & Farxodovna, M. R. (2023). Small Service Business Trends. *Nexus: Journal of Advances Studies of Engineering Science*, 2(5), 123-130.
2. Mardiyevna, S. G., & Ugli, Y. S. N. (2023). Development of Entrepreneurship Organizing Enterprise Activity Through. *Gospodarka i Innowacje.*, 35, 564-571.
3. Mardiyevna, S. G., & Panjiyevich, K. S. (2023). Economic Fundamentals of the Development of Services. *Gospodarka i Innowacje.*, 35, 600-607.
4. Shadiyeva, G., & Isoqulov, Z. (2023). NARPAY TUMANIDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH VA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHDA AHOLI XOHISH ISTAKLARI. *Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук*, 3(3), 169-179.
5. Шадиева, Г. М. (2023). ОИЛА ХЎЖАЛИГИНИНГ ИҚТИСОДИЙ МУСТАҚКАМЛИГИНИ ТАҲЛИЛ ҚИЛИШ ЙЎЛЛАРИ. *Journal of new century innovations*, 21(1), 91-94.
6. Shadieva, G. M., & Akbarovna, K. S. (2023). THEORETICAL VIEWS ON CONCEPTS OF ENTREPRENEURSHIP. *Journal of new century innovations*, 20(3), 42-45.

7. Shadieva, G. M., & Urozaliev, E. (2022). THE ESSENCE AND STAGES OF DEVELOPMENT OF THE DIGITALIZATION OF THE ECONOMY. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(12), 963-971.
8. Shadieva, G. M., & Urozaliev, E. (2022). THE ESSENCE AND STAGES OF DEVELOPMENT OF THE DIGITALIZATION OF THE ECONOMY. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(12), 963-971.
9. Shadieva, G. M., & o'g'li Isoqulov, Z. S. (2022). WAYS TO REDUCE POVERTY. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(12), 957-962.
10. Shadieva, G. M., & Kulmuradova, R. (2022). THE ROLE OF FAMILY BUSINESS IN IMPROVING THE STANDARD OF LIVING AND ENSURING THE WELL-BEING OF THE POPULATION. *British View*, 7(4).
11. Nodirovna, M. S. (2023). Developing Rural Services and Increasing the Living Standards of the Population in the Republic of Uzbekistan. *Gospodarka i Innowacje*, 35, 653-661.
12. Шадиева, Г. М. (2023). ОИЛА ХЎЖАЛИГИНИНГ ИҚТИСОДИЙ МУСТАҚКАМЛИГИНИ ТАҲЛИЛ ҚИЛИШ ЙЎЛЛАРИ. *Journal of new century innovations*, 21(1), 91-94.
13. Abdukhalilovich, S. S., & Ugly, S. F. S. (2023). THE ESSENCE OF THE CONCEPT OF POVERTY. *Journal of new century innovations*, 27(1), 97-100.
14. Abdukhalilovich, S. S., & Ugly, S. F. S. (2023). THE ESSENCE OF THE CONCEPT OF POVERTY. *Journal of new century innovations*, 27(1), 97-100.
15. Mardievna, S. G., & Zhamshedovich, K. Z. (2023). THE ROLE OF FAMILY BUSINESS IN THE DEVELOPMENT OF THE SERVICE INDUSTRY. *Thematics Journal of Commerce and Management*, 7(1).
16. Шадиева, Г. М. (2023). ОИЛА ХЎЖАЛИГИНИНГ ИҚТИСОДИЙ МУСТАҚКАМЛИГИНИ ТАҲЛИЛ ҚИЛИШ ЙЎЛЛАРИ. *Journal of new century innovations*, 21(1), 91-94.
17. Mardievna, S. G., & Shukhatovna, M. S. (2021). Ways to increase investment potential in samarkand region. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 2(11), 44-50.
18. Шадиева, Г. (2021). Оила тадбиркорлигини ривожлантиришда инновацияларнинг айрим назарий жиҳатлари. *Экономика и образование*, (1), 121-126.
19. Мамаюнус, П., & Мардиевна, Қ. Ш. Г. (2021). Маркетинг фаолиятида қўлланиладиган ахборотлар тизими ва уларнинг таснифи. *Development Issues Of Innovative Economy In The Agricultural Sector*, 278.

20. Shadieva, G. M., & Akbarovna, K. S. (2023). THEORETICAL VIEWS ON CONCEPTS OF ENTREPRENEURSHIP. *Journal of new century innovations*, 20(3), 42-45.
21. Shadiyeva, G., & Kholmiraeva, G. (2022). FAMILY BUSINESS AND ITS DEVELOPMENT. *Eurasian Journal of Academic Research*, 2(8), 148-151.
22. Shadieva, G., & Saidmurodov, F. (2022). DEVELOPMENT OF NATIONAL TOURISM AND THEORETICAL FOUNDATIONS OF ITS COMPETITIVENESS. *Eurasian Journal of Academic Research*, 2(8), 115-124.
23. Шадиева, Г. М., & Кувандиков, Ш. О. (2022). РОЛЬ СЕМЕЙНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В РАЗВИТИИ ЭКОНОМИКИ СТРАНЫ. *Current Issues of Bio Economics and Digitalization in the Sustainable Development of Regions*, 59-63.
24. Mardiyevna, S. G., & Abdusamatovich, J. J. (2022). SANOAT 4.0 KONSEPSIYASI VA UNGA TA'SIR ETUVCHI RISKLAR. *Current Issues of Bio Economics and Digitalization in the Sustainable Development of Regions*, 712-721.
25. Пардаев, М. Қ., & Шодиева, Г. М. (2001). Оила хўжалиги иқтисодиёти ва тадбиркорлиги. Самарқанд, СамКИ, 151.
26. Shadieva, G. M. (2022). SOCIO-ECONOMIC CONCEPT OF" FAMILY ECONOMY". *Confrencea*, 1(1), 239-243.
27. Шадиева, Г. М., & Садинова, Б. Б. (2022). Мамлакатимизда тадбиркорликни ривожлантириш йўллари.
28. Mardiyevna, S. G., & Zhamshedovich, K. Z. (2023). SYNERGETICS AND ITS ROLE IN SOLVING PROBLEMS OF FAMILY BUSINESS. *British View*, 8(1).
29. Mardiyevna, S. G., & Zhamshedovich, K. Z. (2023). THE ROLE OF FAMILY BUSINESS IN THE DEVELOPMENT OF THE SERVICE INDUSTRY. *Thematics Journal of Commerce and Management*, 7(1).
30. Шадиева, Г., & Шакирова, Ф. (2021). ИҚТИСОДИЁТНИ РАҚАМЛАШТИРИШГА ТРАНСФОРМАЦИЯЛАШУВИДА ИНТЕЛЛЕКТУАЛ МУЛКНИ РАСМИЙЛАШТИРИШНИНГ АЙРИМ МАСАЛАЛАРИ. *Экономика и образование*, (5), 381-384.
31. Mardiyevna, S. G., & Zhamshedovich, K. Z. (2023). THE ROLE OF FAMILY BUSINESS IN THE DEVELOPMENT OF THE SERVICE INDUSTRY. *Thematics Journal of Commerce and Management*, 7(1).
32. Шадиева, Г. М. (2022). ОИЛА ХЎЖАЛИГИ ФАРОВОНЛИГИНИ ОШИРИШДА ОИЛАВИЙ БИЗНЕСНИНГ РОЛИ. *Архив научных исследований*, 2(1).

33. Shadieva, G. M., & Kulmuradova, R. (2022). THE ROLE OF FAMILY BUSINESS IN IMPROVING THE STANDARD OF LIVING AND ENSURING THE WELL-BEING OF THE POPULATION. *British View*, 7(4).
34. Шадиева, Г. (2021). Оила тадбиркорлигини ривожлантиришда инновацияларнинг айрим назарий жиҳатлари. *Экономика и образование*, (1), 121-126.
35. Shadieva, G. M., & o'g'li Isoqulov, Z. S. (2022). WAYS TO REDUCE POVERTY. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(12), 957-962.
36. Mardiyevna, S. G., & Ugli, A. U. A. (2023). PROVIDING EMPLOYMENT OF THE POPULATION IN RURAL AREAS IN THE DIGITAL ECONOMY. *Research Focus*, 2(1), 7-10.
37. Pardaeva, O. M., & Shodieva, G. M. (2020). The role of family entrepreneurs in society development. *American Journal of Economics and Business Management*, 3(5), 194-200.
39. Шадиева, Г. (2021). ОИЛА ТАДБИРКОРЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ИННОВАЦИЯЛАРНИНГ АЙРИМ НАЗАРИЙ ЖИҲАТЛАРИ. *Экономика и образование*, (1), 121-126.
40. Shadiyeva, G., & Isoqulov, Z. (2023). NARPAY TUMANIDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH VA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHDA AHOLI XOHISH ISTAKLARI. *Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук*, 3(3), 169-179.
41. Мамаюнус, П., & Мардиевна, К. Ш. Г. (2021). Маркетинг фаолиятида қўлланиладиган ахборотлар тизими ва уларнинг таснифи. *Development Issues Of Innovative Economy In The Agricultural Sector*, 278.

**QORAMOLCHILIK SOHASINI DASTLABKI RIVOJLANISH
BOSQICHLARI VA ULARNING MAHSULOTLARIDAN FOYDALANISH
HAQIDAGI DASTLABKI TUSHUNCHALAR.**

O.R. Kuchchiyev

SDVMCHBU Toshkent filiali dotsenti

G.D. Anarbayeva

SDVMCHBU Toshkent filiali talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada respublikamizda mavjud bo`lgan chorvachilik xo`jaliklari va ularning asosiy qismini egallab kelgan qoramolchilik sohasini bugungi kundagi o`rni va uning dastlabki rivojlanish bosqichlarini o`rgangan holda aholini mahsulotlarga bo`lgan bugungi ehtiyoji va qoramol mahsulotlaridan qay tarzda foydalanilayotgani dastlabki mahsulotlarga bo`lgan ehtiyojlari va foydalanish tarzini o`rganib aholining mahsulotlarga bo`lgan ehtiyoji qancha ortganini aniqlash

**Kalit so`zlar:** sun`iy urug`lantirish, nasilchilik, chorvachilik, pishloq, go`ng, yovvoyi zotlar, xonakilashtirish.

**Базовое понимание ранних стадий развития животноводства и
использования их продукции.**

Аннотация

Изучив современное состояние животноводческих ферм в нашей республике и основной их части, отрасли животноводства и ее начальные этапы развития, текущие потребности населения в продукции и способы использования продукции животноводства, первоначальные потребности в продукции и определить, насколько возросла потребность населения в продуктах, изучая способ употребления

Ключевые слова: искусственное осеменение, селекция, животноводство, сыр, навоз, дикие породы, domestикация.

ABSTRACT

Having studied the current status of livestock farms in our republic and the main part of them, the cattle industry, and its initial stages of development, the current needs of the population for products and how cattle products are used, the initial needs for products and to determine how much the population's need for products has increased by studying the way of use

Key words: artificial insemination, breeding, animal husbandry, cheese, manure, wild breeds, domestication.

Kirish

Bugungi kunda respublikamizda jami 18 032 ta chorvachilik xo'jaliklari mavjud bo'lib, shundan 7 614 tasi qoramolchilik, 3 263 tasi qo'y va echkichilik, 142 tasi yilqichilik, 52 tasi tuyachilik, 1 163 tasi parrandachilik, 4 829 [tasi baliqchilik](#), 715 tasi asalarichilik va 254 tasi quyonchilik yo'nalishida tashkil etilgan. Birgina qoramolchilik yo'nalishida 500 boshdan 1 000 boshgacha chorva moli bo'lgan xo'jaliklar soni 256 taga, 1 000 bosh va undan yuqori chorva moli bo'lgan xo'jaliklar soni 136 taga yetdi. 2021-yilda barcha toifadagi xo'jaliklarda parvarish qilinayotgan qoramollarning 91,8 foizi (2018-yilda 95,5 foiz) aholi xonadonlariga, 8,2 foizi (2018-yilda 4,5 foiz) fermer xo'jaliklariga to'g'ri kelgan. Aholi jon boshiga go'sht mahsulotlari ishlab chiqarish 47,5 kilogrammga (1 kishiga yillik me'yor — 46,1 kilogramm), sut mahsulotlarini ishlab chiqarish ko'rsatkichi 336 kilogrammga (1 kishiga yillik me'yor — 310,4 kilogramm) yetkazildi. 2021-yilda aholi xonadonlari va fermer xo'jaliklarida parvarishlanayotgan 2,4 million bosh sigir va tanalar sun'iy urug'lantirilib, zoti yaxshilangan qoramollar bosh soni 54 foizga yetkazildi. Bundan tashqari, chet davlatlardan go'sht yo'nalishidagi tez yetiladigan qoramollarning Aberdin-angus, Sharole, Gereford va Limuzin hamda sut yo'nalishidagi Djersey, Shvits va Monbilyard kabi yangi zotlari olib kelindi. Xususan, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Jizzax, Navoiy, Sirdaryo, Toshkent, Xorazm viloyatlarida bunday zotlarning 100 ming boshdan ortig'i parvarishlanmoqda. Shuningdek, mayda shoxli mollarning zotini yaxshilash va mahsuldorligini oshirish maqsadida qo'ylarning Merinos, Romanov, Edilboy, Dorper zotlari hamda echkilarning Angor va Zanen zotlari chet davlatlardan olib keltirildi.

Mavzu dolzarbligi

Chorvachilik – mamlakat qishloq xo'jaligining muhim tarkibiy qismidir. Chorvachilik tarmoqlarining maqsadga muvofiq, samarali joylashtirilishi, rivojlantirilishi respublikada mehnat taqsimoti ijobiy hal etilishiga bevosita ta'sir etadi. Hududlarning tabiiy, iqtisodiy sharoitlarini hamda bozor talablarini e'tiborga olgan holda chorvachilikning qoramolchilik, qo'ychilik, baliqchilik, asalarichilik, andatrachilik tarmoqlari joylashtirilishi va rivojlantirilishi zarur. Chunki bu tarmoqlarda oziq-ovqat va qayta ishlash sanoati korxonalari uchun go'sht, sut, jun, teri, asal va boshqa mahsulotlar yetishtiriladi. Natijada sanoat tarmoqlarining rivojlantirilishi ham ta'minlanadi, chorvachilik tarmoqlarida [inson salomatligi uchun zarur](#), oqsil moddalarga boy bo'lgan turli xildagi mahsulotlar ham yetishtiriladi.

Qoramolchilik - [chorvachilikning](#) asosiy sohalaridan biri aholini [go'sht](#), [sut](#) mahsulotlari hamda yengil sanoatni teri va boshqa xom ashyo bilan ta'minlaydi. Qoramolchilik chiqindisi bo'lgan go'ng dehqonchilikda yerlar unumdorligini oshirishda keng qo'llaniladi (ba'zi mamlakatlarda qoramoldan ish hayvoni sifatida foydalaniladi). Qoramolchilik xo'jalik tarmog'i sifatida yovvoyi

qoramol turlari xonakilashtirilgan paytdan paydo bo'lgan. Dastlab qoramoldan go'shti uchun hamda ish hayvoni sifatida foydalanilgan. Sut iste'mol qilina boshlagach, odamlar undan yog', pishloq va boshqa mahsulotlar tayyorlashni o'rgandilar, natijada sut Qoramolchilikning ahamiyati oshdi, sut sanoati shakllandi.

Qoramolchilik qadimdan hozirgi O'zbekiston hududida intensiv sharoitlarda va yaylov usulida rivojlangan. 19-asr oxiriga qadar Qoramolchilikning asosiy qismini kammahsul, jussasi mayda jaydari hamda zebusimon qoramollar tashkil qilgan. 20-asrning 20-yillaridan boshlab respublikada mahalliy va zebusimon qora-mollarni madaniy qoraola, qizilcho'l va shvits zotlari bilan chatishtirish asosida mahsuldor podalar guruhini shakllantirish hamda nasldor sof zotli qoramollarning reproduktor xo'jaliklarini tashkil etish, davlat va kooperativ xo'jaliklari Qoramolchilik sut-tovar fermalarini rivojlantirish va sutchilik komplekslarini tashkil etish, Qoramolchilikni ixtisoslashtirish, konsentratsiyalash va sanoat texnologiyalari asosiga o'tkazish ishlari amalga oshirildi. Qoramolchilikning sut, sut-go'sht, go'sht hamda naslchilik yo'nalishidagi xo'jaliklar, naslchilik zavodlari, xo'jaliklari va fermalari tashkil etildi. natijada 80-yillarga kelib qoramollar zotdorligi 98—99% ga yetkazildi. Nasldor sigirlarning 3800—4100 kg sut beradigan podalari barpo etildi. Go'shtchilik komplekslarida parvarish qilingan novvoslar vazni 12—13 oyligida 400—420 kg ga ko'tarildi. Tumanlarda tashkil etilgan xo'jaliklararo bo'rdoqichilik korxonalarida qoramollarni jadal boqish va bo'rdoqilash ijobiy natijalar berdi. Qoramolchilik amaliyotining taraqqiy etishida ilg'or tajriba va fan yutuqlari muhim rol o'ynadi. 1932-yilda chorvachilik tajriba st-yasining va 1939-yilda O'zbekiston chorvachilik ilmiy tadqiqot institutining tashkil etilishi chorvachilik va xususan Qoramolchilik sohasida muhim burilish bo'ldi. Qoramolchilik rivojining tipologik, ozuqa va seleksiya asoslari ishlab chiqildi hamda amaliyotga keng joriy qilindi. 1924-yilda qoramollar soni 1229,4 ming boshni, shu jumladan, sigirlar 407,5 ming boshni tashkil qilgan bo'lsa, 1991-yilda bu ko'rsatkichlar tegishlicha 4580,8 va 1856,4 ming boshga, 2004-yilda 5873 va 2556,7 ming boshga yetdi. 1924-yilda go'sht yetishtirish (tirik vaznda, ming t) 84,0, 1991-yilda 789, 2003-yilda 935,5; sut yetishtirish tegishlicha 262,0, 3034,2 va 4030,3 ni tashkil etdi. sigirlardan o'rtacha sut sog'ib olish 1924-yilda 400 kg dan 1990-yilda 1685 kg ga, qoramollarni go'shtga topshirish vazni 150 kg dan 401 kg gacha ko'tarildi. Keyingi 14—15 yil mobaynida qoramollar soni va yetishtirilgan yalpi chorva mahsulotlari hajmi o'sdi. Qoramolchilik sohasida tashkil etilgan fermer xo'jaliklarida mahsuldorlik ko'rsatkichlari yaxshilandi. 1990 — 2003-yillarda respublikada qoramollar soni 1293,9 ming boshga yoki 28,3%ga, sigirlar soni 700,3 ming boshga yoki 37,7% ga ko'paydi.

O'zbekistonda Qoramolchilik bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari O'zbekiston chorvachilik ilmiy tadqiqot institutida olib boriladi. Qoramolchilik fan sifatida oliy va

oʻrta maxsus oʻquv yurtlarining zoomuhandislik va veteri-nariya fakultetlarida oʻqitiladi.

Xorijiy davlatlarda sut yoʻnalishidagi Qoramolchilik, ayniqsa, Gollandiya, Daniya, Germaniya, Isroil, AQSH, Kanada, Yaponiya va Yangi Zelandiyada rivojlangan (sigirlarning oʻrtacha sut sogʻimi 8—11 ming kg). Goʻshtdor qoramollar [AQSH](#), [Fransiya](#), [Angliya](#), [Italiya](#), Kanada va Avstraliyada tashkil etilgan (goʻsht olinadigan 14—15 oylik novvoslar vazni 500—550 kg). Dunyo mamlakatlarida urchitilayotgan qoramollar soni 1,33 mlrd. bosh atrofida (1999). Jahonda turli tabiiy iqlim sharo-itlariga moslashgan 250 dan ortiq qoramol zotlari boqiladi.

Xulosa: Maqolada keltirilgan maʼlumotlardan foydalangan holda respublikamizdagi chorvachilik xoʻjaligari va ularni asosini tashkil etgan qoramolchilik sohasini dastlabki rivojlanish bosqichlari qoramolchilikdan foydalangan dastlabki mahsulotlar va bugungi kundagi aholining ehtiyojlarini oʻsish miqdorini aniqlash.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Chorvachilik va parandachilik ilmiy tadqiqot instituti. Qoramolchilikni rivojlantirish boʻyicha amaliy qoʻllanma. Toshkent 2019.
2. “Chorvachilik asoslari” Abdolnizozov B.O
3. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Qoramolchilik>
4. https://kitobxon.com/oz/kitob/qoramol_parvarishlash_sirlari

FE'L VAZIFA SHAKLLARINING QIYOSIY TAHLILI

Jizzax davlat pedagogika universiteti talabasi

Abralova Nafisa Ulug'bek qizi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek va ingliz tillaridagi fe'l so'z turkumining ma'no farqlanishlari, grammatik shakllanishi qiyosan o'rganilgan.

Kalit so'zlar. Fe'lning vazifa shakllari, sof fe'l shakli, sifatdosh, ravishdosh, harakat nomi, infinitive, gerund, simply infinitive, perfect infinitive, continuous infinitive, perfect continuous infinitive, Perfect Participle, o'tgan zamon sifatdoshi, hozirgi zamon sifatdoshi, kelasi zamon sifatdoshi.

Turli gap bo'laklari vazifasida kelish uchun xoslangan fe'l shakllari fe'lning vazifa shakllari sanaladi. O'zbek tilida fe'lning to'rt vazifa shakli mavjud:

- 1) sof fe'l shakli (o'qidi);
- 2) harakat nomi shakli (o'qimoq, o'qish);
- 3) sifatdosh shakli (o'qigan);
- 4) ravishdosh shakli (o'qib, o'qigach).

Sof fe'l shakli. Sof fe'l shakllari har ikki tilda maxsus qo'shimchalar bilan yasalmaydi. Bunday fe'llar tarkibida zamon, shaxs-son, mayl qo'shimchalari bo'ladi va gapda kesim vazifasida qo'llaniladi. M., "yozdim" sof fe'l bo'lib, "yoz" fe'l asosi, -di o'tgan zamon qo'shimchasi, -m shaxs-son qo'shimchasi. Ingliz tilida ham "I wrote" sof fe'l bo'lib, fe'l asosi "write" noto'g'ri fe'l bo'lganligi uchun "wrote" shaklini oladi, "I" esa harakatning kimga tegishli ekanligini bildiradi.

Harakat nomi shakli (Infinitive/Gerund). Fe'lning otga xoslangan shakli harakat nomi deyiladi va o'zbek tilida fe'l asoslariga -(i)sh, -(u)v, -moq, -mak, -maslik kabi qo'shimchalarni qo'shish bilan hosil qilinadi. M., yozish, o'qimoq, o'qish, o'quv, foydalanmoq. Harakat nomining vazifasi fe'lni gapda ega, aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol va ot-kesim sifatida shakllantirishdan iborat. M., Takrorlash – bilimlar onasi. Ushbu gapda harakat nomi - "takrorlash" va u gapda ega vazifasida qo'llangan. Ingliz tilida harakat nomini yasash uchun to'yuklamasi yoki -ing shaklidan foydalanamiz. Afford, agree, appear, arrange, ask, care, claim, decide, demand, desire, expect, fail, forget, hope, intend, learn, seem, tend, wait, want kabi ma'lum fe'llardan keyin doim Infinitive shaklidan, ya'ni to'yuklamasidan foydalanamiz. M., They agreed to help us. (Ular bizga yordam berishga rozi bo'lishdi) Bu gapda "to help" harakat nomi bo'lib, u to'ldiruvchi vazifasini bajargan. Yoki "To read is pleasant" (O'qish – yoqimli) gapida ega, "Your duty is to inform me" (Sizning vazifangiz menga xabar berish) gapida ot-kesim, "He expressed a desire to help me" (U menga yordam berish istagini bildirdi)

gapida aniqlovchi, “I went to the library to study”(Men kutubxonaga o’qish uchun bordim) gapida hol vazifasida kelgan.

Ingliz tilida fe’ning Infinitive shakli o’zbek tilidagi harakat nomidan farqli ravishda zamon shakllarida tuslanadi va shunga ko’ra quyidagi shakllaridan keng foydalaniladi:

1) **Simply Infinitive** (Oddiy) quyidagi hollarda ishlatiladi:

- a) Infinitive, ya’ni harakat nomi gap kesimi bilan bir vaqtda sodir bo’lgan ish-harakatni ifodalaydi. M., I am glad to see you (Sizni ko’rishdan xursandman)
- b) Infinitive may, must, should, ought modal fe’llari bilan va to expect, to intend, to hope, to want kabi fe’llar bilan kelib, kelasi zamondagi ish-harakatni bildiradi. M., 1. I intend to go there on Sunday. (Men u yerga yakshanba kuni boorish niyatidaman) 2. I hope to see him at the concert. (Men uni konsertda uchratishni umid qilaman) Birinchi gapda “to go” va ikkinchi gapda “to see” birikmalari harakat nomi hisoblanib, ular gapda aniqlovchi va to’ldiruvchi vazifalarida kelgan.
- c) Barcha zamonlar uchun umumiy sodir bo’ladigan ish-harakatlarini ifodalaydi. M., Running is a good activity. (Yugurish – yaxshi mashg’ulot)

2) **Perfect Infinitive** (Murakkab) quyidagi holatlarda ishlatiladi:

- a) Perfect infinitive, ya’ni murakkab harakat nomi gapning kesimidagi fe’l ifodalagan harakatdan oldinroq sodir bo’lganligini ifodalaydi. M., He seems to have finished his work. (U ishini tugatganga o’xshaydi)
- b) May, must kabi modal fe’llardan keyin kelib, ish-harakatni allaqachon tugatgan degan taxminni ifodalash uchun ishlatiladi. M., He must have forgotten about it. (U bu haqda unutgan bo’lishi kerak)
- c) Should, would, could, might, ought to va was/were to modal fe’llaridan keyin kelib, bajarilishi lozim bo’lgan yoki bajarilishi mumkin bo’lgan, ammo haqiqatda bajarilmagan ish-harakatni ifodalaydi. M., He was to have come yesterday. (U kecha kelishi kerak edi)
- d) To intend, to hope, to expect, to mean kabi fe’llarning o’tgan zamon shaklidan keyin kelib, o’tgan zamonda biror ish-harakat sodir bo’lishiga umid qilingan, niyat qilingan, ammo sodir bo’lmagan ish-harakatni ifodalaydi. M., I intended to have finished my work last night. (Men kecha oqshom ishimni tugatishga qasd qilgan edim (ammo tugata olmadim))

3) **Continuous Infinitive** (Davomli) gapning kesimidagi ish-harakat bilan bir paytda davom etgan ish-harakatni ifodalaydi. M., She seems to be crying. (U yig’layotganga o’xshaydi)

4) **Perfect Continuous Infinitive** (Tugallangan davomli) gapning kesimidagi ish-harakatdan oldin uzoq vaqt davom etgan ish-harakatni ifodalaydi. M., He is

known to have been working on this problem for many years.(Uning bu muammo ustida ko'p yillar ishlaganligini odamlar biladi)

Infinitive ba'zan to yuklamasisiz ham ishlatilishi mumkin:

- a) Must, can (could), may (might) va need modal fe'llaridan keyin: I can speak in English.(Men ingliz tilida gapira olaman)
- b) To make (majbur qilmoq), to let (ruxsat bermok), to see (ko'rmoq), to watch (kuzatmoq), to hear (eshitmoq), to feel (his qilmoq), to help (yordam bermok) va boshqa fe'llardan keyin obyektiv kelishikdagi olmosh yoki otdan keyin infinitive to yuklamasisiz ishlatiladi. M., I let him go there.(Men unga u yerga borishga ruxsat berdim)
- c) Had better (yaxshisi), would rather, would sooner (yaxshisi) kabi birikmalardan keyin infinitive to yuklamasisiz ishlatiladi. M., I would rather not tell them about it.(Yaxshisi, men ularga bu haqida aytmayman)

Harakat nomining bo'lishsiz shaklini hosil qilish uchun o'zbek tilida –maslik qo'shimchasidan foydalanamiz (o'qish - o'qimaslik). Ingliz tilida esa infinitive oldiga not yuklamasini qo'yish bilan harakat nomining bo'lishsiz shakli yasaladi. M., Ignorance is caused by not to ask. (Jaholat so'ramaslikdan kelib chiqadi)

Yozuvchining "Soyasini yo'qotgan odam" hikoyasi noah'anaviy postmodern ruhda yozilgan hikoyalardan hisoblanadi. Hikoya Kafkaning "Evrilish"i kabi kutilmaganda asar qahramonini vujudidan mazmunning chiqib ketishi-yu, zumda qaytib, forig'lanib o'z o'rniga joylashib olganiga o'xshash holatni boshidan kechirishi bilan boshlanadi. Uning soyasi yo'qolib qoladi. Quyosh nuri uning tanasidan to'siqlarsiz o'tib ketadi. Uning vujudi oyna kabi oftob zarralarini boshqa predmetga ulashadi. Ko'p yillik qadrdoni Barot hayronlikdan o'zini yo'qotgani yuq. Aksincha, uning antiqa holatidan huzurlanib kuladi, chapak chaladi. Ko'rinyapdiki yuzaga kelgan hodisofojiya emas. Asar qahramoniga ham o'zidagi o'zgarish qo'rqinchli bo'lib tuyulmaydi. Hikoya birinchi shaxs tilidan bayon etiladi. Bu yerda soya haqida aytadigan bo'lsak, Nazar Eshonqul, Faxriyor she'riyatida bildirilgan mulohazalarning birida "soya" haqida shunday fikr yuritadi: Soya nursizlik, yorug'liksizlik, yorug'likning qora tomoni degani. Voqelikda soya hukmron bo'lsa, bu manzilda miflardagi marhumlar dunyosi kabi sharpa, ko'lanka kezib yuradi, soya qaysi qiyofaga kirmasin, nurni- asl o'zida mujassam qila olmaydi, boshqacha qilib aytganda, soya faqat shakl, unda mazmun bo'lmaydi, soyaning sinonimi mazmunsizlik, yolg'izlik, begonalik, xavotir, tushkinlik umidsizlikdir".²

Yozuvchi nazarida o'z soyasini yo'qotish, shunchaki odatdagi hol. Faqat shakl bilan mazmun ichki bog'liqlik bilan ajralishi, o'zini begonadek hiz etishi, vaqtinchalik xavotirning kuchayishi, tushkinlik va umidsizlikning inson ruhiyatidagi betakrorlanishi, xolos.

¹ A. A'zam. Mansur so'z. T.G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashryoti. 1987.8-b.

² Eshonqul. N Ijod falsafasi. T. Akademnashr. 2018.215-b.

Ahmad A'zam hikoyasidagi asar qahramonining o'z soyasini yo'qotishi, o'zligini yo'qotish emas, balki soxta e'tiqodlardan tozarish, yangi mavjud tuzum haqidagi ko'r-ko'rona qarashlarning yangilanishi, yolg'on aqidalarning anglab yetilishideb tushinilsa mohiyatga to'g'ri yondashilgan bo'ladi. Bu holat yozuvchi hikoyalarining voqealar rivojida ochib boriladi.

Shu o'rinda aytish joizki, jahon xalqlar adabiyotida o'zlikni anglash, davr tizimini majoziy, metaforik obrazlar vositasida fosh etish, shu orqali inson hurligini kuylash, uning erkinligini ifodalash, so'z erkinligini joriy etish, inson demokratik qoidalar asosida jamiyatning boshqaruvchisiga aylanishi kabi ijtimoiy siyosiy muammolarning kun tartibiga aylanib borayotganligi asar qahramonining siyosiy ongini faollashtirib yuboradi. Oqibatda soxta mafkuraning tub ildizi qayerda ekanligini anglab yetishi asnosida undagi yolg'on haqiqatlarning tanani tark etishi soya timsoli orqali yorqin ifodasini topgan. Yozuvchi ham shu o'rinda inson botinidan shaytoniy vasvasaning butunlay quvib chiqarilishini shunday timsol bilan ifodalamoqda. A.A'zam asarida bu holatning guvohi bo'lamiz, albatta.

Ahmad A'zam hikoyalar ijod qilish bilan bir qatorda, novella janrida ham asarlar yozgan ijodkordir. Novella janrining o'ziga xosliklari adabiyotshunoslikka oid lug'atlarda, darsliklarda, qayd etilgan. Jumladan, Dilmurod Qur'onovning "Cho'lpon nasri poetikasi" monografiyasida janr tabiatiga xos qarashlar atroflicha bayon etilgan. Adabiyotshunos hikoyani ikki toifaga bo'lib o'rganadi. "Adabiyotshunoslikda "hikoya" va "novella" atamallari xususida izchillik yuq: ayrim adabiyotshunoslar bu ikki atamani sinonim hisoblasalar, boshqalari keskin farqlaydilar. Biz bu masalada hikoyaning ikki tipi bor: birinchisi ocherklilik (tavsifiy-rivoyaviy), ikkinchi novvelistiklik(konfliktli-rivoyaviy)xususiyati ustundir, degan fikrga ko'proq qo'shilamiz, ya'ni bu o'rinda gap ikki turlar haqida emas, balki bir janrning ikki sifat ko'rinishi haqida boradi".³Olim Monografiyasida novella va hikoyani bir jsanrning ikki sifati deb tushunsa-da, "adabiyotshunoslik lug'ati" ⁴kitobida novellani ajratib, janrga nisbatan to'liqroq ma'lumot beradi.Ibrohim G'ofurov esa o'zining Ozod Sharafiddinov haqidagi maqolasida : "Negadir Merime hikoyalariga nisbatannovella degan so'zni qo'llashardi. Kutilmagan yakunga ega hikoyalar novella deb atalsa kerak, deb tushunardim.Merime hikoyalari haqiqatdan ham favqulotdda tugashi bilan hayratga solardi".-deb yozadi.⁵

Anan shu janr nazariyasiga oid tadqiqot olib brogan Akram Toshpo'latov janr o'ziga xosliklarini quyidagi ko'rinishda tushunadi:" Hikoyada voqea odatiy yakun topadi, ya'ni kichik sahnalarda har kungi turmush tarz bayon etiladi. Novellada voqea kutilmagan muqaddima bilan boshlanadi, ziddiyatlar yechimi sirli ko'rinishga ega

³ Qur'onov D.Cho'lpon nasr poetikasi.T.Sharq.2004.37-b.

⁴ Qur'onov D, Mamajonov Z, Sheraliyeva M.Adabiyotshunoslik lug'ati.T.Akademnashr.2013.

⁵ G'ofurov I.Parivashlar majlisi.T.Yangi asr avlodi.2013.37-b.

bo'ladi, personajlar ruhiyatidagi, xatti-harakatidagi, voqealardagi o'zgarishlarmuayyan drammatizmni yuzaga keltiradi. Novella kutilmagan yechim bilan yaskun topadi".⁶

Yuqorida qayd etilgan novella nazariyasiga oid qarashlardan kelib chiqsak, Ahmad A'zam novellalari ko'rsatilgan nazariy qoidalarga mos emas. Nazarimizda, ijodkor kichik nasr namunalarini novella deb nomlashda Izzat Sulton fikrlariga asoslanadi: "Yangi eposning eng kichik shakli novelladir. Unda kishilar hayotidagi juda kichik epizod hikoya qilinadi. Mapassan, Chexov va Qahhorning ko'pchilik hikoyalari novellaning namunalari hisoblanadi".⁷ Mazkur qoidalar o'tgan asrning 80-yillarida hukmron bo'lgan. Undan keying yangi adabiyotlardabunday farqlar yo'q. Ammo "Hikoyaning eng kichik shakli, ko'rinishi – novella" degan, o'zini oqlamagan aqida hamon yozuvchilarni chalg'itib kelmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Ahmad A'zam barcha novellalarini umumaxrajga olib kelsak, birgina inson o'zligi – "men"i atrofida birlashadi. Agar biz barcha novellalar syujetiga e'tibor qaratsak, "men"likning turli rakursdagi talqinlar, ko'rinishlar bo'lib chiqaveradi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. A. A'zam. Mansur so'z.T.G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashryoti.1987.8-b.
2. Eshonqul.N Ijod falsafasi.T.Akademnashr.2018.215-b.
3. Quronov D.Cho'lpon nasr poetikasi.T.Sharq.2004.37-b.
4. Quronov D, Mamajonov Z, Sheraliyeva M.Adabiyotshunoslik lug'ati.T.Akademnashr.2013.
5. G'ofurov I.Parivashlar majlisi.T.Yangi asr avlodi.2013.37-b.
6. Toshpo'latov A.O'zbek adabiyotida Novella janri va uning badiiyati.Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(Phd) dissertatsiyasi aforeferati. Samarqand.2018.15-b.
7. I.Sulton.Adabiyot nazariyasi.T.O'qituvchi.1980.248-b.

⁶ Toshpo'latov A.O'zbek adabiyotida Novella janri va uning badiiyati.Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(Phd) dissertatsiyasi aforeferati. Samarqand.2018.15-b.

⁷ I.Sulton.Adabiyot nazariyasi.T.O'qituvchi.1980.248-b.

**OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRISHNI
INNOVATSION RIVOJLANTIRISH*****Rustam Ismatov Yusufovich****Buxoro Xalqaro Osiyo universitet**Iqtisodiyot yo`nalishi magistranti*

Annotatsiya: Maqolada oziq-ovqat sohasini inonovatsion rivojlantirish samaradorlik ko'rsatkichlari (biologik, texnik-texnologik, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik) tizimlashtirilgan. Shuningdek, mazkur soha xo'jaliklarining innovatsion va barqaror rivojlanishi unga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilmaning rivojlanganlik darajasiga bog'liqligi tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: chorvachilik, innovatsiya, infratuzilma, biologik samaradorlik, texnik-texnologik, ijtimoiy samaradorlik, ekologik samaradorlik.

Ma'lumki, har qanday tarmoqni innovatsion rivojlantirish, avvalambor, ishlab chiqarishni intensivlashtirish bilan bevosita bog'liq bo'lib, takomillashgan, innovatsion texnika va texnologiya hamda ishlab chiqarishni, shuningdek, mehnatni tashkil etishning yangi shakllaridan foydalanish natijasida mavjud resurslardan samarali va to'liq foydalanish hamda mehnat unumdorligining oshishini ta'minlaydi.

Oziq-ovqat ishlab chiqarishda innovatsion rivojlantirishning nazariy-uslubiy jihatlarini, innovatsion faoliyat samaradorligini baholashning uslublari hamda mintaqacha ichki bozorini innovatsiya asosida rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari tahlil etilganda, oziq-ovqat tarmog'ini innovatsion rivojlantirish natijasida ishlab chiqarish samaradorligi o'sishi hamda bu jarayonni jadallashtirish maqsadida ishlanma va intensivlashtirishning yangi vositalarini qo'llashni rag'batlantiruvchi ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarni ta'minlash zarurligi aniqlandi¹.

Ishlab chiqarish sohasini innovatsion rivojlantirishda foydalaniladigan samaradorlik ko'rsatkichlarining o'zaro bog'liqligi jihatdan murakkabligi bilan ajralib turadi. Sohada olingan samaradan kelib chiqqan holda samaradorlikning texnik-texnologik, biologik, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik samaradorlik ko'rinishlari mavjud, (1-jadval). Chorvachilik sohasini inonovatsion rivojlantirish samaradorlik ko'rsatkichlari olingan samara turidan kelib chiqqan holda tizimlashtiriladi va turlicha xarajatlar bilan solishtiriladi².

¹ "O'zbekiston qishloq xo'jaligi" statistik to'plam. – Toshkent. O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi, 2005-2017 yy.

² Артемова Е. Экономические аспекты инновационного развития животноводства (теория и практика): автореф. дисс. докт. экон. наук//Е.Артемова. – Краснодар, 2018. – 46 с.

Chorvachilik sohasida samaradorlik turlari tarkibida biologik samaradorlik alohida ahamiyat kasb etib, chorvachilikda mahsuldorlikning, sarflangan ozuqa hajmiga nisbatan olingan mahsulot hajmining oshishi bilan izohlanadi³.

Innovatsion faoliyatning texnik-texnologik samaradorligi bir shartli chorva mol hisobiga chorvachilik mahsulot hajmining ko'payishi, fond va energetik resurlar sig'imining kamayishi bilan aniqlanadi. Shuningdek, texnik-texnologik samaradorlik chorvachilik sohasini texnik-texnologik qayta jihozlash maqsadida amalga oshirilgan innovatsion ishlanmalarga sarflangan mablag' hisobiga olingan mahsulot hajmi (qiymati)ni aniqlash orqali ham ifodalanadi⁴.

1-jadval

Chorvachilik sohasida innovatsion rivojlantirishning samaradorlik ko'rsatkichlari va baholash usullari

Samaradorlik ko'rinishlari	Olingan samara	Ko'rsatkichlar	Izoh
Biologik samaradorlik	Chorva mollarining genetik imkoniyatlarini oshirish va ozuqa to'yimlilikini yaxshilash hisobiga chorvachilikda mahsuldorlikning oshishi va mahsulot sifati yaxshilanishi	$B_s = \frac{YaM}{I_m}$	Bs – innovatsion rivojlantirishning biologik samaradorlik ko'rsatkichi; YaM – chorvachilik mahsulotlari hajmi; Im - chorva mollarining genetik salohiyatini takomillashtirish, yuqori mahsuldor chorva mollar, biotexnologiyalar, genetik muhandislikdan

³ Добровольский В.В. Актуальные проблемы и возможные перспективы развития животноводства в Украине с помощью инноваций.

⁴ Кузьмицкая А.А., Бабьяк М.А., Бабьяк Е.Е. Опыт инновационного развития животноводства в Брянской области//Вестник Брянской государственной сельскохозяйственной академии, 2021

			unlu mali foydalanish hisobiga mahsulot ishlab chiqarishga sarflangan xarajatlar.
		$B_{so} = \frac{YaM}{O_b}$	Bso – innovatsion rivojlantirishning biologik (iqtisodiy) samarad orlik ko'rsatkichi (ozuqa bazasini yaxshilash hisobiga) Ob - ozuqa sifati va chorva mollarining oziqlanti rish darajasini yaxshilashga sarflangan xarajatlar
		$K_{so} = \frac{O_h}{YaM}$	Kso - ozuqaning konversiya koeffitsienti, ya'ni bir birlik olingan mahsulot hisobiga (1kg mahsulot o'sishi, 1kg sut, 1kg jun va boshqa) sarflangan ozuqa hajmi; Oh - sarflangan ozuqa

			miqdori; YaM – chorvachilikda olingan mahsulot hajmi
Texnik- texnologik samaradorlik	1 ta shartli bosh chorva molga sarflangan moddiy-texnik resurslar hisobiga chorva-chilik mahsulotlarining ko'payishi	$T_t = \frac{YaM}{F_{as} + F_{ay}}$	It– chorvachilik sohasining texnik-texnologik samaradorligi; YaM - chorvachilik sohasini texnik-texnologik jihatdan qayta jihozlash (energetik resurslarni takomillashtirish, innovatsion ishlanmalarni joriy etish) hisobiga olingan mahsulot; Fa + Fay – chorvachilik sohasini texnik-texnologik qayta jihozlash uchun sarflangan asosiy va aylanma vositalar qiymati
		$T_e = \frac{YaM}{E_r}$	Te-energetik resurslarni takomillashtirish hisobiga olingan texnik-texnologik samaradorlik Er - chorvachilik sohasini texnik-texnologik qayta jihozlash uchun

			sarflangan energetik resurslar qiymati
		$T_i = \frac{YaM}{I_{in}}$	Ti – ishlab chiqarishga innovatsion ishlanma va loyihalarni (sun'iy urug'lantirish, yangi zot) joriy etish hisobiga olingan texnik texnologik samaradorlik; Iin – innovatsion ishlanmalarga sarflangan mablag'
Iqtisodiy samaradorlik	Chorvachilikda tovar mahsuloti o'sishi, innovatsiyalarni o'zlashtirish va o'z- o'zini qoplash muddatlari qisqarishi, chor-	$I_t = \frac{T_1 - T_2}{I_{in}}$	It – innovatsiyalarni kiritish hisobiga xarajatlarni tejash dan olingan iqtisodiy samaradorlik; T1 – T2 – innovatsiyalarni kiritishdan oldingi va keyingi xarajatlar; Iin – innovatsion ishlanmalarga sarflangan mablag'
	vachilik mahsu- lotlari sifati yaxshilanilishi	$I_f = \frac{F}{I_{in}}$	If – innovatsiyalarni kiritishda foydaning ko'payishi hisobiga olingan iqtisodiy samaradorlik; F – innovatsiyalarni kiritishda olingan foyda

		$R = \frac{F}{I_{in}} * 100\%$	R – innovatsion faoliyatning rentabellik darajasi, %
		$M_u = \frac{YaM}{V}$	Mu – innovatsion rivojlantirishning mehnat unumdorligi; V – innovatsion faoliyat natijasida mehnat sarfining kamayishi
Ijtimoiy samaradorlik	Chorvachilik sohasida band bo'lgan ishchi xodimlarning turmush sifati va ularning turli xil ehtiyojlarining qoniqish darajasining yaxshilanishi	$RID = (ND - ST) * J_{pxq}$	RID – real ixtiyordagi daromadlar; ND – nominal daromad; ST – soliqlar, majburiy to'lovlar - pulning xarid qobiliyati indeksi (narxlar indeksiga teskari ko'rsatkich).
		$RIH = (NIH - SA) * J_{pxq}$ [4]	RIH – real ish haqi; NIH – nominal ish haqi; SA - soliqlar, ish haqidan majburiy ajratmalar
Ekologik samaradorlik	Atrof-muhit muhofazasi, ishlab chiqarilgan ekologik toza mahsulot	$E_s = \frac{EM}{X}$	Es – ekologik samaradorlik; EM – ishlab chiqarilgan ekologik toza mahsulot hajmi; X – ekologik toza

	hajmining ortishi		mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan xarajatlar summasi
--	----------------------	--	--

Innovatsion faoliyatning iqtisodiy samaradorligi resurslar sifatini yaxshilash hisobiga qo‘shimcha daromadga erishishi bilan aniqlanadi va tannarxning kamayishi, rentabellik darajasi, mehnat unumdorligi kabi ko‘rsatkichlar orqali ifodalanadi.

Innovatsion faoliyatning ijtimoiy samaradorligi aholi turmush darajasini aks ettiradi va chorvachilik tarmog‘ida band bo‘lganlarning ish haqlari darajasining oshib borishi, real daromadlar hamda yashash minimumlarining nisbati bilan aniqlanadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, innovatsion infratuzilmani rivojlantirish va samarali boshqarish natijasida mamlakatimizda innovatsion bilimlarga asoslangan yangi iqtisodiyot shakllantirilishiga olib keladi. Bu esa, albatta, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishda asos bo‘ladi.

Demak, mamlakatimizda innovatsion infratuzilmani rivojlantirish evaziga innovatsion salohiyatni shakllantirish va rivojlantirish, shuningdek, iqtisodiyotning raqobatbardoshligini yanada oshirish imkoniyatlari paydo bo‘ladi. U ayni paytda milliy iqtisodiyot taraqqiyotiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. “O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi” statistik to‘plam. –Toshkent. O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasi, 2005-2017 yy.
2. Артемова Е. Экономические аспекты инновационного развития животноводства (теория и практика): автореф. дисс. докт. экон. наук//Е.Артемова. – Краснодар, 2018. – 46 с.
3. Добровольский В.В. Актуальные проблемы и возможные перспективы развития животноводства в Украине с помощью инноваций.
4. Кузьмицкая А.А., Бабьяк М.А., Бабьяк Е.Е. Опыт инновационного развития животноводства в Брянской области//Вестник Брянской государственной сельскохозяйственной академии, 2021

DAVLAT RAHBARLARINING IMIJI

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Media va kommunikatsiya fakulteti talabasi
Umida Umarova*

Anotatsiya: ushbu maqola davlat rahbarlarining imijini shakllantirishda siyosiy PRning o'rni haqida.

Kalit so'zlar: siyosiy PR, imij, president, reklama, beshinchi hokimiyat, to'rtinchi hokimiyat, davlat, siyosat.

Bugungi kunda “axborotga egalik qilyotganlarga” jamiyat va davlatga egalik qila oladi. Siyosat esa hokimiyat uchun kurashni talab etadi. Axborot texnologiyalari har qanday sohaga kirib borayotgani kabi OAVning siyosatga aralashuvi Siyosiy PR tushunchasini yaratdi. Bu o'z navbatida hokimiyatni egallashga intilishni yana-da, oson va keng ko'lamli qilib qo'ydi. Davlat boshqaruvi prezidentlik respublikasi bo'lgan davlatlarda davlat rahbarlarining imiji saylovlar oldidan shakllantirib boriladi. Bu siyosiy reklama, debatlar, siyosiy so'rovnomalar, uchrashuvlar shaklida amalga oshirilishi mumkin. Garchi reklamalar ko'pchilikni zeriktirgan bo'lishiga qaramasdan Germaniyada chop etiladigan **“Spejel” jurnalida** allaqachon OAVdan keyingi **“beshinchi hokimiyat”** sifatida tan olib bo'lindi. **Reklama mutaxasisi Jak Sigelning** fikriga ko'ra “bugun reklama nafaqat savdo-sotiqni harakatga keltiruvchi kuch, balki siyosatni belgilovchi, ijtimoiy munosabatlarni shakllantiruvchi, hatto axloqiy meyorlarga ta'sir etuvchi qudratli kuchdir.” Shu bilan birga siyosiy reklama nomzodlar o'rtasidagi farqni bilishga katta yordam beradi. Shu sababli ham siyosiy reklama siyosiy raqobat bo'lgan joyda juda foydalidir. Misol uchun, aholining saylovga qatnashish istagini aniqlash bo'yicha **Rossiyada so'rovnoma** o'tkaziladi. Natijada, 37,5 % respondent qatnashish istagi borligini, 36% hali hal etmaganligini, 26,5% ishtirokchi saylovda qatnashmasligini aytgan. **Jerry Gendriksonning** fikriga ko'ra, jamiyatda doim 10% sizni (nima ish qilishingizdan qat'iy nazar) qo'llab-quvvatlovchilar bo'ladi. 70% betaraflar va qolgan 20% sizga qarshilar.¹ E'tiborni ko'proq betaraflarga qaratish kerak. Saylov jarayonlarida ham so'rovnomada ishtirok etgan 36% ni sizga xayrixoh sifatida kelishini istasangiz, siyosiy PRni kuchaytirish kerak. Mutaxassislar bejiz aytishmaydi: **“Haqiqiy siyosatchilar kabinetlarida emas, siyosiy imijmakerlarning laboratoriyalarida yaraladi.”** Nomzodning imijini oshirishda nafaqat journalist yoki PRmenlar balki, raqobatchilar ham ishtirok etadi. Chunki, yuqorida ta'kidlanganidek siyosiy PR jarayonida saylovchilar qaysi nomzodning ustunroq ekanligini aniqlab oladilar.

Bu turli shakllarda amalga oshirilishi mumkin, masalan, debatlar AQSHda 80-yillarga kelib president saylovlarining hal qiluvchi ajralmas tadbiriga aylanadi. Amerikaning 40-prezidenti **Ronald Vilson Reygen**: “Debatda qatnashib kechirilmas xatoga yo’l qo’yish, debatlarda umuman qatnashmaslikdan ko’ra yaxshiroq, negaki xatolaring uchun ma’lum saylovchilar ovozidan mahrum bo’lsang, qatnashmaganliging oqibatida hammasidan ayrilasan.” – deb ta’kidlaydi.²

Ba’zan esa davlat rahbarlarining xalqqa qilgan murojaati, nutqlari orqali ularning imijini shakllantirishi yoki buning aksi ham bo’lishi mumkin. Quyida buning bir nechta misollarini ko’rib chiqamiz³:

“XXI asr sari yo’l” – 1996-yilda Bill Klinton respublikachilar partiyasidan chiqqan raqibi Bob Doulning fikriga qarshi shaklda shu iborani ta’kidlaydi. Natijada ko’pchilikning ovozigga ega bo’ladi. Ya’ni Bob Doul Amerikaning eski ko’chalariga yo’l qurmoqchiligini, Klinton esa AQSHning yorqin kelajagi sari yo’l qurush niyatida ekanligini aytgan.

“Avtomobilni boshqarishda ham, davlatni boshqarishda ham so’zsiz tajriba kerak.” 1997-yilning dekabr oyidagi Litvadagi saylovga o’z nomzodini qo’ygan Landebergis aynan mana shu shior bilan chiqadi. Lekin o’zi avtohalokatga uchraydi. Raqiblar esa bu jumlaning nomzodning o’ziga qarshi qo’llashadi.

Franklin Ruzvelt “Baxtli kunlar qaytib keldi” Shiori bilan “Haqiqatgo’y, qudratli, qo’rqmas” shiori bilan chiqqan raqibi El Smitni mag’lub etadi. Chunki, El Smitning shioridagi “Qo’rqmas” so’zi omma tomonidan “Xalqdan qo’rqmas” ma’nosida qabul qilinadi.

Saylov oldi targ’ibotlarda **“Yangi soliqlar bo’lmaydi, va’da beraman”** Shiori bilan g’alaba qozongan Katta Bush kelasi saylovda va’dasini bajarmaganligi uchun yutqazadi. Bundan ko’rinib turibdiki, xalq aytilgan har bir fikrni inobatga oladi.

BBC uzbekning you tubedagi 2021-yil 25-sentabrda joylagan videosida⁴ Shavkat Mirziyoyev O’zLiDeP vakillari bilan uchrashuvda aytib o’tgan hikoyasi bor. Ushbu video shu kunga qadar 23mingta layk yig’gan va 2 milion 811ming 915ta “ko’rishlar” soniga erishgan. Unda Prezidentimiz Mirzo Ulug’bek tumani hokimi lavozimida turgan vaqtida, Eron Prezidenti Mirzo Ulug’bek haykaliga gul qo’yish uchun tashrif buyurishi rejalashtirilgan kuni haykalning boshini olib qo’yishgani haqida hikoya qilib beradi. Va so’zining yakunida “Bu kunlarga yetib kelish oson emas” deb ta’kidlaydi. Va bu ko’plab ijobiy kommentariyalarga erishadi. Bu kabi PR texnologiyasi Self PR deb atalib, bunda obraz tomonidan o’z hayoti, karyerasi haqida aytilgan ommaning achinishiga, e’tirofiga va olqishiga sabab bo’ladigan, umuman jamoatchilikni o’ziga tortadigan nutqlar faol

hisoblanadi. O'z navbatida bunday texnologiya davlat rahbarining fidokorona hayot yo'lini ko'rsatish orqali, "g'amxo'r va fidokor" president obrazini yaratadi.

Mutaxassislar turli kanallarda uzatiladigan **axborotni omma tomonidan qabul qilinishi ustida tajriba** olib borishdi va quyidagi natijalarga erishishdi: odamlar o'qiganlarining taxminan 10%ini, eshitganlarining 20%ini, ko'rganlarining 30%ini, ko'rgan-eshitganlarining 50%ini, o'zlari gapirib berganlarining 70%ini va o'zlari amalda bajarganlarining 90%ini eslab qoladilar. Bundan ko'rish mumkinki, siyosiy PRni amalga oshirish jarayoniga televideniya katta ta'sir ko'rsatadi. Umuman, OAVning xabar berish funksiyasini inobatga olib aytadigan bo'lsak, bugungi kunda davlat rahbarlarining imiji jamoatchilik bilan aloqalarda shakllanadi yoki unga putur yetishi ham mumkin. Bunga ham bir nechta misollarni ko'rib o'tamiz:

Amerikaning 37-prezidenti **Richard Nikson** – prezidentlik faoliyatiga kirishgan kunining o'zidayoq "Aloqa idorasi" deb nomlangan jurnalistlardan iborat guruh tuzadi⁵. Fox News asoschisi bo'lgan Rojer Eylsni o'zining matbuot kotibi va imijmakeri deb ta'yinlaydi. Buning natijasida uning boshqaruvida jamoatchilik bilan aloqalar yuqori natijaga ko'tariladi.

Bill Klinton esa maxfiylikka moyil edi⁶. U o'z prezidentlik davrida jamoatchilik bilan aloqalar xizmatini tarqatib yuboradi. Jurnalistlarga intervyu berishdan bosh tortadi. Natijada, jurnalistlar bilan Klinton o'rtasida nizo kelib chiqadi va u keyingi saylovda yutqazadi.

Germaniya kansleri Gelmut Kolning PR mutaxasislari uning tashqi ko'rinishi, kiyimi, shevasini o'zgartirishadi. Natijada, uning xayrixohlari 57%ni, raqobatchisi Rudolf Sharping esa 47% ovozni qo'lga kiritadi.


Jon Meyjor Britaniyaning primerministri dastlab xalq uni qanday bo'lsa, shunday qabul qilishini istaydi, biroq uning birinchi nutqidan keyin barcha gazetalar nima deganini emas, qanday ko'ringanini muhokama qila boshlaydi. Va u fikridan qaytadi.

Xulosa qilish mumkinki, prezidentlarning imiji faqatgina ularning boshqaruvida emas, ana shu boshqaruvni qanday ko'rsatib bera olishi, o'zining tashqi imijini qanday yaratishi bilan bog'liq. Va bu borada hech narsani e'tibordan chetda qoldirmaslik kerak. Shu o'rinda "xalq o'zi tanlagan hukmdorga loyiqdir" iborasini "**xalq o'z ongiga ta'sir qilishning qo'llaniladigan usullariga loyiqdir**" kabi so'zlar bilan aniqlik kiritishimiz mumkin. "Dunyo aldanishni istaydi, aldanib qolsin".

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Zamonaviy media muhitda PR xizmatlari"
2. O'sha manbaa
3. O'sha manbaa

4. <https://www.youtube.com/watch?v=0oIVi17xFpY>
5. <https://www.google.com/>
6. <https://www.clintonlibrary.gov/research/clinton-biographies>



**DARS JARAYONIDA “BLITS-SO’ROV” TEXNOLOGIYASINING
QO’LLANILISHI**

Qo’qon davlat pedagogika instituti tarix fakulteti

3-bosqich talabasi

Kimsanboev Raxmonjon

Mazkur maqolada ta’lim jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanishning samarali jihatlari va ta’lim sifatini oshirishdagi ahamiyati haqida aytiladi. Shuningdek maqolada ayrim texnologiyalarning foydalanish usullari bo’yicha tavsiyalar beriladi. Jumladan, Dars jarayonida “Blits-so’rov” texnologiyasining qo’llanilishi bo’yicha aniq tavsiyalar berilgan.

Kalit so’zlar: ta’lim, tarbiya, o’quv, jarayon, texnologiya, pedagog, pedagogik, usul, metod.

Bugungi kunda barkamol shaxsni tarbiyalash, respublikamizda kadrlar tayyorlash tizimini zamonaviy texnologiyalar asosida uzliksizligini taminlash, uning mazmunini takomillashtirish, ota-onalar, talaba va o’qituvchilarda ta’lim va tarbiya jarayoniga bo’lgan munosabatlar barqarorlik asosida “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ga binaon bosqichma – bosqich amalga oshirilmoqda. Ushbu dasturning “Uzliksiz talimni tashkil etish va rivojlantirish prinsiplari” qismida "ta’limning ijtimoiylashuvi – ta’lim oluvchilar estetik boy dunyoqarashni hosil qilish, ularda yuksak ma’naviy va ijodiy fikirlashni shakllantirish” zarurati alohida qayt qilindi. “Barkamol avlod”, mustahkam oila davlat dasturlarini amalga oshirishda ilg’or inavatsion va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan barqaror ravishda foydalanish raqobatbardosh yuksak malakali kadrlarni tayyorlash yaqqol sezilmoqda. Pedagogik texnologiya-shunday bo’limlar sohasiki, ular yordamida 3-ming yillikda davlatimiz ta’lim sohasida tub burilishlar yuz beradi, o’qituvchi faoliyati yangilanadi, o’quvchilarda xurfikrlik, bilimga chanqoqlik, vatanga mehr-muhabbat, insonparvarlik tuyg’ulari tizimli ravishda shakllantiriladi. Bundan tashqari pedagogik texnologiya–ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish maqsadida o’qitish va bilimlarni o’zlashtirish jarayonida o’qituvchining pedagogik va o’quvchining o’quv-bilish faoliyatini uyg’un ravishda tashkil etish, mazkur faoliyatni faollashtirish maqsadida, samarali o’qitish metodlari, vositalari 25 va shakllarini qo’llash, ularning o’zaro ta’sirini aniqlashga imkon beradigan tizimlar majmuasidir. Hozir ta’lim-tarbiya sohasida rivojlanib borayotgan yo’nalishlardan biri–zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o’quv jarayonida qo’llash bo’lib, uni amalga oshirish dolzarb vazifalardandir. Ma’lumki, ta’lim-tarbiya jarayoni katta avlod tamonidan o’z bilim va tajribalarini o’sib kelayotgan avlodga o’rgatishdan

iborat bo'lib, bu jarayonda asosan, inson hayoti uchun zarur axborotlarni avloddan-avlodga uzatish amalga oshiriladi. Pedagogik texnologiya ta'lim-tarbiya jarayoni sifatida ishtirokchilarning faoliyatlari orqali amalga oshiriladi. Bu jarayonning pirovard maqsadi barkamol insonni shakllantirish va rivojlantirish bo'lib, asosan quyidagilardan tarkib topadi: - ta'lim-tarbiya berish; - axborotlarni avloddan-avlodga uzatish; - mustaqil fikrlashga o'rgatish; - bilim, ko'nikma, malakalarni o'rgatish va o'zlashtirilishiga erishish; - turli metodlarni qo'llash va takomillashtirish; - ta'lim-tarbiya jarayonida insonparvarlik, halqparvarlik, mafkuraviy tamoyillarga asoslanish; o'quvchining tayyorgarlik darajasini, fiziologik, yosh xususiyatlarini, gigiyenik talablarni hisobga olish. Pedagogik texnologiya o'quv jarayoni(ya'ni o'qituvchining, o'quvchining faoliyati bilan), uning tarkibi, vositalari, usullari va shakllari bilan eng ko'p darajada bog'langan. Hammamizga ma'lumki, inson hamma sohada biror maqsadga erishish uchun, o'ziga ma'qul bo'lgan yo'l, usul, vositalardan foydalanib, zarur faoliyatni amalga oshiradi. Demak, avval maqsad paydo bo'lsa, keyin shunga muvofiq, mavjud imkoniyatlarga suyanan holdagi faoliyat kelib chiqadi. Yurtimizda yoshlarni o'qitishda, bilim berishda, shuningdek, o'rganayotgan ilmini mustahkamlash maqsadida yangi-yangi pedagogik texnologiyalardan, interfaol metodlardan foydalangan holda olib borilmoqda. Bugungi kunda bir qator zamonaviy tizimdan unumli foydalanib, o'qituvchilar tomonidan dars jarayonida foydalanib kelmoqda. Masalan, dars jarayonida mavzuni o'quvchi-talabalarga tushuntirishda "FSMU", "Bumerang", "Tarmoqlar", "Blits-so'rov", "Nilufargul", "B/BX/B", "SWOT" va boshqa shu kabi pedagogik texnologiyalardan foydalanmoqda. Shuningdek, "U kim? Bu nima?", "Noto'g'ri jumla", "Zanjir", "Meni tushun", "Jonli hikoya" va boshqa metodlardan foydalanib o'qituvchilar tomonidan mavzularni o'quvchilarda mustahkam qolishida unumli foydalanib kelmoqda. Bularning orasida "Blits-o'yin" texnologiyasi ham alohida ahamiyatga ega. Ushbu texnologiya o'quvchi-talabalarda mavzuni mustahkamlashda qo'llaniladi. Bundan tashqari, o'quvchi-talabalarni harakatlar ketma-ketligini to'g'ri tashkil etishga, mantiqiy fikrlashga, o'rganayotgan predmet asosida ko'p xilma-xil fikrlardan, ma'lumotlardan kerakligini tanlab olishni o'rgatishga qaratilgan. Shuningdek, o'quvchi-talabalar bu texnologiyalar orqali mustaqil fikrlarini bayon qila oladi, chunki bu texnologiya shunga to'liq sharoit yaratib beradi. Texnologiya quyidagi ko'rinishda bo'ladi. Bunda 5 tadan ko'proq mavzuga oid savollar, muommolar beriladi. Bundan tashqari, tarix, etnologiya, adabiyot kabi fanlardagi tarixiy atamalarga, shaxslarga berilgan ta'riflarda ham qo'llanilishi mumkin. Bu texnologiya quyidagi ko'rinishda berishni lozim deb topdik:

	Savollar va masalalar	Yakka javob	Guru h javob	To'g'ri javob	Yakka xato	Guruh xato	Chalkashtirilgan To'g'ri javob
	Yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiquvchi... {1.144-bet}						Uzluksiz ta'lim
	Malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo'lib, ta'limning barcha turlarini, davlat ta'lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko'rsatish muhitini o'z ichiga oladi... {2.144-bet}						Akademik litsey
	O'quvchilarning qiziqishlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda ularning jadal intellektual rivojlanishini, chuqurlashtirilgan, ixtisoslashtirilgan						Kasb-hunar kollejlari

holda o'qitishni ta'minlaydi... {3.154-bet}							
Mutaxassisliklar yo'nalishi bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, ta'lim olish muddati kamida to'rt yil davom etadigan tayanch oily ta'limidir... {4.163-bet}							Fan
O'quvchilarning kasb-hunarga moyilligini, layoqatlarini, bilim va ko'nikmalarini chuqur rivojlantirish, ularning tanlagan yo'nalishlari bo'yicha bir yoki bir necha zamonaviy kasb egallash imkonini beradi... {5.155-bet}							Bakalavriat

Ushbu texnologiyani O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan ta'lim jarayonlardagi atamalarga bergan ta'riflarda ko'rsatishga harakat qildik.

Izoh: Ushbu texnologiyaning birinchi qismida savollar, muommolar, har xil mavzularga doir masalalar beriladi va so'nggi qismida esa savollarning chalkashtirilgan to'g'ri javoblar keltiriladi. Shu holatda o'qituvchi o'quvchi-talabalarga tarqatadi va o'quvchilar yakka holda o'zlarining yakka javoblarini beradi hamda bu javoblarni berishlari uchun o'quvchilarga 10 daqiqa beriladi. So'ng o'qituvchi tomonidan o'quvchi-talabalar kichik guruhlariga bo'linadi va uchinchi qismi-guruh javobi degan kataklarni to'ldiradi. Guruh javoblarni fikrlab javob belgilashlari uchun 20 daqiqa beriladi. To'rtinchi qismida

o'qituvchi tomonidan to'g'ri javoblar belgilanadi. Shu to'g'ri javobga asoslanib, "Yakka javob" dagi xatolarni tahlil qilinib, beshinchi qismga yoziladi. Oltinchi qismida esa "Guruh xatosi" ham to'g'ri javoblardan aniqlanib, tahlil qilinadi va yoziladi. Javoblar tahlil qilingandan so'ng, o'qituvchi o'quvchi-talabalarda mavzuni mustahkam qolganligini tekshirib, ularning to'g'ri javoblariga qarab baholaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov.I.A. "Barkamol avlod orzusi". "Sharq".:T-1999.
2. G'afforov T "Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar" "Tafakkur".:T-2011.
3. Boltaboyev, M., & Abdurakhimova, S. (2023, June). THE GENERAL CONDITION OF THE CRIMEAN TATARS RESETTLED IN UZBEKISTAN AND THEIR ACTIVITIES IN THE NATIONAL ECONOMY. In International Conference On Higher Education Teaching (Vol. 1, No. 5, pp. 87-90).
4. Salmonov, A., & Boltaboev, M. (2021, August). THE CONSEQUENCES OF THE SOVIET GOVERNMENT'S VIOLENT POLICY TOWARDS NON-MUSLIMS IN UZBEKISTAN: <https://doi.org/10.47100/conferences.v1i1.1251>. In RESEARCH SUPPORT CENTER CONFERENCES (No. 18.05).
5. Salmonov, A., & Boltaboev, M. (2021, June). THE CONSEQUENCES OF THE SOVIET GOVERNMENT'S VIOLENT POLICY TOWARDS NON-MUSLIMS IN UZBEKISTAN. In Конференции.
6. Boltaboyev, M. (2021). Aggravation of the soviet government's attitude towards clergy and religious institutions in the turkestan autonomous soviet socialist republic. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 11(11), 59-65.
7. Boltaboyev, M. (2020). HISTORY OF RELIGIOUS CONFESSIONAL POLITICS IN THE SOVIET PERIOD. Theoretical & Applied Science, (6), 668-671.
8. Болтабоев, М. (2022). Религиозные реформы, проведенные при соляном режиме. Актуальные проблемы истории Узбекистана, 1(1), 455-461.
9. Комилов, А., & Болтабоев, М. (2022). ЎЗБЕКИСТОН–УМУМИЙ УЙИМИЗ. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 2(3), 141-148.
10. Болтабоев, М. (2023). СОВЕТ ХУКУМАТИНИНГ МАДРАСАЛАРГА БЎЛГАН МУНОСАБАТИ ТАРИХИ. IJTIMOIIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(3), 115-119.
11. Ibragimovna, R. S. (2020). REFORMS IN THE FIELD OF MEDICINE IN UZBEKISTAN DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE. Medical care, 24(46), 73-7. Khmatullaeva, S. I. (2020). HEALTH ISSUES IN UZBEKISTAN. In OBshchestvennye Nauki v Sovremennom Mire: POLITOLOGY, SOCIOLOGY, PHILOSOPHY, HISTORY (pp. 103-107)
12. Temirova Mashhura Muhammadaminovna (2022). SOME CONSIDERATIONS ON THE DEVELOPMENT OF THE LIBRARY IN THE BODIES OF INTERNAL AFFAIRS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

**QO'QON SHAHRINING ARXEOLOGIK YODGORLIKLARI VA ULARNI
O'QITISH JARAYONIGA INNOVATSIYA QILISH MASALALARI*****Kimsanboyev Raxmonjon Valizoda****Qo'qon davlat pedagogika insituti talabasi***Annotatsiya**

Mazkur maqolada Qo'qon shahrining arxeologik yodgorliklari va ularning arxetekturasi to'g'risida aytiladi. Shuningdek maqolada mazkur arxeologik yodgorliklarning tarixi va ularning kimlar tomonidan nima maqsadda qurilganligi to'grisidagi nazariy ma'lumotlarni o'qitish usullari to'g'risida ham aytiladi.

Kalit so'zlar: arxeologik, majmua, masjid, madrasa, maqbara, madaniy yodgorlik, YuNYeSKO, Rapqonmozor qabristoni, antropologik yodgorlik

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentimiz I. A. Karimov ta'kidlaganlaridek "Farg'ona nafaqat O'zbekistonning balki, butun Markaziy Osiyoning gavharidir". Darhaqiqat, bizning go'zal diyorumiz nafaqat SHarq, balki jahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo'lganini xalqaro jamoatchilik tan olmoqda va e'tirof etmoqda. Bu tabarruk zamindan ne-ne buyuk zotlar, olim-u ulamolar, siyosatchi va sarkardalar yetishib chiqqani, umumbashariy tsivilizatsiya va madaniyatning uzviy qismiga aylanib ketgan dunyoviy va diniy ilmlarning, ayniqsa, islom dini bilan bog'liq bilimlarning tarixan eng yuqori bosqichga ko'tarilishida ona yurtimizda tug'ilib, kamolga yetgan ulug' allomalarning xizmatlari beqiyos ekani bizga ulkan g'urur va iftixor bag'ishlaydi. Muhtaram prezidentimizning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarlarida ona Vatanimiz O'zbekiston haqida bildirgan quyidagi fikrlari bejiz emas, ya'ni "bu ko'hna tuproqda milodgacha bo'lgan davrda va undan keyin qurilgan murakkab suv inshootlari, hali hanuz o'zining ko'rk-u tarovatini saqlab kelayotgan osori atiqalarimiz qadim-qadimdan o'lkamizda dehqonchilik va hunarmandchilik madaniyati, me'morchilik va shaharsozlik san'ati yuksak darajada rivojlanganidan dalolat beradi. Mamlakatimiz hududida mavjud bo'lgan to'rt mingdan ziyod moddiy-ma'naviy obida umumjahon merosining namunasi sifatida YuNYeSKO ro'yxatiga kiritilgani ham bu fikrni tasdiqlaydi".

Shu o'rinda Qo'qon shahrining arxeologik yodgorliklari xususida ozgina to'xtalib o'tsak. Qo'qon qadimdan Farg'ona vodiysining iqtisodiy va madaniy markazlaridan biri. Farg'ona vodiysi esa Markaziy Osiyoning yirik sug'orma dehqonchilik markazlaridan hisoblanadi. Qadimda mazkur hududda turli xo'jalik shakllarining o'zaro ta'siri va aloqalari bo'lsada, Farg'onaning miloddan avvalgi VI milodiy II asrigacha bo'lgan tarixi bo'yicha yozma yodgorliklar yetarli bo'lmaganligi sababli, bo'lib o'tgan tarixiy jarayonlarni asosan, arxeologik manbalar asosida

o'rganiladi. Qo'qon va atrof tumanlarining tarixini arxeologik jihatdan o'rganilishi XX asrning 70-yillari o'rtalaridan boshlandi. SHu davrda N. G. Gorbunova rahbarligida Farg'ona viloyatidagi bir qator yodgorliklar bilan birgalikda yuqoridagi joylarda ham tadqiqot ishlari olib borildi. Miloddan avvalgi I ming yillikka tegishli bo'lgan Farg'ona viloyatining janubiy-g'arbiy hududidan topilgan Rapqonmozor va Tagob qabristoni shular jumlasidandir.

Rapqonmozor qabristoni I ming yillikning birinchi yarmiga mansub bo'lib, qabrlar qo'rg'on ko'rinishida bo'lgan. Tadqiqot davomida 30-45 yoshlardagi erkaklarga, 20-30 yoshli ayollarga tegishli bo'lgan antropologik ashyolar topildi. Bu yerdan o'ndan ortiq qabrlardan topilgan ashyolarning asosiy qismi yevropoid irqiga mansub kishilarga tegishli ekanligi aniqlandi. SHuningdek, mazkur davrga oid bo'lgan antropologik materiallar hozirgi O'zbekiston tumaniga qarashli Tagob qishlog'i hududidan ham topib o'rganilgan.

Mustaqillik yillarida Farg'ona tarixining turli davrlarini, jumladan qadimgi davr tarixini yangicha talqin qilish borasida bir qator salmoqli ishlar amalga oshirildi. Bu ezgu ishlar ko'лами ayniqsa, muhtaram yurtboshimizning Qo'qon shahriga qilgan tashriflaridan so'ng yanada kengaydi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga muvofiq Qo'qon shahrining yoshini aniqlash maqsadida bir qator hududlarda arxeologik tadqiqot ishlari olib borildi. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Samarqand Arxeologiya Instituti ilmiy xodimlari bilan birgalikda Qo'qon DPI Tarix fakulteti talabalari ham qazish ishlarida faol ishtirok etishdi.

Dastlabki qazishma ishlarida, Tepaqo'rg'on yodgorligining 45 m² maydoni o'rganildi va natijada bu joydan ilk o'rta asrlar (V-VII asrlar)ga oid devorlar va ularga tutash xonalar, yo'laklar ochildi. Keyingi qazishmalar davomida devorlarning strukturasi to'liq o'rganilib, ular qadimgi binokorlar tomonidan mahalliy hududning o'ziga xos iqlim sharoitlarini hamda seysmologik holatini hisobga olgan holda bunyod etilganligi ma'lum bo'ldi. Ushbu devorlarning fundament qismi 20 santimetrlik pishirilgan loy bilan qotirilgan va uning orasiga devorning uzunasi bo'ylab har 23 sm oraliqda yog'och qo'yilgan. Bu holat devorlarni bir-biriga yanada mustahkam bog'lash va ularning zilzilalarga chidamliligini kuchaytirish maqsadida amalga oshirilgan.

Ishlar so'ngida esa Tepaqo'rg'onda amalga oshirilgan qazishmalar 150 m² maydonni qamrab oldi. Qazishma ishlari yer sathidan 9,5 metr chuqurlikkacha olib borildi va qator qiziqarli ma'lumotlar qo'lga kiritildi. Xususan, yuqorida qayd etilgan devorlar va xonalar tagidan yanada qadimiy davrlarga, aniqrog'i eramizning boshlariga (I asr) oid xonalar, maishiy o'choqlar hamda sopol pishirish xumdonlarining qoldiqlari topildi. Huddi shunday xonalardan biri yer sathidan 7 metr chuqurlikda qayd etilib, xona devorlari xom g'isht va loydan bunyod etilgan. Ushbu xonaning poli ham loy bilan suvalgan bo'lib, uning markazida tuxumsimon shakldagi o'choq joylashgan. Xonaning ichkarisidan eramizning boshlariga oid yuzasiga qizil angob (rang) berilgan,

turli xil maishiy sopol idishlar, qozon siniqlari, xumlar hamda xonaki hayvonlarning suyak qoldiqlari topildi. Qo'lga kiritilgan sopol idishlar qoldiqlari o'zining bejirim naqshinkorligi va nafisligi bilan kishini hayratga soladi. Asosan, kulolchilik charxida yasalgan bunday idishlar ishlanish texnikasi va tipologik xususiyatlariga ko'ra shaharlik usta-hunarmandlarlar tomonidan ishlanganligi ko'zga tashlanadi. Bundan tashqari, qadimgi shahar madaniyati hunarmandchiligiga xos temir va misdan ishlangan buyumlar, urchuqboshlar, hamda tegirmon toshlar qoldiqlari ham qo'lga kiritildi.

So'nggi qazishma ishlari Tepaqo'rg'on yodgorligining shimoliy-g'arbiy tomonida, shartli ravishda "arki-a'lo" deb nomlangan qismida ham olib borildi. Natijada mudofaa devorining qoldiqlari aniqlandi. Ushbu devor mahalliy rel'efdan kelib chiqib qurilgan bo'lib, uning burilish qismida diametri 3,5 metrga yetadigan paxsa burj yordamida mustakamlanganligi aniqlandi.

Xulosalarga ko'ra, milodiy eramizning boshlarida urbanizatsiyalashgan qarorgoh negizida hozirgi Tepaqo'rg'on yodgorligi o'rnida qadimgi shahar shakllangan bo'lib, u uzluksiz ravishda ilk o'rta asrlarga qadar rivojlanib kelgan. Keyinchalik, arablar bosqini arafasida shahar Tepaqo'rg'ondan boshqa joyga ko'chganligi kuzatiladi. Arxeologik tadqiqot natijalari Farg'ona vodiysida, xususan Qo'qon hududida shaharsozlik madaniyatining rivojlanish jarayonlarining asosiy jihatlarini ko'rsatib beradi, deb hisoblash mumkin.

Ushbu muxtasar maqolamizda Farg'ona viloyatining janubi-g'arbiy yerlaridan topilgan yodgorliklarga e'tibor qaratildi. Tarix fani o'qituvchilari mazkur manbalardan o'qitish jarayonida foydalansalar ona Vatanimiz tarixining kam o'rganilgan sahifalari haqida yosh avlod ongida muayyan bilim va malaka, ko'nikmalarni hosil qiladi deb hisoblaymiz. Farg'ona viloyati hududidan topib o'rganilgan arxeologik va antropologik yodgorliklarni o'rganish, ularni tarix fanlarini o'qitish jarayoniga joriy qilish yoshlarimizda milliy g'urur, milliy iftixor, Vatanga muhabbat ruhini tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi deb hisoblaymiz.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, bunday o'lmas osori atiqalar bu ko'hna o'lkada, bugun biz yashab turgan tuproqda qadimdan buyuk madaniyat mavjud bo'lganidan guvohlik beradi. Va yana bir bor shuni ta'kidlab o'tamizki, Vatanimiz hududidagi buyuk madaniyat biz va kelajak avlodlar uchun ulkan iftixor va faxr bo'libgina qolmay, balki yangi-yangi ilmiy izlanishlar uchun turtki bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro'yhati

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – 2017. - №6(766). – Б.27.

2. Миллий оммавий ахборот воситалари, нашриётлар ҳамда матбаа соҳасининг ривожланиш тенденциялари ва истиқболлари тўғрисида матбуот анжумани пресс – релизи // http://www.api.uz/img/struct/63/31.01.2017_press-reliz.pdf
3. Исоқов А. Кўрсатув ва эшиттиришлар савиясини ошириш йўлида // Ўзбекистон матбуоти. – 1998. - №1. – Б.20-23.
4. Қамбаров М. Радиога нега эътибор кам? // Ўзбекистон матбуоти. – 1994. - №3. – Б.43.
5. Эгамназаров А. Манзиллар турли, муаммолар бир // Ўзбекистон матбуоти. – 1992. - №11-12. – Б.32-33.
6. Ibragimovna, R. S. (2020). REFORMS IN THE FIELD OF MEDICINE IN UZBEKISTAN DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE. Medical care, 24(46), 73-7.
7. Рахматуллаева, С. И. (2020). ЎЗБЕКИСТОНДА САЛОМАТЛИК МАСАЛАЛАРИ. In ОБЩЕСТВЕННЫЕ НАУКИ В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ: ПОЛИТОЛОГИЯ, СОЦИОЛОГИЯ, ФИЛОСОФИЯ, ИСТОРИЯ (pp. 103-107).
8. Temirova Mashhura Muhammadaminovna (2022). O'ZBEKISTON RESPULIKASI ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA KITOBXONLIKNI RIVOJLANTIRISHGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR (Farg'ona viloyati IIV misolida). Research Focus, (Special issue 1), 52-55.
9. Темирова, М. М. (2020). НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ СОЗДАНИЯ И ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ТАШКЕНТСКОЙ РАДИОСТАНЦИИ (1926-1930 гг.). In Культура и гуманитарные науки в современном мире (pp. 110-116).
10. Темирова, М. М. (2020). СОВЕТ ХУКУМАТИ ДАВРИДА РАДИОНИНГ КОММУНИСТИК МАФКУРА ТАРҒИБОТИ ВОСИТАСИГА АЙЛАНТИРИЛИШИ. ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ, 3(2).
- 11.17. Темирова, М. М. (2016). Қўқон хонлигининг савдо алоқалари (Шарқий Туркистон мисолида). Молодой ученый, (3-1), 4-5.
12. ТЕМИРОВА, М. HISTORY OF RADIOFICATION INFRASTRUCTURE IN UZBEKISTAN. UNIVERSITETI XABARLARI, 2019,[1/1] ISSN 2181-7324.

MA'NAVIYATDA MILLIYLIK VA UMUMINSONIYLIK

Kimsanboyev Raxmonjon Valizoda*Qo'qon davlat pedagogika insituti talabasi***Annotatsiya**

Mazkur maqolada ma'naviyat tushunchasi ilmiy asosda tahlil etiladi. Ma'naviyatda milliylik va umuminsoniylik tushunchalari va ularning qanday bo'lishligi to'g'risidagi fikrlar aytiladi.

Kalit so'zlar: *ma'naviyat, ma'rifat, milliylik, umuminsoniylik, qadr-qimmat, urf-odat, anana, sharq va garb ma'naviyati, millat, xalq.*

«Millat» so'zi «o'zak», «tub mohiyat», «negiz» degan ma'noni bildiradi. «Millat» so'zi arab tilida quyidagi uch ma'noni anglatadi: birinchi - din, mazhab; ikkinchi - ummat; uchinchi - xalq, qavm. Yevropa adabiyotida qo'llaniladigan «natsiya» so'zi esa qabila, xalq degan ma'noni bildiradi.

Binobarin, bu ikki tushunchada ham asosan muayyan etnik birliklarning o'ziga xosligini bildiruvchi ma'no yotadi.

Oldingi ma'ruzalarda ta'kidlanganidek, insonlar, jamiyat rivojlanib borgan sari ma'naviy munosabat, aloqalar rivojlanib boraveradi va ular jamiyat taraqqiyotida katta rol o'ynab kelgan.

Ma'naviyatni uch guruhga bo'lish mumkin:

Birinchisi - milliy ma'naviyat, ikkinchisi - mintaqaviy ma'naviyat, uchinchisi - umuminsoniy ma'naviyat.

Milliy ma'naviyat - muayyan elat, millatga, uning ajdodlariga xos bo'lgan g'oyat qimmatli ma'naviy boyliklardir.

Mintaqaviy (regional) ma'naviyat - muayyan jug'rofiy mintaqa millatlariga xos, ular uchun umumiy bo'lgan ma'naviy boyliklardir. Masalan, O'rta Osiyo xalqlarining ma'naviyatidagi; yoki yanada kengroq doirada oladigan bo'lsak, SHarq va Farb ma'naviyatidagi mushtaraklik, o'xshashlikni olishimiz mumkin.

Mintaqaviy ma'naviyatda turli elatlarning umumiy birligi, bir-biriga yaqinligi, turmush tarzi va moddiy hayot sharoitlariga xos mushtarak jihatlar namoyon bo'ladi.

Umuminsoniy ma'naviyat - butun insoniyatga, jahon xalqlariga tegishli bo'lgan ma'naviy-axloqiy boyliklardir.

Milliy ma'naviyat - boshqa millat ma'naviyatidan tubdan farq qilinadigan ma'naviyat degani emas. Chunki bizdagi milliy ma'naviyat boshqa xalqlarda muayyan tarzda bor, mavjuddir. Ammo milliy ma'naviyatda boshqa xalqlarning ma'naviyati aynan takrorlanmaydi. SHunday bo'lganda edi milliy ma'naviyat bo'lmas edi va biz bu haqda so'zlamas ham edik.

Milliy ma'naviyat, avvalo tarixiy hodisa ekanligi bilan ajralib turadi. U bir kunda, bir yilda, balki bir asrda ham mukammal shakllanmaydi. Milliy ma'naviyat tarixi millatning ma'naviy takomil jarayoni bilan bog'liq. Unda ba'zan asrlar kunlarga va aksincha, kunlar asrlarga teng bo'lishi mumkin. Milliy ma'naviy kamolot zamonda, ya'ni millatning butun tarixi davomida yuz beradi. Bunda esa u ba'zan shiddat bilan yuksalib borsa, ba'zan esa ma'lum darajada tanazzulga yuz tutishi ham mumkin. Insoniyat tarixiy jarayoni uchun bir narsa ayonki, tarix hodisalari, shaxslar, voqealar o'tib ketadi, moddiy madaniyat unsurlari yemiriladi, ammo ma'naviyat yuksalib, boyib, tobora kengroq ko'lam va teranroq mazmun kasb etib boraveradi. Millatning aksariyat qismi ma'naviy tanazzulga yuz tutgan fojiaiy sharoitlarda ham milliy ma'naviyat yo'qolmaydi, ko'lam va mazmuni jihatdan o'zi yetishgan kamolot bosqichini yo'qotmaydi. Milliy ma'naviyat erishgan kamolot bosqichini yo'qotish uchun (shu jumladan, umuman milliy ma'naviyatni ham) ajdodlar yaratgan barcha ma'naviy merosni mahv etish, insonlar xotirasini tamomila o'chirib tashlash, ulardan hatto irsiy xotirani ham barbod qilib - manqurtga aylantirish kerak bo'ladi.

Millat mavjud ekan, milliy ma'naviyat bo'ladi. Milliy ma'naviyatni yo'qotish mumkin emas. Milliy ma'naviyatni yo'qotish uchun qanchalik harakat qilinsa, shunchalik milliylikni, milliy ma'naviyatni saqlash uchun kurash kuchayadi.

Xulosa shuki, inson qalbidagi milliylikni yo'qotish mumkin emas. Ko'rinadiki, milliy ma'naviyat hodisasi ham tarixiy, ham bugungi kunda mavjudligini saqlab turgan ko'p o'lchamli voqe'likdir. Inson ma'naviy olami o'lchamlari cheksiz bo'lib, uni hech bir narsa bilan o'lchash, qiyoslash mumkin emas. Milliy ma'naviyat avvalo milliy ongda rivojlanishi bilan xarakterlanadi. SHuning uchun ham mustaqillikka erishganimizdan buyon milliy ongni rivojlantirishni tarbiyaviy ishning muhim bo'g'imi sifatida olib qaramoqdamiz. Milliy ongning rivojlanishi pirovard milliy o'zlikni anglash sari yetaklaydi.

Milliy ma'naviyatning asosiy belgi va o'zagi - milliy axloq sanaladi. Bizning milliy axloqimizdagi belgilar boshqa xalqlar axloqiy qarashlarida muayyan tarzda namoyon bo'ladi.

Milliy ma'naviyatda - milliy his, tuyg'u, ruhiyat ham muhim o'rin egallaydi. CHunonchi, zamona taqozosi bilan boshqa yurtga safarga borgudek bo'lsak va o'sha yerda milliy kuy, qo'shiqni eshitgudek bo'lsak, bizning vujudimizni ajib bir his, tuyg'u qamrab oladi va undan ruhiy huzur olamiz, qanoat hosil etamiz. Ya'ni ma'naviy ozuqalanamiz.

Milliy ma'naviyatda - milliy manfaat ham muhim rol o'ynaydi. Sobiq SHO'rolar davrida milliy manfaatni millatchilikka yo'yganlar va milliy manfaat yuzasidan harakat qilgan kishilarni, rahbarlar va yozuvchilarni millatchi deb badnom etganlar.

O'zbek xalqi uchun umuminsoniy ma'naviyat bilan birga milliy ma'naviyat va uning boyliklari ham g'oyat qimmatlidir. Bularga o'zbek xalqining o'zi yaratgan,

boyitgan, saqlab kelayotgan, avloddan-avlodga o'tib, boyib, sayqal topib, rivojlanib borayotgan milliy-ma'naviy boyliklar, ajdodlardan qolgan axloqiy an'ana, marosimlar, axloqiy pand-nasihatlar va hokazolar kiradi.

O'rta Osiyolik mutafakkirlarning ilmiy merosida, manbalarda o'zbeklarda qadrlangan, o'zbekona axloq, odobga oid ma'naviy fazilatlar haqida ko'plab qimmatli fikr, ma'lumotlar mavjuddir. Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining «Boburnoma» asarida o'zbeklarga xos bo'lgan ko'plab ma'naviy-axloqiy sifatlarni tasvirlaydi. Bular iymon va e'tiqodlilik, andishalilik, oilaga muhabbat, bolajonlik, halollik, birovning haqiga xiyonat qilmaslik, farzandlarning ota-onalariga, aka-uka, opa-singil, qarindosh-urug'lariga mehribonligi, diniy qadriyatlarga rioya qilish, savodxonlik, sahovatlilik, xushfe'llik, shirinso'zlik, mardlik, odillik, hayolilik, sahiylik, odamiylik, oq ko'ngillilik, mehnatsevarlik va boshqalardir.

O'zbek xalqining hozirgi milliy ma'naviyati va qadriyatlari o'tmish milliy ma'naviyatining davomi bo'lib ularga do'stlik, o'rtoqlik, mehmondo'stlik, odamgarchilik, insonparvarlik, axloqiy teranlik, tadbirkorlik, fazilatlilik, saxiylik, xushmuomalalilik, jamoa ichida o'zini tuta bilishlik, hayolilik, sizlab muomala qilish, ozodalik, xushchaqchaqlik, xushfe'llik, mardlik, samimiylilik, lutfi karamlilik, ro'zg'orparvarlik, shirinso'zlik, tashabbuskorlik, ona-yurt va xalqiga muhabbatlilik, insofililik, diyonatlilik, rostgo'ylik, halollik, oru-nomuslilik, to'g'rilik, rejalilik, poklik, sabr-andishalik, vazminlik, hojatbarorlik, ota-ona va kattalarni hurmat qilish, mehnatsevarlik, o'tmishga hurmat, insofililik, iymonlilik, milliy g'urur, mustaqillikni qadrlash, vatanparvarlik, millatparvarlik va boshqa milliy, ma'naviy - axloqiy fazilatlar kiradi.

Millat, xalq bor ekan uning ma'naviy dunyosida milliy jihatlar doim saqlanib qoladi. O'zbeklarning milliy ma'naviyati, erkak va ayollarning o'ziga xos sharqona axloqiy fazilatlarini, ota-ona, farzandlar, qo'ni-qo'shnilar, mahalla-ko'y aloqalari, halollik, iymon, vijdon bilan bog'liq ma'naviyati faqat o'tmish sadosi emas, balki hozirgi kun uchun ham xosdir.

O'zga millatlarning ma'naviy qadriyatlari qanchalik ta'sir ko'rsatmasin kattalarga, ota-onaga hurmat, kamtarlik, halollik, iymon, mehnatsevarlik, mehmondo'stlik singari milliy ma'naviy fazilatlarimiz barqarordir. Chunki bu ma'naviy xislatlar avloddan-avlodga o'tib qon-qonimizga singib ketgan. Ayollarimiz qanchalik zamonaviylashmasinlar, ular hayo, ibo, nomus bobida, oila, qarindosh-urug'larga nisbatan munosabat bobida sharqona, o'zbekona fazilatlarini tark etmaydilar. Millat bor ekan, uning ma'naviyati saqlanib qoladi va rivojlanaveradi.

Xalqimizning axloq, andisha, sharmu-hayo, halollik va pokizalik, inson qadr-qimmatini to'g'risidagi ma'naviy qadriyatlariga zid bo'lgan yevropacha an'analar yoshlar ma'naviyatiga salbiy ta'sir o'tkazdi. Shu tufayli ma'naviy tubanlik yuzaga keldi. Yoshlarda asriy milliy ma'naviyatimizga zid bo'lgan bag'ritoshlik (farzandni,

ota-onani tashlab ketish singari), qotillik (o'z farzandini o'ldirib yashirish), xudbinlik, maishiy buzuqlik, giyohvandlik kabi ma'naviy qiyofa yuzaga kelib, ildiz ota boshladi.

Abdulla Avloniy va boshqa ma'rifatparvar fidoiylar XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida Turkistonda hukmron bo'lgan ma'naviy inqiroz haqida gapirib, bu og'ir vaziyatdan ta'lim-tarbiya ishlarini yaxshilash, axloqni yuksaltirish orqaligina chiqish mumkinligini qayd qilgan edilar. «Tarbiya, - degan edi Abdulla Avloniy, - bizlar uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir».

Bu fikrlarning ahamiyati hozirda ham kamaygani yo'q. O'zbek millati faqat milliy ma'naviy kamolat orqaligina yuzaga kela boshlagan milliy-ma'naviy aynishning oldini olishi mumkin.

Sovet totalitar tuzumi barbod bo'lishi, O'zbekistonning o'z mustaqilligini qo'lga kiritishi jamiyatimiz ma'naviyatida chuqurlashib borayotgan inqirozning oldini olish uchun tangrining inoyati, xalqimizning baxti bo'ldi. Milliy mustaqillik tufayli jamiyatimizda milliy ma'naviy poklanish, o'nglanish, tiklanish jarayoni yuz berdi. Yosh avlodni, Siz kabi talaba yoshlarni vatanparvarlik, insonparvarlik, millatparvarlik ruhida tarbiyalash, milliy g'urur tuyg'usini kuchaytirish, iymon, vijdon, halollik, poklik, mehnatsevarlik, ishbilarmonlik singari xislatlarni shakllantirish, mustaqillikning ongli fidoyisiga aylantirish hozirgi kundagi milliy-ma'naviy tarbiya ishining asosiy maqsadidir.

Milliy tarbiya - u yoki bu millatni, elatni tashkil qiluvchi kishilarning milliy madaniyatni, merosni, qadriyatlarni, urf-odatlarini, an'analarni o'zlashtirishdagi faoliyatini rivojlantirish bo'lib, u milliy ong va milliy o'zlikni anglashning sub'ektidir.

Milliy tarbiyaning asosiy yo'nalishlarini millatparvarlikni, xalqparvarlikni, vatanparvarlikni, mehnatsevarlikni, yuksak insoniylikni rivojlantirish, merosni, urf-odatni, qadriyatlarni, fan, texnika, texnologiyalarni o'zlashtirishga intilishni rivojlantirish, mehr-oqibat, iymon-e'tiqod, or-nomus, insof-diyonat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning mohiyatini tushunib yetish va unga amal qilish ruhiyatini shakllantirish kabilar tashkil etadi.

Milliy tarbiyaning yana bir yo'nalishi - ota-ona, qarindosh-urug'larning hurmatini joyiga qo'yish, oilaning muqaddasligi tuyg'ularining barkamol bo'lishiga erishish, o'zaro munosabatlarda yonma-yon yashayotgan o'zga millatlar va elatlar vakillarining manfaatlarini hisobga olish kabilar tashkil etadi.

Xullas, Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek, milliy tabiatimizga xos bo'lgan mehr-oqibat, muruvvat, andisha, or-nomus, sharmu-hayo, ibo-iffat kabi betakror fazilatlar va xalqimizning ko'p jihatdan ajratib turadigan bag'rikenglik, mehmondo'stlik, oqko'ngillilik xususiyatlari haqida uzoq gapirish mumkin¹.

¹ Каримов И.А. Миллий истиљлол мафкураси - халқ эътиқоди ва буюк келажакка ишончдир. 24-бет.

Xulosa qilib aytganda, Prezidentimiz «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» asarida «Milliy madaniyatning o'ziga xosligini tiklashga alohida e'tibor berilishi kerak. SHu bilan birga milliy o'z-o'zini anglashning tiklanishi jahon insonparvarlik madaniyati va umumbashariy qadriyatlari, ideallaridan bizning ko'p millatli jamiyatimiz an'analaridan ajralib qolishi mumkin emas»².

Adabiyotlar ro'yhati

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – 2017. - №6(766). – Б.27.
2. Миллий оммавий ахборот воситалари, нашриётлар ҳамда матбаа соҳасининг ривожланиш тенденциялари ва истиқболлари тўғрисида матбуот анжумани пресс – релизи // http://www.api.uz/img/struct/63/31.01.2017_press-reliz.pdf
3. Исоқов А. Кўрсатув ва эшиттиришлар савиясини ошириш йўлида // Ўзбекистон матбуоти. – 1998. - №1. – Б.20-23.
4. Қамбаров М. Радиога нега эътибор кам? // Ўзбекистон матбуоти. – 1994. - №3. – Б.43.
5. Эгамназаров А. Манзиллар турли, муаммолар бир // Ўзбекистон матбуоти. – 1992. - №11-12. – Б.32-33.
6. Ibragimovna, R. S. (2020). REFORMS IN THE FIELD OF MEDICINE IN UZBEKISTAN DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE. Medical care, 24(46), 73-7.
7. Рахматуллаева, С. И. (2020). ЎЗБЕКИСТОНДА САЛОМАТЛИК МАСАЛАЛАРИ. In ОБЩЕСТВЕННЫЕ НАУКИ В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ: ПОЛИТОЛОГИЯ, СОЦИОЛОГИЯ, ФИЛОСОФИЯ, ИСТОРИЯ (pp. 103-107).
8. Temirova Mashhura Muhammadaminovna (2022). O'ZBEKISTON RESPULIKASI ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA KITOVXONLIKNI RIVOJLANTIRISHGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR (Farg'ona viloyati IIB misolida). Research Focus, (Special issue 1), 52-55.
9. Темирова, М. М. (2020). НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ СОЗДАНИЯ И ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ТАШКЕНТСКОЙ РАДИОСТАНЦИИ (1926-1930 гг.). In Культура и гуманитарные науки в современном мире (pp. 110-116).
10. Темирова, М. М. (2020). СОВЕТ ХУКУМАТИ ДАВРИДА РАДИОНИНГ КОММУНИСТИК МАФКУРА ТАРҒИБОТИ ВОСИТАСИГА АЙЛАНТИРИЛИШИ. ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ, 3(2).
- 11.17. Темирова, М. М. (2016). Қўқон хонлигининг савдо алоқалари (Шарқий Туркистон мисолида). Молодой ученый, (3-1), 4-5.
12. ТЕМИРОВА, М. HISTORY OF RADIOFICATION INFRASTRUCTURE IN UZBEKISTAN. UNIVERSITETI XABARLARI, 2019,[1/1] ISSN 2181-7324.

² Каримов И.А. Ўзбекистон буюк келажак сари, 62-бет.

**DORIVOR GULXAYRI (ALTHAEA OFFICINALIS L.) O'SIMLIGINING
DORIVORLIK XUSUSIYATI.****O.I. Muradova,***magistrant, Toshkent davlat agrar universiteti.***V.T. Qaysarov,***dotsenti b.f.n, Toshkent davlat agrar universiteti,**Dorivor o'simliklar kafedrası.*

Anotatsiya. Ushbu maqolada Dorivor gulhayri (*Althaea Officinalis L.*) o'simligining morfologiyasi, geografik tarqalishi va dorivorlik xususiyati, o'simlik ildizining kimyoviy tarkibi xalq tabobatida va meditsinada ishlatilishi haqida ma'lumotlar yozilgan.

Kalit so'z: *Dorivor gulhayri, o'simlik tarkibi, kraxmal, saxaroza, shilliq modda, pektin, gastrit, ekstrakt.*

Butun dunyo bo'yicha dorivor o'simliklar insonlarni davolashda, turli xil kasalliklarni oldini olishda va infeksiyon kasalliklarni bartaraf etishda, shuningdek, oziq-ovqat, atir-upa va kosmetika sanoatida ishlatilib kelmoqda. Yer yuzida jami dorivor o'simliklarning 10-12 ming turi borligi aniqlangan. O'zbekiston hududida esa 1200 ga yaqin o'simliklar dorivorlik xususiyatiga ega. Hozirgi zamonda texnikaning rivojlanishi bilan kasalliklar ham rivojlanib bormoqda. Bu esa o'z navbatida madaniy va yovvoyi dorivor o'simliklardan olingan preparatlari va o'simliklarning xom ashyolari, farmasvtikada ehtiyojning ortib borishiga olib kelmoqda. Qadimda ham dorivor o'simliklar insonlar ehtiyojini qondirishda ishlatilib kelgan. Shunday o'simliklardan biri Dorivor gulhayri (*Althaea Officinalis L.*) hisoblanib ildizi shifobaxsh hisoblanadi.

Dorivor gulxayri — *Althaea Officinalis L.* gulxayridoshlar - Malvaceae oilasiga kiradi. [1] Gulxayri ko'p yillik, bo'yi 150-160 sm bo'ladigan o't o'simlik, ildizpoyasi kalta, yo'g'on, ko'p boshli. O'q ildizi 50 sm uzunlikda bo'lib, yuqori qismi yog'ochlashgan bo'ladi. Poyasi — bitta yoki bir nechta, tik o'suvchi, [silindrsimon](#), kam shoxli, pastki qismi yog'ochlangan. Bargi oddiy bo'lib, bandi bilan poyada ketma-ket joylashgan, poyaning [yuqori qismidagilari butun](#), tuxumsimon, o'rta va pastkilari esa uch yoki besh bo'lakli, qo'shimcha bargi mayda, [ingichka](#), lansetsimon yoki chiziqsimon. Barg plastinkasi o'tkir uchli va tishsimon qirrali bo'ladi. Poya, shox va bargi sertuk bo'lganidan kulrang-yashil tusda ko'rinadi. Gullari barg qo'ltig'iga, poya va shoxlari uchiga joylashgan bo'ladi. [2] Iyun oyidan sentabrgacha gullaydi, mevasi iyuldan boshlab yetiladi.



1-rasm. Dorivor gulxayri (*Althaea Officinalis L.*) ning gullagan bosqichi.

Dorivor gulxayrining shifobaxshlik xususiyati asosan ildizi hisoblanadi. Ildizi tarkibida 35% shilliq moddalar, 37% kraxmal, 10,2% saxaroza, mikroelementlar, pektin va boshqa moddalar bor. Gulxayri ildizining shilliq moddalari pentozanlar, geksozanlar va uron kislotalar birikmalaridan tashkil topgan. Ildizidan olinadigan preparatlar (kukuni, damlamasi, quruq ekstrakti, sharbat) va mukaltin balg'am ko'chiruvchi, ko'krakni yumshatuvchi va yallig'lanishga qarshi vosita sifatida nafas yo'llari hamda me'da-ichak (gastrit, enterokolit va boshqa) kasalliklarni davolashda ishlatiladi.[3]

Maydalangan ildizi nafas yo'llari shamollaganda ishlatiladigan yig'malar – choylar tarkibiga kiradi. Ildizidan tayyorlangan sharbat farmatsevtika amaliyotida suyuq dorilar ta'minlash va yaxshilash uchun qo'llaniladi. Gulxayri turlari xalq tabobatida qadimdan ishlatilib kelinadigan o'simliklarga kiradi. Ibn Sino ularning ildizi, bargi va urug'idan tayyorlangan damlama bilan zotiljam, qon tupurish, yo'tal, buyrak kasalliklarini davolagan, hamda balg'am ko'chiruvchi va shishlarni qaytaruvchi vosita sifatida qo'llagan.[4]

O'rta Osiyo xalqlari gulxayrining ildizidan tayyorlangan damlamani ko'krak og'riganda, nafas qisishi, o'pka shamollashi, yo'tal, og'riq qoldiruvchi dori sifatida ishlatadilar. Ildizining damlamasi bolalarning ichi ketganda, buyrak va boshqa kasalliklarni davolashda qo'llaniladi. Tomoq yallig'langanda, tomoq og'riganda ushbu damlama bilan tomoq chayiladi. Gulxayri ildizi, guli va bargidan tayyorlangan malhamni quruq yaralar, yiringli yaralarga bog'lab qo'yilsa, yaxshi naf beradi.



2-rasm. Dorivor gulxayrining ildizi va ildizining qurutilgan holati.

Gulxayridan quyidagi usullari yordamida damlamalar tayyorlash mumkin:

1. Gulxayri ildizidan damlama tayyorlash uchun biror idishga 2 stakan qaynatib sovutilgan suv quyiladi va maydalangan ildizdan 4 choy qoshiq solib, vaqti-vaqti bilan chayqatib turgan holda 8 soat qo'yib qo'yiladi. So'ng dokadan o'tkaziladi. Tayyor bo'lgan damlamadan kuniga 3-4 mahal yarim stakandan ichiladi.

2. Gulidan damlama tayyorlash uchun 1 choy qoshiq maydalangan gulni 1 stakan qaynab turgan suvga solib, 2 soat qo'yib qo'yiladi. Keyin dokadan o'tkaziladi va tayyor bo'lgan damlamadan kuniga 1 choy qoshiqdan 3 mahal ilitib ichiladi. Bu balg'am ko'chiruvchi, yo'talga qarshi vosita sifatida qo'llanadi.

3. Bolalarga gulxayri ildizidan damlama tayyorlash uchun dorixonadan 100 gr gulxayri ildizi olib, 1 stakan qaynatib sovutilgan suvga 2 choy qoshiq solinadi va 8-10 soat qo'yib qo'yiladi. So'ng dokadan o'tkazib o'pkasi, Bronx yo'llari shamollagan bolalarga 1 osh qoshiqda 3-4 mahal ichiladi.[5]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Zakirov Q.Z., Nabiev M.M. va boshq. Ruscha-O'zbekcha botanika terminlarining qisqacha izohli lug'ati. T.: Fan.1963.
2. Kursanov A.I., va boshqalar. Botanika. Toshkent.O'qituvchi. 1963. 52 B.
3. Musayev B.S.Agrokimyo. Toshkent, 2001.
4. Xolmatov H.X., Axmedov O'.A. Farmakognoziya. Toshkent. Ibn Sino. 1995. 63 B.
5. Hojimatov Q. H., Yo'ldoshev K.Y., Shogulomov U. Sh., Hojimatov O.Q., "Shifobaxsh giyohlar dardlarga malham", T., 1995.

KIMYO YO'NALISHI TALABALARIGA INGLIZ TILI LEKSIKASINI O'RGATISHNING INTERFAOL TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH

Ismoilova Zarnigor Rahimjon qizi

Namangan Davlat universiteti 5A130201

Lingvistika ingliz tili mutaxassisligi 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Hozirgi kunda o'sib kelayotgan yosh avlodni chet tillariga o'qitish sifatini ta'minlash, chet tillarida erkin so'zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish, chet tillarni o'zlashtirish orqali jahon ta'lim standartlariga javob beradigan yetuk kadrlarni tayyorlash yurtimizda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotining maqsadlaridan biridir. Mazkur maqolada ham kimyo yo'nalishi talabalariga ingliz tili leksikasini interfaol texnologiyalar orqali o'rgatishning muhim masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: ingliz tili leksikasi, interfaol texnologiyalar, ta'lim tizimi, kimyo yo'nalishi, axborot texnologiyalari

Bugungi kun yoshlariga qo'yilayotgan talab ham aynan chet tillarini o'rganish ekanligini quyidagicha izohlash mumkin: Butun dunyo mamlakatlari bilan bevosita muloqot qilish, o'z mustaqil fikrini omma oldida ravon va tushunarli holda bayon qilib berish, dunyo hamjamiyatida O'zbekistonning alohida o'rnini ta'minlash va uni mustahkamlashga xizmat qilish uchun ham xalqaro tillarni o'rganish dolzarb masaladir.

Mamlakatimizning oliy o'quv yurtlari oldida talabaning nafaqat bilim doirasi kengaytirish, balki shu o'rganilayotgan tilda fikrlash va barcha vazifalarni ham rejalashtirgan. Talaba mustaqil ishi ikki ko'rinishga ega:

1. Dars jarayonida yangi pedagogik va axborot texnologiya yordamida tekstlarni eshitish, va ularni to'g'ri talaffuz qilish: tekstlarni pauza va pauzasiz eshitish va gapirib berish. Leksik materiallar asosida tarqatma materiallar bilan ishlash.

Yangi pedagogik va axborot texnologiyalar yordamisiz asosida hikoyalar tuzish.

2. Dasrdan tashqari talabalarning ingliz tiliga oid bolgan kechalar va shu orqali ingliz tilida yaxshi so'zlasha oladigan talaba ko'rgini o'tkazish tadbirlari kiradi. Bu tadbirlar dars jadvaliga kiritilmaydi va o'qituvchi tomonidan o'tkaziladi.

3. Chet tilidagi kitob va lug'at bilan mustaqil ishlash, chet tilidagi so'zlashishni eshitish va grammatik shakllarni to'g'ri ishlatish:

4. Talabalarni mutaxassislika doir matnlar ustida ishlashga o'rgatish. Kelajakda sohaga doir ish hujjatlarini ariza, taqriz, biografiya, uzrnoma, rasmiy va xususiy xatlar mustaqiltarзда, yozma shaklda yozish konikma va malakalarini takomillashtirish:

- Informasion uslubiy taminoti.
- Plakatlar.
- Texnika vositalari:
- Talabalarning ishlaridan namunalar:
- Tarqatmalar:
- O'qitishning texnik vositalari:
- Magnitafon:
- O'quv kompyuterlari:
- Vidoiklip va h.z

Kimyo yo'nalishi talabalariga xorijiy tillarni o'qitishda qo'shimcha manbalardan foydalanish, yordamchi o'quv vositalar orqali talabalarning xorijiy tilga qiziqish va munosabatini yanada yuksaltirish, har bir darsni interaktiv, yani faol-talaba usullarida olib borish, darslardan so'ng ularga qo'shimcha darslar berish va bu jarayondan an'anaviy usullardan keng foydalanishni taqozo qiladi. Innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda tashkil etilgan darslar jarayonida talabalarning chet tiliga bo'lgan qiziqishlarini orttirib, ularning mustaqil ijodiy ishlash malaka va ko'nikmalarini takomillashtirib boradi. „Innovatsion texnologiya” atamasining etimologiyasi ilmiy adabiyotlarida keltirilishicha „innovatsiya” (inglizcha innovation – kiritilgan yangilik, ixtiro, fan-texnikada joriy etilgan „yangilik”) manosini ifodalaydi, „texnologiya” esa lingvodidaktik tushuncha sifatida „kam vaqt, kuch va mablag' sarflab, talim maqsadiga erishishni taminlovchi say-harakatni ilmiy tashkil qilishning oqilona usullari majmui”ni ifodalaydi. An'anaviy pedagogikada innovatsion texnologiyaning muayyan usullari sifatida Cinquain, Brainstorming, Case, Zigzag, Cluster, Project, Method, Mind Mapping kabi turlarini qo'llash kata natijalar olib keldi. Quyida rivojlanayotgan yangi pedagogikalar haqida soz yuritamiz.

1) Ta'limda sun'iy aql. «Sun'iy aql» atamasi (SA) kompyuter tizimlarini tavsiflash uchun ishlatiladi. Sun'iy aql ta'lim tizimlari maktablarga, kollejlarga va universitetlarga shiddat bilan kirib bormoqda. Ko'pchilik odamlar sun'iy aqlni robot o'qituvchilar deb tasavvur qilsalar-da, uning ham foydali tomonlari bor. Talabalar uchun yaratilgan ilovalar aqlli o'qitish tizimi, dialogga asoslangan o'qitish tizimi, tadqiqotga asoslangan o'quv muhiti, avtomatik yozishni baholash va suhbat agentlarni o'z ichiga oladi. O'qituvchilar uchun mo'ljallangan dasturlar kam rivojlangan bo'lsa ham, o'qituvchilarni o'z bilimlarini oshirishlarida yordamchi dastur hisoblanadi. Shuni ta'kidlash joizki, talabalar va o'qituvchilarning tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, muloqot va hamkorlik kabi qobiliyatlarini inobatga olish kerak.

2) Ochiq ma'lumotlar orqali o'rganish. 250 dan ko'proq milliy, mahalliy va shahar hokimiyatlari va global miqyosdagi tashkilotlar ma'lumotlarni bir-birlari bilan almashishyapti, yaratishyapti va o'z ishlarida foydalanishyapti. Ushbu tashkilotlar xalq

tomonidan ishlatiladigan ma'lumotlarni ko'rishga intilishadi, ko'pgina yetuk xizmatlar ochiq ma'lumotlarni o'rganish uchun manbalarni taqdim etishadi.

3) Ma'lumotdan foydalanish axloqi bilan shug'ullanish. O'sib borayotgan ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanish axloqiy savollarning doimiy ravishda ko'payishi bilan birga keladi. Bu yerda axloqiy muammolar ko'p ma'lumotlarga, masalan, kim egalik qiladi, ma'lumotlarni qanday izohlash kerak, talabalar va professor-oqituvchilarning shaxsiy hayoti qanday himoya qilinishi kerak? O'zlari xabardor bo'lmagan odamlarni tanqid qilish holatlari ham kuzatilgan. Ehtimol, bu faqat vaqt masalasidir. Bunday muammolarni oldini olish uchun ta'lim muassasalarida ma'lumotlar axloqiga tegishli siyosatni ishlab chiqish, ma'lumotlardan foydalanish uchun talabalardan rozilik olish, ularning o'zaro aloqalaridagi har qanday ma'lumotlarni tahlil qilish, ularning ta'limni boshqarish tizimi haqidagi fikrlari bilan tanishib, samarali o'qitish tizimini yaratish, shuningdek, talabalar va xodimlarni qo'llab-quvvatlash masalalari ham inobatga olinishi kerak.

Hozirda rasmiy mashg'ulotlar mavjud emas. Buning uchun o'qituvchilar talabalarga imkoniyat yaratib berishi lozim. Hozirgi raqamli dunyoda institut va universitetlarning o'zaro ma'lumot almashishi ularning samaradorligini yanada oshiradi.

Kimyo sohasidagi bilimlar oshgani sayin, fanlarning o'zaro bog'liqligi fan va texnikaning tegishli tarmoqlarida ingliz tilidagi maxsus adabiyotlar bilan ishlash uchun zarur bo'lgan ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat bo'ladi. Talabalarga maxsus terminologiyani, qisqartirishlarni va boshqalarni tushunadigan oddiy maxsus matnni o'qish va tarjima qilish ko'nikmalarini singdirish, taklif qilinayotgan mavzu bo'yicha oddiy suhbat o'tkazish qobiliyatini rivojlantirish zarur. Shuning uchun, bu holda munosabatlar maxsus lug'at, qisqartma, belgilar va boshqalarni o'zlashtirishdan va matn ustida ishlashdan (o'qish, tarjima qilish, gapirish, grammatik material bilan ishlash) boshlanadi. Matn bilan ishlash - kimyo sohasida xorijiy so'zlar zaxirasini kengaytirishning eng yaxshi usulidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. J.Jalolov „Chet til o'qitish metodikasi”, Toshkent-2012, 99-100 b.
2. Innovating Pedagogy 2020” jurnali.
3. G.V.Rogova. Methods of teaching English.

**KIBERJINOYATCHILIK XALQARO XAVFSIZLIKKA TAHDID
SIFATIDA***Ismoilov Mavludbek Muqimjon o'g'li**Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi* Email ID:ismoilovmavludbek@gmail.com**Annotatsiya**

Mazkur maqolada kibermakonda shaxsga doir bo'lgan ma'lumotlarning daxlsizligi hamda shaxs daxlsizligi, ushbu huquq buzilishi oqibatida vujudga kelishi mumkin bo'lgan oqibatlar va unga nisbatan qo'llanadigan javobgarlik masalasi izchil tahlil qilingan. Ushbu maqolaning dolzarbligi butun dunyoda axborot texnologiyasi rivojlanishi va globallasuvi bilan vujudga kelgan axborot xavfsizligi kuchayishi bilan bog'liqdir. Ushbu ma'lumotlarni aniqligini oshirish maqsadida turli xil statistikalar va qonun hujjatlaridan keng foydalanildi. Shuningdek jadvallar bilan kreativ yondashish maqola mazmun mohiyatini yanada teranroq ochib berishga yordam bergan.

Kalit so'zlar: kiberjinoyat, Kibermakon, kiberhujum, axborot, axborot xavfsizligi, Qonun, kiberterrorizm.

XX asrning oxirgi choragida kompyuterlarning yaratilishi butun dunyoda axborot asrini boshlanishiga sabab bo'ldi. Globallasuv jarayonlari, kompyuter texnologiyalarining jadal rivojlanishi, umumiy integratsiya zamonaviy axborot jamiyatining paydo bo'lishiga olib keldi. Sivilizatsiyalashgan davlat va jamiyat parallel ravishda zamonaviy texnologiyalar hamda internetsiz mavjud bo'lolmaydi. Raqamli haqiqatda juda ko'p shaxsiy va rasmiy ma'lumotlar, hujjatlar, pullar, aktivlar mavjud. Bu ma'lumotlarni almashish, ish va hokazolar uchun o'ziga xos ulkan bazaga aylanib bormoqda. Axborotlashtirish va global kompyuterlashtirish sharoitida jamiyat hayotining barcha jabhalarida jiddiy o'zgarishlar ro'y berdi.

Ushbu o'zgarish jarayoni jinoiy muhitni ham chetlab o'tmadi, ya'ni: jinoyatning yangi shakli - axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar yoki kiberjinoyatlar paydo bo'ldi.

“Kiberjinoyat” ta'rifi turli olimlar o'rtasida ilmiy munozaralarga sabab bo'lmoqda, chunki bu hodisa yangi texnologiyalardan foydalangan holda sodir etilgan “an'anaviy” jinoiy harakatlarni ham, jinoyatning yangi obyektlariga qaratilgan harakatlarni ham o'z ichiga oladi. “Kiber jinoyat” tushunchasi “kompyuter jinoyati” tushunchasidan kengroq bo'lib, axborot makonidagi jinoyat kabi hodisalarning mohiyatini aniqroq aks ettiradi.

Oxford lug'atida keltirilicha, Internetdan foydalangan holda sodir etilgan jinoyat, masalan, kimningdir shaxsiy yoki bank ma'lumotlarini o'g'irlash yoki uning

kompyuteriga virusni yuqtirish deb keltirilgan bo'lsa [1], **Kembrij** lug'atida ham deyarli shunday ta'rif berilgan [2]. Ba'zi tadqiqotchilar kiberjinoyatni kibermakonda sodir etilgan jinoyat sifatida belgilashni taklif qilishdi ammo bu ta'rif kiberjinoyat kabi keng va ko'p qirrali tushunchani to'liq ochib bermaydi [3]. Lekin, O'zbekiston **Yuridik ensiklopediyasida** Kiberjinoyatlar haqida ma'lumot yozib o'tilmagan [4]. **Brittanica** ilmiy saytida esa kiber jinoyat, kompyuter jinoyati deb ham ataladi, kompyuterdan firibgarlik, bolalar pornografiyasi va intellektual mulk savdosi, shaxsiy ma'lumotlarni o'g'irlash yoki shaxsiy hayotni buzish kabi noqonuniy maqsadlar uchun vosita sifatida foydalanish [5]. **E.A Kirillovaning** fikricha, Kiberjinoyat deganda jinoyat qonunida nazarda tutilgan, axborot infratuzilmasiga, ulardagi ma'lumotlarga tajovuzkorlik, shuningdek, kibermakondagi boshqa obyektlarga nisbatan yoki uning imkoniyatlaridan foydalangan holda sodir etilgan jinoyatlar majmui kiradi [6].

2013 yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Giyohvand moddalar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi o'zining **"Kiberjinoyat muammosini har tomonlama o'rganish va unga a'zo davlatlar, xalqaro hamjamiyat va xususiy sektor tomonidan javob choralari"** [7] hisobotida kiberjinoyatlarning ta'riflari ko'p jihatdan uning maqsadiga bog'liqligini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, xuddi shu hujjatda ta'kidlanganidek, "kiber jinoyat" atamasi shaxsiy yoki moliyaviy manfaat yoki zarar uchun kompyuter bilan bog'liq har qanday harakatni, shu jumladan shaxs bilan bog'liq jinoyat shakllarini va kibermakondagi kompyuter mazmuni bilan bog'liq harakatlarni o'z ichiga oladi.

Yuqoridagi holatlarni o'rganib chiqqan, Kiberjinoayt so'ziga ta'rif beradigan bo'lsak, **Kiberjinoyat** – komputer vositalaridan foydalangan holda, boshqa shaxslarning shaxsiy ma'lumotlarini o'g'irlash ulardan foydalanish, firibgarlik qilish va o'z jinoiy maqsadlarini amalga oshirishni nazarda tutishimiz kerak.

Kiberjinoyatlarni paydo bo'lish evolyutsiyasiga qisqacha to'xtalib o'tadigan bo'lsa, Bu atama birinchi marta 1970-yillarning o'rtalarida paydo bo'lgan. XX asrda Qo'shma Shtatlarda aynan shu davrda birinchi jinoyatlar axborot texnologiyalaridan foydalangan holda sodir etilgan. 1973-yilda Nyu Yorkdagi mahalliy bank kassasi kompyuterdan 2 million dollar o'g'irlash uchun foydalangan. Qolaversa, u bu noqonuniy xatti-harakatini mutlaqo sodda yo'l bilan amalga oshirgan ya'ni, summani shaxsiy hisob raqamiga o'tkazgan [8].

Kiberjinoyatlarning birinchi kuchli to'liqini 80-yillarning oxirlarida **elektron pochta**ning tarqalishi fonida paydo bo'ldi. Foydalanuvchilarning pochta qutilariga zararli dasturlar kiritildi, bu esa kiberjinoyatchilarga shaxsiy ma'lumotlarga kirishga va keyin o'z firibgarliklarini amalga oshirishga imkon berdi. Ushbu firibgarliklardan biri - **"Nigeriya harflari"** deb atalmish bugungi kungacha kiber firibgarlar tomonidan qo'llaniladi. Mazkur firibgarlik qanday amalga oshirilishi haqida qisqacha to'xtalib o'tadigan bo'lsak, *"Salom, men Nigeriyadan kelgan baxtsiz shahzodaman. Menga*

sizning yordamingiz kerak, millionlarimni ishonchli bankka o'tkazishimga yordam bering, ha, siz ozgina sarflashingiz kerak bo'ladi, lekin keyin men sizga saxiylik bilan rahmat aytaman va boyligimni siz bilan bahamko'raman, siz sarflagan mablag'ingiz uchun katta foiz olasiz. .." va boshqalar. Ularyaxshi psixologlar, bu firibgarlar va hali ham o'zlarining ishonchli qurbonlarini topadilar [9].

Kiberjinoyatlarning keyingi to'liqlini 90-yillarda ko'tarildi va **veb- brauzerlarning** rivojlanishi bilan bir vaqtga to'g'ri keldi. O'sha paytda veb- brauzerlar soni bugungi kunga qaraganda ancha ko'p edi va ularning aksariyati viruslarga qarshi himoyasiz edi. Foydalanuvchi shubhali saytlarga tashrif buyurganida, viruslar Internetga ulanish orqali yetkazilgan. Ko'pincha kompyuter sekinroq ishlaydi, qalqib chiquvchi reklamalar kutilmaganda paydo bo'lib, ekranni yashiradi yoki sizni boshqa reklamali saytlarga yo'naltiradi.

2000-yillarning boshlarida kiberjinoyatlarning ommaviy **o'sishiga ijtimoiy tarmoqlarning paydo bo'lishi** va rivojlanishi sabab bo'ldi. Tarmoqda ko'plab shaxsiy ma'lumotlarni ixtiyoriy ravishda joylashtirish orqali odamlar shaxsiy ma'lumotlarni o'g'irlagan, bank hisoblariga kirish huquqiga ega bo'lgan va turli moliyaviy firibgarliklarni amalga oshirishi mumkin bo'lgan xakerlar uchun oson o'ljaga aylanishdi [10].

Shunga qaramay, ushbu jinoyatning aniq belgilangan va umumiy qabul qilingan tushunchasi hali ham mavjud emas. Umuman olganda, kiberjinoyatlar virtual makon deb ataladigan jinoyatlardir, deyishimiz mumkin. Bu tushunchakompyuter tizimi yoki Tarmoq (Internet) yordamida, kompyuter tizimi yoki Tarmoq (Internet) doirasida yoki kompyuter tizimiga yoki Tarmoqqa (Internet) qarshi sodir etilgan jinoyatlarni o'z ichiga oladi. Kiberjinoyat juda keng tushunchadir. Bu jinoyatlar anonimlik, jinoyatchining maksimal maxfiyligi bilan tavsiflanadi. Malumki, axborot maydonida noqonuniy harakatni sodir etgan shaxsni aniqlash juda qiyin. Mazkur jinoyatga qarshi kurashish uchun har bir davlat ichki qonunchiligi asosida o'zini himoya qilishi kerak.

Agar ichki qonunchilik asosida mamlakat ichidagi kiberjinoyatlarni oldiniola olsak, Xalqaro darajadagi kiberhujumlarni ham o'rni asta sekin yo'qolib boradi. Buning uchun albatta qonunchilikning o'zi yetarli emas. Uni ijrosini amalga oshirish va nazoratni kuchaytirish ham kerak. Shu maqsadda biz quyidagi rivojlangan davlatda jiberjinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha qanday normativlar borligiga to'xtalib o'tsak:

Davlatlar	Normativ huquqiy hujjatlar
Amerika Qo'shma Shtatlari	<i>Qo'shma Shtatlar kibertahdidlarga e'tibor qaratgan birinchi davlatlardan biridir. Shuni ta'kidlash kerakki, bu erda 1986 yilda birinchi qonun - Kompyuter firibgarligi va suiiste'molliigi to'g'risidagi qonun (CFAA) qabul qilingan [11] Ushbu turdagi jinoyat davlatning milliy xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan asosiy hujjat – Milliy xavfsizlik strategiyasida (2017-yil) ham o'z ifodasini topgan [12].</i> <i>2018-yilda 2003-yilda ishlab chiqilgan va qabul qilingan AQShning Kiberxavfsizlik strategiyasi yangilanganini ham ta'kidlash joiz [13]</i>
Yevropa Ittifoqi	<i>Yevropa Ittifoqi 2004 yil 1 noyabrda kuchga kirgan Yevropa Kengashining Kiberjinoyatchilik to'g'risidagi konventsiyasi [14]</i>
Buyuk Britaniya	<i>Buyuk Britaniyaning o'ziga xos huquqiy akti - Kompyuterni suiiste'mol qilish to'g'risidagi qonun mavjud [15]</i>
Brazilya	<i>1940-yilda e'lon qilingan Brazilya Jinoyat kodeksi [16]; 2014-yil 23-aprelda Respublika Bosh Kotibiyatining Huquqiy masalalar bo'yicha kichik qo'mondonligi raisligida Braziliyada Internetdan foydalanish tamoyillari, kafolatlari, huquq va majburiyatlarini belgilovchi LEI № 12,965 sonli Qonuni [17]</i> <i>Kompyuter jinoyatlarini jinoiy tasniflashni</i>

	ta'minlovchi 1940 yil 7 dekabrda 2848-son Farmoniga o'zgartirishlar kiritgan holda, 2012-yil 30-noyabrda 12737-son qonun [18]i.
Germaniya	Ijtimoiy tarmoqlarda qonunlar ijrosini takomillashtirish to'g'risidagi qonun (Tarmoqni qo'llash to'g'risidagi qonuni [19]) Bu mamlakatda 1986 yilda Jinoyat kodeksida kompyuter ma'lumotlari sohasidagi jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlikni belgilash masalasi paydo bo'lgan [20]
Rossiya Federativ Respublikasi	2016 yil 5 dekabrda qabul qilingan Rossiya Federatsiyasining Axborot xavfsizligi doktrinasi (IS) hisoblanadi. "Rossiya Federatsiyasining muhim axborot infratuzilmasi xavfsizligi to'g'risida" 2017 yil 26 iyuldagi 187-FZ-sonli Federal qonuni [21] 2003 yil 7 iyuldagi "Aloqa to'g'risida" gi № 126-FZ Federal qonuni, o'zgartirishlar bilan (Aloqa to'g'risida qonun); 2006 yil 27 iyuldagi "Axborot, axborot texnologiyalari va axborotni himoya qilish to'g'risida" gi 149-FZ-sonli Federal qonuniga o'zgartirishlar kiritilgan (Axborot to'g'risidagi qonun); Rossiya Federatsiyasi Prezidentining 2015 yil 31 dekabrda "Rossiya Federatsiyasining Milliy xavfsizlik strategiyasi to'g'risida" gi 683-sonli Farmoni bilan qabul qilingan Rossiya Federatsiyasida Milliy xavfsizlik strategiyasi;

	Rossiya Federatsiyasi Prezidentining 2016 yil 5 dekabrda 646-sonli "Rossiya Federatsiyasining Axborot xavfsizligi doktrinasini" ni qabul qilish to'g'risidagi farmoni (Axborot xavfsizligi doktrinasini); va 2017 yil 26 iyulda "Rossiya Federatsiyasining muhim axborot infratuzilmasi xavfsizligi to'g'risida" gi 187-FZ-sonli Federal qonuniga o'zgartirishlar kiritilgan (Axborot infratuzilmasi xavfsizligi to'g'risida qonun) [22]
--	--

Bundan tashqari, butun dunyodagi statistikaning quyidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin. Mazkur statistikaning ko'radigan bo'lsak, dunyo davlatlarining 80 %i kiberjinoyatchilikka qarshi qonunlar mavjudligini, 5 %i qonun imzolayotgan bo'lsa qolgan 13% ida mazkur jinoyat qonun bilan tartibga solinmagani va 1% davlatlarda esa bu haqida hech qanday ma'lumot yo'qligini ko'rishimiz mumkin. Yuqoridagi davlatlardagi normativ-huquqiy hujjatlar davlatlarning kiberjinoyatchilikni oldini olishga qaratilgan bo'lishiga qaramay, xalqaro jinoyatchilik tartibga solinmagan. Ya'nikim, mazkur normalarni chet el davlatlaridan turib buzilishi natijasida unga nisbatan qanday javobgarlik berilishi masalasi ko'rib chiqilmagan, Chunki, kiberjinoyatni kim amalga oshirganini hozirgi kunda aniqlash qiyin masalaga aylanmoqda.

Kiberjinoyat to'rtinchi sanoat inqilobi davrida farovonlik uchun eng katta



(Birlashgan Millatlar Tashkilotining Savdo va rivojlanish bo'yicha komissiyasining 2021-yil 14-dekabrda ma'lumotlari asosida [23])

xavflardan biridir. Butun davlatlarga qarshi kiberhujumlar xalqaro e'tiborni o'ziga jalb

qiladi, ammo aslida kiberjinoyatchilar jismoniy shaxslarga ham, korxonalarga ham ko‘proq zarar keltiradi va raqamli rivojlanishga to‘siq bo‘ladi.

Yuqoridagi holatlarni o‘rganib chiqqan holda xulosa qiladigan bo‘lsak, kiberhujum xalqaro hamjamiyat uchun katta xavf ekanligini keng qamrovda o‘rgangan holda, kiberhujum o‘zi qanday vujudga kelgani va uning sabablari aniqlandi. Ushbu masalalar maqola davomida keng qamrovda o‘rganib chiqilib, kiberjinoyat tushunchasiga mualliflik shakllantirildi. Hozirgi internet rivojlangan zamonda shaxs daxlsizligini ta‘minlash uchun milliy va xorij mamlakatlari qonunchiligi o‘rganib chiqildi. Ushbu izlanishlar davomida barcha davlatlarda ham kiberjinoyatchilik hamda internetdagi firibgarliklarni oldini oluvchi normalar yagona qonunchiliklarida berilmaganligi aniqlandi.

REFERENCE

1. The official website: Oxford Dictionary, Cybercrime // Available at: https://www.oxfordlearnersdictionaries.com/definition/english/cybercrime?q=cyb_e_rcrime [Accessed on 20.04.2023]
2. The official website: Cambridge Dictionary, Cybercrime // Available at: <https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/cybercrime> [Accessed on 20.04.2023]
3. Al-garadi M.A., Varathan K.D., Ravana S.D. (2016) Cybercrime detection in online communications: The experimental case of cyberbullying detection in the Twitter network. Original Research Article. Computers in Human Behavior, Volume 63, October 2016, pp. 433–443.
4. Muhitdinov R.A. O‘zbekiston yuridik ensiklopediyasi, –T.:–2009. – B.704.
5. The official website: Britannica, Cybercrime // Available at: <https://www.britannica.com/topic/cybercrime> [Accessed on 20.04.2023]
6. Kirillova Elena Anatolievna The use of personal data for the purpose of committing crimes // Austrian Journal of Humanities and Social Sciences. 2017.
7. №1-2. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/the-use-of-personal-data-for-the-purpose-of-committing-crimes> [Accessed on 19.04.2023]
8. The official website: UNODC (United Nations Office of Drugs and Crime) Report on the meeting of the Expert Group to Conduct a Comprehensive Study on Cybercrime held in Vienna from 27 to 29 March 2019 Available at: https://www.unodc.org/documents/organizedcrime/cybercrime/Cybercrime-March-2019/Report/UNODC_CCPCJ_EG.4_2019_2_E.pdf [Accessed on 18.04.2023]
9. The official website: Первкй юрист, Киберпреступление // Available at: <https://urist.one/dolzhnostnye-prestupleniya/kiberprestupnost/kiberprestuplenie.html> Accessed on 18.04.2023]
10. Suleman Ibrahim (2016) Social and contextual taxonomy of cybercrime: Socioeconomic theory of Nigerian cybercriminals. Original Research Article

International Journal of Law, Crime and Justice, In Press, Corrected Proof,
Available online 11 August 2016

11. The official website: Тайны и Загадки истории, Откуда родом киберпреступность? // Available at: <https://tayni.su/193601.html> [Accessed on 18.04.2023]
12. The official website: Energy.com Computer Fraud and Abuse Act (18 USC 1030) Available at: <https://www.energy.gov/sites/prod/files/cioprod/documents/ComputerFraud-AbuseAct.pdf> [Accessed on 19.04.2023]
13. National Security Strategy of the United States of America 2017 Available at: <https://trumpwhitehouse.archives.gov/wp-content/uploads/2017/12/NSS-Final-12-18-2017-0905.pdf> [Accessed on 19.04.2023]
14. The official website: USA Department of State, Release of the 2018 National Cyber Strategy Available at: <https://2017-2021.state.gov/release-of-the-2018-national-cyber-strategy/index.html> [Accessed on 20.04.2023]
15. The official website: Council of Europe, Convention on Cybercrime Budapest, 23.XI.2001// Available at: <https://rm.coe.int/1680081561> [Accessed on 20.04.2023]
16. The official website: Legislation of UK, Computer Misuse Act 1990,
17. // Available at: <https://www.legislation.gov.uk/ukpga/1990/18/contents> [Accessed on 20.04.2023]
18. The official website: Planalto, Decree-law no. 2,848 , of december 7, 1940 // Available at: http://www.planalto.gov.br/ccivil_03/Decreto-Lei/Del2848compilado.htm [Accessed on 20.04.2023]
19. The official website: Planalto, LEI Nº 12.965, DE 23 DE ABRIL DE 2014// Available at: http://www.planalto.gov.br/ccivil_03/_ato2011-2014/2014/lei/112965.htm [Accessed on 20.04.2023]
20. The official website: Planalto, LEI Nº 12.737, DE 30 DE NOVEMBRO DE 2012.// Available at: https://www.planalto.gov.br/ccivil_03/_ato2011-2014/2012/lei/112737.htm [Accessed on 20.04.2023]
21. The official website: Bundesministerium der Justiz, Act to Improve Enforcement of the Law in Social Networks (Network Enforcement Act) // Available at: https://www.bmj.de/SharedDocs/Gesetzgebungsverfahren/Dokumente/NetzDG_en_gl.html [Accessed on 20.04.2023]
22. The official website: Federal Ministry of Justice, German Criminal Code (Strafgesetzbuch – StGB) // Available at: https://www.gesetze-im-internet.de/englisch_stgb/index.html [Accessed on 20.04.2023]
23. Федеральный закон от 26 июля 2017 г. N 187-ФЗ "О безопасности критической

информационной инфраструктуры Российской Федерации" // Available at:
<https://rg.ru/documents/2017/07/31/bezopasnost-dok.html> [Accessed on
20.04.2023]

24.O.Chislova and M. Sokolova, Cybersecurity in RussiaInt Cybersecur Law Rev.
2021; 2(2): 245–251. // Available at:
<https://www.ncbi.nlm.nih.gov/pmc/articles/PMC8287291/> [Accessed on
20.04.2023]

25.The official website:UNCTAD (United Nations Conference on Trade and
Development) Cybercrime Legislation Worldwide // Available at:
<https://unctad.org/page/cybercrime-legislation-worldwide> [Accessed on
20.04.2023]

CHET TILINI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN METODLAR.

Guljaxon Mardanova Furqat qizi
Samarqand davlat Chet tillar instituti

